

U.X. Mavlyanova

# XITOIY FILOLOGIYASIGA KIRISH



Toshkent - 2013

809.51  
M-13

10

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

**Mavlyanova Umida Xodjakbarovna**

## **XITOIY FILOLOGIYASIGA KIRISH**

5120100 - Filologiya va tillarni o'qitish (xitoy tili) ta'lim yo'nalishi  
bo'yicha tahsil oluvchi talabalar uchun asosiy o'quv qo'llanma

Mazkur o'quv qo'llanma "Filologiya va tillarni o'qitish (xitoy tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil oluvchi talabalarga mo'ljallangan bo'lib, xitoy tili haqidagi asosiy ma'lumotlarni qamrab oladi. Qo'llanmada xitoy tili tarixini davrlashtirish masalalari, grammatikaga oid xitoy tilidagi ilk ilmiy manbalar, xitoy yozuvining o'ziga xos xususiyatlari bayon etilgan. Shuningdek, Xitoyda yozuvni isloh qilish borasida amalga oshirilgan harakatlar, ieroglif bilan bog'liq muammolar va yechimi masalalari o'z ifodasini topgan. Xitoy tili fonetik va fonologik, morfologik sathining ham asosiy masalalari yoritilgan.

**Muharrir:** *f.f.d., prof. Z.N. Xudoyberganova*

**Taqrizchilar:** *f.f.n., dots. A.A.Karimov*  
*f.f.n. S.A. Nosirova*

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining  
2013 yil 19 apreldagi 128-sonli buyrug'iga asosan 5120100 -  
Filologiya va tillarni o'qitish (xitoy tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha  
tahsil oluvchi talabalar uchun asosiy o'quv qo'llanma sifatida nashrga  
tavsiya etilgan (Ro'yxatga olish raqami 128-063)

Mazkur o'quv qo'llanma Toshkent davlat sharqshunoslik instituti  
O'quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan  
(Bayonnoma №3, 21.12.2012)

© Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2013

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, jahon hamjamiyatining rivojlangan davlatlari, shular qatorida alohida o'rin tutgan Xitoy bilan ham iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar o'rnatildi. O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi munosabatlar jadal ravishda rivojlanib borayotgan bir paytda mamlakatimizda yuqori malakali, salohiyatli xitoyshunos mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj kuchaymoqda. Bu holat esa, o'z navbatida xitoyshunos mutaxassislarini tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari oldiga sohaga doir atroflicha va batafsil bilim berish talabini qo'yadi. Xitoyshunoslar xitoy tilida erkin muloqot qilish, o'z fikrini bildirish, mustaqil mushohada yuritish, ona tilidan xitoy tiliga, xitoy tilidan ona tiliga turli mavzulardagi matnlarni tarjima qilish, xitoy tilida ixtiyoriy mavzuda bahslashish malakasidan tashqari, keng filologik bilimga ham ega bo'lmog'i darkor. Shuning uchun bo'lajak mutaxassislar xitoy tilining nazariy grammatikasi, leksikologiyasi, so'z yasalishiga oid mavzularni o'zlashtirish bilan birga xitoy tilining genealogiyasi, tarixiy rivojlanishining asosiy bosqichlari, uning umumiy tavsifi, xitoy tilining Xitoyda o'rganilish tarixi, tilning grammatik tarkibi va yozuvi, zamonaviy xitoy ierogliflarining tarkibotlari, xitoy tilining oltoy oilasiga manusb boshqa tillar bilan asosiy o'xshash va farqli jihatlari, xitoy grammatikasiga oid ilmiy atamashunoslik, xitoy tilidagi fonemalar tarkibi hamda o'zbek xitoyshunosligining rivojlanish tarixi haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak. Xususan, "Filologiya va tillarni o'qitish (xitoy tili)" ixtisosligi bo'yicha "bakalavr" akademik darajasiga ega mutaxassislar xitoy tili va adabiyotining rivojlanish davrlarini, xitoy tili yozuvining tavsifi, mutaxassislikning atamashunoslik apparatini, fanning asosiy masalalari bo'yicha xulosalarni, ilg'or surilayotgan gipotezalar bo'yicha fikr-mulohazalarni bilishi va ulardan foydalana olishi, qo'yilgan vazifalarni yechimi topish uchun ilmiy va badiiy adabiyotlar bilan ishlash kabi ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi darkor kerak.

"O'rganilayotgan til filologiyasiga kirish (xitoy tili)" fani aynan shu masalalarga doir ma'lumotlarni qamrab oladi.

**O'quv qo'llanmaning maqsadi** – o'rganilayotgan til mamlakati (Xitoy)ning ilmiy merosi, xitoy tilining grammatik tuzilishi xususiyatlari, xitoy tilining rivojlanish tarixi, o'zbek xitoyshunosligining paydo bo'lishi va rivojlanishi haqida tegishli bilimlarni egallash, malaka va ko'nikmalarni hosil qilishdan iboratdir.

**Fanning vazifalari:** xitoy tilining rivojlanish tarixi haqida to'liq ma'lumotlarni berish, xitoy tilini grammatik tuzilishini tahlil qilishni o'rgatish, xitoy tili yozuvini tavsiflash, mutaxassislik bo'yicha atamashunoslik apparati bilan foydalanish, mazkur masala bo'yicha ilmiy, shu qatorda Internet manbalarni tahlil etish kabilarni o'z ichiga oladi. Mazkur o'quv qo'llanma to'rt bobdan tashkil topgan. Qo'llanmaning avvalida o'zbek xitoyshunosligining yuzaga kelishi va taraqqiyoti tarixiga doir ma'lumotlar, sohaga doir o'qitiladigan umumkasbiy fanlar, nashr etilgan o'quv adabiyotlari haqida to'liq ma'lumot keltiriladi.

"Xitoy tili haqidagi asosiy ma'lumotlar" nomli birinchi bobda xitoy tili tarixini davrlashtirish masalalari, Xitoyda grammatik fikrning rivojlanishi, grammatikaga oid xitoy tilidagi ilk ilmiy manbalar, xitoy yozuvining o'ziga xos xususiyatlari, zamonaviy xitoy ierogliflarning tarkibiga oid ma'lumotlar bayon etilgan. Shuningdek, Xitoyda yozuvni isloh qilish borasida amalga oshirilgan harakatlar, ieroglif bilan bog'liq muammolar va yechimi masalalari haqida ham qiziqarli fikrlar o'z ifodasini topgan.

Ikkinchi bob xitoy tili fonetik va fonologik sathi masalalariga bag'ishlangan. Bu bobda xitoy tilidagi unililar va undoshlarning tavsifi hamda tasnifi, xitoy tilining fonematik tuzilishi, xitoy bo'g'inlari tarkibi o'rganiladi.

Uchinchi bob xitoy tilining morfemik tarkibi tahlilini qamrab oladi. Bu bobda xitoy tilidagi so'z yasalishi va so'z yasash modellariga oid materiallar keltirilgan. Bunda affikslar yordamida so'z yasash, aralash yasash, konversiya, chet tillaridan o'zlashtirishlar, jumladan, xitoy tilida so'z yasashning aniqlovchi tur, kapulyativ tur, to'ldiruvchi tur, natijaviy tur, predikativ tur kabi modellarining o'ziga xos xususiyatlari yoritiladi.

Xitoy tilining morfologik tabiati oid to'rtinchi bobda xitoycha so'zning grammatik tabiati (umumlashtirilgan-kategorial ma'no, bo'g'in-miqdorli tarkib) hamda xitoy tilidagi mustaqil hamda yordamchi so'z turkumlari haqida batafsil ma'lumot berilgan.

O'quv qo'llanmaning har bir bobi oxirida nazorat uchun savollar berilgan. O'quv qo'llanma so'ngida mustaqil ish uchun mavzular, glosariy, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ham keltirilgan.

## O'zbek xitoyshunosligining yuzaga kelishi va taraqqiyoti tarixidan

Xitoy filologiyasi kafedrası 1918-yili Turkiston Sharqshunoslik institutining avlodi hisoblanadi. Bu davrda XX asrning unutilmas siymolari orasida shu dargohga asos solgan ustozlarimiz I.A.Lissen va U.M.Mamatxunovalar xissalari nafaqat xitoyshunoslik, balki jahon tilshunosligi va adabiyotshunosligi rivojlanishida salmoqli iz qoldirganini alohida tilga olish darkor. Keyinchalik kafedraning yuksalishida katta o'qituvchilar O.A.Vagin, N.Xoxlov, I.Ro'zboqiev, M.I.Mulda-kulova, G.I.Larionov, N.O.Zevushkina, M.I.Molajatovalar o'zlarining munosib hissasini qo'shdilar. Fakultetning ilk tashkil etilgan damlarida B.A.Pestovskiy tomonidan xitoy tili va adabiyoti fanlaridan ma'ruzalar o'qilar edi. 1924-yili Turkiston sharqshunoslik instituti ToshDUga (hozirda Mirzo Ulug'bek nomidagi Milliy universitet) sharqshunoslik fakulteti sifatida qo'shiladi. Bu davrga kelib xitoy tili o'qituvchilari safiga ushbu til bo'yicha 304 betlik "Zamonaviy xitoy tili grammatikasi" kitobini yaratgan yirik tilshunos professor Ye.D.Polivanov qo'shiladi. 1930-yili sentyabr oyiga kelib Milliy universitetning sharq fakulteti o'z faoliyatini to'xtatadi. 1944-yilda esa u o'z faoliyatini qayta tiklaydi. 1951-yili bu fakultetda katta o'qituvchi M.I.Molajovaning yetakchiligida fakultet kafedralarining biri bo'lgan uyg'ur filologiyasi kafedrasining qoshida talabalarga xitoy tilini o'rgatish yo'lga qo'yiladi. 1957-yili uyg'ur filologiyasi o'rniga O'zbekiston maorif tarixida birinchi marotaba xitoy filologiyasi kafedrası tashkil etildi. O'sha davrda O'zbekistonda tashkil etilgan kafedra nafaqat mamlakatimizda, balki, butun O'rta Osiyoda xitoyshunoslik yo'nalishi bo'yicha Sobiq Ittifoqda xitoyshunos mutaxassislarni tayyorlab beruvchi yagona markaz edi. Kafedraning bosib o'tgan ilmiy yo'llarini sarxisob qiladigan bo'lsak, kafedra 1980-yilga kelib, nafaqat Markaziy Osiyo (Qozog'iston, Qirg'iziston respublikalari), balki Bolgariya, Mo'g'uliston, Polsha hamda Laos kabi mamlakatlarga xitoyshunos olimlarni yetkazib bera boshladi. Demak, bu o'tgan asrning 70-80 yillariga kelib xitoy filologiyasi kafedrası xalqaro kafedra sifatida faoliyat olib borganligidan dalolat beradi.

Kafedra tarixida erishilgan yutuqlarda mohir tarjimon, iste'dodli olim t.f.n., dotsent M.X.Mahmudxo'jaevning xizmatlari beqiyos. Aynan M.X.Mahmudxo'jaevning uzoq yillik betinim va samarali faoliyati, rah-

barligi davrida Markaziy Osiyo va Sobiq sotsialistik davlatlarga xitoyshunoslik bo'yicha yetuk mutaxassislar tayyorlab berildi hamda bugungi o'zbek xitoyshunoslik maktabining rivojida tarixiy ahamiyat kasb etdi. 1991-yil O'zbekistonning mustaqillikka erishishi bilan sharqshunos kadrlarga bo'lgan extiyoj yanada oshdi. Ana shu maqsadda 1992-yilda Toshkent davlat sharqshunoslik instituti tashkil etildi.

1999-2000-yillar davomida kafedrani katta o'qituvchi M.Kaunbaev boshqardi. Uning boshchiligida kafedrani zamonaviy o'quv qurollar bilan jihozlash masalasi yo'lga qo'yildi. 2000-2005-yillar mobaynida filologiya fanlari nomzodi, dotsent A.A.Karimovning xitoy filologiyasi kafedrasi mudiri etib tayinlanishi kafedraning ilmiy faoliyati va salohiyatini oshirishda yangi davr boshlandi. Uning rahbarligida S.A.Nosirova va S.A.Xashimovalar nomzodlik dissertatsiyalarini birin - ketin himoya qildilar. 2005-2007-yillarda esa kafedra s.f.n., dots. I.N.Bekmuratov tomonidan, 2007-2010-yillarda katta o'qituvchi L.A. Sultanova, 2010-2011 filologiya fanlari nomzodi, katta o'qituvchi S.A.Nosirova, 2012- yildan hozirgi kungacha qadar katta o'qituvchi L.A.Sultanova kafedrani boshqarib kelmoqda.

Kafedraning tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'tgan yillar davomida kafedrada xitoy tili va adabiyoti, falsafasi, siyosati, iqtisodiyoti va tarixini o'rganish bilan bog'liq qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilganligi kuzatiladi. Bular ichida: 2002-yilda Sh.I.Shazamanov "Siyosiy barqarorlik va taraqqiyot (Xitoy misolida)" mavzusida; 2005-yilda J.T.Ziyamuhamedov "Pu Sunglingning sehrli novelalari (syujetning kelib chiqishi va rivojlanishi)"; 2006-yilda I.N.Bekmuratov "Deyatelnost Shanxayskoy organizasii sotrudnichestva i protsess yeyo institusionalizatsii"; 2008-yilda S.A.Nosirova "Hozirgi zamon xitoy tili diplomatik terminlarining leksik - semantik va struktur tahlili"; 2009-yilda S.A.Xashimova "Hozirgi xitoy tilida reduplikatsiya" mavzularida nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qildilar. Bundan tashqari kafedra davlatimiz uchun yetuk mutaxassis - diplomat kadrlarni tayyorlashda ham o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Ular: O'zbekistondagi XXR elchixonasida faoliyat olib borayotgan falsafa fanlari nomzodi B.E. Tursunov, hozirda O'zbekistondagi Malayziya Respublikasi muxtor elchisi, siyosiy fanlar nomzodi Sabitov Shukur va b. o'tgan yillar davomida V.V.Kim (1995-yil), N.E.Karimovalar (2008 y.) doktorlik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyalarini himoya qildilar. Ushbu dalillar kafedraning qisqa davr, ya'ni mustaqillik yillarida zafarli yo'llarni bosib o'tganligidan dalolat beradi.

1999-yilda xitoy filologiyasi kafedrasida magistratura yo'nalishi ochildi va hozirgi kunga qadar 40 dan ortiq magistrantlar magistr darajasini olishga muvaffaq bo'ldi.

2000-2001-yillarga kelib xitoy filologiyasi kafedrasi qoshida vetnam, malay va indonez tillarining ham o'qitilishi hisobiga yanada kengaydi. 2004 - 2005 o'quv yillarida xitoy filologiyasi kafedrasi 200 dan ortiq talabalar bakalavr darajasini olishga muvofiq bo'ldi. 2006-2010 o'quv yilida kafedrada 26 nafar, 2010-2012 o'quv yilida esa 30 nafar professor-o'qituvchi ish olib bordi. Bulardan 19 nafari asosiy, 8 o'rindosh va 3 soatbay asosida ishlovchi o'qituvchilar faoliyat ko'rsatib kelmoqdalar. Bular ichida: fan doktorri 1 nafar, fan nomzodlari 7 nafar, dotsentlar 5 nafar, katta o'qituvchi 4 nafar.

Kafedraning ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida 200-yildan boshlab har yili "Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari (falsafa, tarix, madaniyat, iqtisod va siyosat)" ruknida an'anaviy tarzda ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazilib kelinmoqda. Har yilgi anjuman ma'ruzalari to'plam ko'rinishida chop etiladi. Ushbu anjumaning asoschisi hozirgi kunda ToshDSHI qoshidagi Konfusiy nomidagi institut rahbari f.f.n, dotsent A.A.Karimov hisoblanadi.

Institut bo'yicha tayyorlanayotgan "Filologiya va tillarni o'qitish" va "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" ta'lim yo'nalishlarida xitoy tili bo'yicha saboq beriladi, magistratura bosqichida "Lingvistika (xitoy tili)", "Adabiyotshunoslik (Xitoy adabiyoti)" ixtisosligi bo'yicha ta'lim beriladi. Ushbu sohalarida quyidagi fanlar o'qitiladi:

#### ***Bakalavr bosqichida o'qitiladigan fanlar:***

1. Asosiy o'rganilayotgan (xitoy) til
2. Sharqshunoslikka kirish
3. Maxsus (xitoy tili ) filologiyaga kirish
4. Asosiy o'rganilayotgan til (xitoy tili) leksikologiyasi
5. Asosiy sharq (xitoy) tilini o'qitish metodikasi
6. Asosiy sharq tilidan maxsus kurs (xitoy tili diplomatik terminologiyasi)
7. Asosiy sharq tilining (xitoy) nazariy grammatikasi

#### ***Magistratura bosqichida o'qitiladigan fanlar:***

1. *Mutaxassislikning nazariy masalalari*
2. *Chet tilidagi matnni o'qish va uni talqin qilish masalalari*

3. O'rganilayotgan mamlakatda til vaziyati
4. Tanlov fan (xitoy tili qiyosiy grammatikasi)
5. Tanlov fan (xitoy tilshunosligi tarixi)
6. Tanlov fan (xitoy tili tarixiy fonologiyasi)
7. Xitoy tilida hisob so'zlarning o'qitilishi
8. Asosiy chet tilidagi maxsus adabiyot bo'yicha praktikum
9. Tanlov fan (xitoy tili stilistikasi)
10. Tanlov fan (xitoy tilida ish yuritish hujjatlari)
11. Tanlov fan (xitoy matbuot tili xususiyatlari)
12. Tanlov fan (xitoy tili siyosiy matnlari tarjimasi)

**Kafedra a'zolarining chop etgan darslik, o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqola va kitoblari:**

Shu davr ichida A.A. Karimovning "Xitoy tilidagi hisob so'zlar"; M.X.Mahmudxo'jaevning "Xitoy tilshunosligi tarixi";

M.X.Mahmudxo'jaev, J.T.Ziyamuhammedov va D.M.Qodirovalarning hamkorlikdagi "Sharq adabiyoti janrlari (Xitoy xalq masallari)"; Bekmuratov I.N. va N.R.Raxmetovalarning "Xitoy bayramlari";

T.Akimov va N.A.Zaitovalar tomonidan tuzilgan litsey talabalari uchun "Xitoy tili xrestomatiyasi" (2005);

J.T.Ziyamuhamedovning "O'rta asr xitoy novellalari" (2010 y.) monografiyasi;

L.A.Sultanova, J.T.Ziyamuhammedov va M.Turatovalarning "Xitoy tili" o'quv qo'llanmalari (2009);

A.A.Karimov, Sh.Xidoyatova va E.Aminovlar hamkorligidagi "Xitoy tili grammatikasi" darsliklari;

Sh.Shozamonov va I.Bekmuratovlarning "Xitoyda til vaziyati va siyosati" (2010);

I.N.Bekmuratov, L.A.Sultanova ishtirokida XXR Lanchjoy universiteti xitoyshunos olimlari tomonidan tuzilgan va 2009-yilda XXR-da nashr etilgan "Хрестоматия публикаций в современной китайской прессе" kabi o'quv qo'llanmalari;

Sh.Shazamanov va I.N.Bekmuratovlar tomonidan "Xitoy matbuot tili" o'quv qo'llanmasi (2011);

S.A.Nosirovaning "Xitoy tili ijtimoiy-siyosiy va diplomatik terminologiyasi" o'quv qo'llanmasi (2011) chop etildi.

Bundan tashqari:

T.Akimov va J.A.Kiraubaevlarning "Xitoycha-o'zbekcha-ruscha frazeologik lug'ati" (2002);

S.A.Nosirova va A.A.Karimovlarning "Xitoycha-o'zbekcha-ruscha diplomatik terminlar lug'ati" (2004);

S.A.Nosirova va S.A.Xashimovalarning "Xitoycha-o'zbekcha so'zlashgich"i (2010);

J.Yakubovning "Xitoy tili sport atamaları lug'ati" (2010);

N.A.Zaitovanning "Sung Yao hikoyalari to'plami" (2010)nashr etildi.

Kafedra o'qituvchilarining barchasi muntazam ravishda turli xil xalqaro va respublika ilmiy - amaliy anjumanlarda ishtirok etib kelmoq-

dalar. Hozirgi kunga qadar filologiya fanlari nomzodi, dotsent A.A.Karimovning 48ta filologiya fanlari nomzodi, dotsent J.T.Ziyamuhamedovning 30ta, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent I.N.Bekmuratovning 40ta, s.f.fsiyosiy fanlar nomzodi Sh.I.Shozamonovning 40ta, filologiya fanlari nomzodi, katta o'qituvchi S.A.Nosirovaning 25ta, filologiya fanlari nomzodi, katta o'qituvchi S.A.Xashimovning 20ta, kat o'qituvchi L.A.Sultanovning 10ta, o'qituvchi U.X.Mavlyanovning 7ta, o'qituvchi D.M.Qodirovaning 5 ta, o'qituvchi F.Xasanovning 4ta, N.A.Zaitovanning 3ta ilmiy maqolalari turli ilmiy to'plamlarda nashr etilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Yozuvchilar uyushmasi" bilna hamkorlikda yuqori malakali tarjimonlardan tashkil topgan "Tarjimonlar to'garagi" shakllantirildi, ushbu yo'nalishda reja asosida o'zbek adiblari-ning adabiyotlari tarjima qilinmoqda, ToshDSHning 20 yilligiga Cho'lponning "Xalq" she'ri turli tillarga, jumladan, xitoy, vetnam, malay va indonez tillariga o'girildi va nashrga topshirildi.

Xitoy filologiyasi kafedrasida XXRning Pekin Universiteti, Lanchou universiteti, Pekin pedagogik universiteti, Shanxay pedagogik universiteti, Pekin chet tillar instituti, Pekin kam sonli millatlar universiteti, Yunnan va Sinjon pedagogik universitetlari kabi oliygohlari bilan aloqalar o'rnatgan. O'zbekiston Respublikasi va XXRning Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari o'rtasida imzolangan talaba va o'qituvchilar bilan almashinuv sohasiga oid shartnomasiga binoan har yili xitoy filologiyasida tahsil olayotgan 7-10 talabalari va 1 yoki 2 nafar o'qituvchilari XXRning ilg'or oliygohlariga o'qishga yuboriladi. Xususan, 2000-2007-yillar ichida ularning soni 50 nafar, 2007-2009 yillarda 30 nafarni tashkil etdi. ToshDSH qoshidagi Konfusiy Instituti bilan hamkorlikda ham qisqa muddatli malaka oshirish kurslari tashkil etilgan, ushbu kurslar pedagog kadrlarning salohiyati va kasbiy mahoratini shakllantirib rivojlantirishga qaratilgan. Kafedraning 90% o'qituvchisi almashinuv shartnomasiga binoan XXRda o'qib qaytgan o'qituvchilardir.

## I BOB

### XITOIY TILI HAQIDAGI ASOSIY MA'LUMOTLAR

Xitoy tili xitoy-tibet oilasiga mansub bo'lib, unga xitoy tilidan tashqari tarixiy jihatdan yaqin (qarindosh) bo'lgan dungan, tibet, birman va boshqa tillar kiradi. Xitoy tilida XXR aholisining 98% va qadimdan Janubiy-Sharqiy Osiyoning: Vetnam, Laos, Kampuchiya, Birma, Tailand, Filippinlar, Indoneziya, Malayziya, Singapur va boshqa davlatlardagi 20 mln.dan ortiq xitoy aholisi so'zlashadi.

Xitoy tilining Uzoq Sharq va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari-dagi ahamiyatini Yevropa xalqlari madaniyatining tarixida lotin tilining o'ynagan roli bilan taqqoslash mumkin. Qadimgi xitoy tilini bilish nafaqat hozirgi zamon xitoy tilini o'rganish uchun zarurdir. O'rta asrlarda G'arbiy Yevropa xalqlari qaysi tilda so'zlashishidan qat'i nazar, yozma muloqot uchun lotin tilidan foydalanganlari singari Osiyoning ko'plab davlatlari – Yaponiya, Koreya, Vetnamda xitoy ieroglifik yozuv – *venyan* keng yoyilgan edi.

#### 1.1. Xitoy tili tarixini davrlashtirish masalalari

**Maqsad:** Xitoy tili tarixini davrlashtirish masalalari, har bir davrning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berish.

**Tayanch so'z va iboralar:** *tillarning xitoy-tibet oilasi, venyan, «klassik (mumtoz) til» - venyan asosi, grammatik farqlanish (tafovut)lar, leksik farqlanish (tafovut)lar, fonetik farqlanish (tafovut)lar – lahjalar tasniflanishining asosi. Guanxua lahjalarining shimoliy guruhi, janubiy lahjalar, bayxuaven, goyuy.*

Xitoy tili tarixini uchta katta davrga bo'lish qabul qilingan. III – V asrlarda tugagan birinchi davrni qadimgi xitoy tili tashkil qiladi. Keyin o'rta xitoy tili davri (I asr o'rtasi – II asr o'rtasi), so'ng – hozirgi zamon xitoy tili davri (taxminan XV – XVI asrlardan boshlab) keladi. O'z navbatida o'rta xitoy tili davrini bir nechta ketma-ket bosqichlarga bo'lish mumkin. Bularning har biri o'zidan oldin va o'zidan keyingi davrga xos bo'lgan ba'zi bir xususiyatlarga egadir (aynan shunga asosan o'rta xitoy tilining rivojlanishida davrlarni belgilash mumkin).

*Venyanning* qadimgi xitoy tilidan asosiy farqini *venyanda* yozilgan matnda qadimgi xitoy tili tarixining har xil davrlariga xos bo'lgan grammatik shakllar, ya'ni asinxron shakllardan ko'rish mumkin.

Qadimgi xitoy tili tarixida xronologik nuqtai nazaridan ham, mazmun jihatdan ham markaziy o'rinni eramizdan avval V – II asrlar egallaydi. Bu davr "klassik" (mumtoz) nomini olgan. Aynan shu davrda qadimgi xitoy falsafasi va badiiy fikr yodgorliklari yaratilgan edi. Keyinchalik aynan «klassik» til *venyan* asosini yaratdi.

«Klassik» tilidan avvalgi tilni ko'pincha «klassik» davrdan oldingi til deb nomlashadi. Bu davr eramizdan birinchi ming yilligini qamrab oladi. Bu davr bizgacha yetib kelgan qadimgi xitoy tilidagi asarlar - «Shanshu» («SHUSZIN») i «Shiszin» kitoblarida namoyon bo'ladi. Klassik tilidan oldingi tildagi yodgorliklari sifatida eramizdan avval X – VI asrlardagi bronza idishlari ustida yozilgan matnlar hisoblanadi.

Nisbatan yaqinda lingvistlar qo'lida yanada oldinroq bo'lgan davrga tegishli mantnlr paydo bo'ldi. Bular ham epigrafik yozuvlar bo'lib, faqat idishlar ustida emas, balki fol ochish uchun foydalanilgan hayvonlar suyaklari va toshbaqalar kosasidagi yozuvlar ekan. Shuning uchun bu matnlar "fol ochish yozuvlari" degan nomini oldi. Ularning davri eramizdan avvalgi ikkinchi ming yillik bilan belgilanadi. Odatda mazkur matnlarning tili «arxaik til» deyiladi.

Klassik qadimgi xitoy tilidan o'rta xitoy tiliga o'tish davri eramizning birinchi asrga tegishli yozma yodgorliklar – «postklassik» (ya'ni klassik keyingi) qadimgi xitoy tilida ifodalanadi.

Keng tarqalgan fikrga ko'ra, Tan sulolasi (618- 907 yy.) davrida xitoy xalqi (xanlar)ning tili yagona (ya'ni hamma uchun 1ta) bo'lgan edi. Bu davr xitoy adabiyotining «oltin asri», ya'ni adabiy til shaklan mukammallikka yetib, eshitish nuqtai nazaridan tushunarli bo'lgan davridir.

O'zining imperiyasi hududlarini boshqa xalqlar yashayotgan qo'shni hududlarni bosib olish natijasida ancha kengaygan Tan sulolasi X asr boshiga qadar mavjud bo'lib, oxir-oqibatda ichki nizolarining avj olishi oqibatida tanazzulga uchradi. Uning yemirilishi shimoliy Xitoy hududlariga mongol va tungus qo'chmanchi xalqlarining bostirib kirishi bilan bog'liq edi. Bosqinchilardan qutilish uchun ko'pgina aholi janubiy, xitoy boshqaruvi ostidagi hududlarga ko'chib o'tdi va bu yerda Yanszi daryosining janubida yashayotgan mahalliy aholi – *myao* xalqchiligi, tay va boshqalar bilan aralashib ketdi. Xitoy

aholisining bu ko'chib o'tishi va mahalliy tillarning ta'siri natijasida mamlakatning janubida Tan davri xitoy tilining talaffuz norma (me'yor)lariga tayangan ko'plab hududiy lahjalar paydo bo'ldi. 960-yildan 1279-yilgacha hukmronlik qilgan Sun sulolasi mamlakatni birlashtirishga erisholmay, o'z ta'sirini Xitoyning janubiy hududlarida saqlab qolishga majbur bo'ldi. Xitoy Chingisxon qo'shinlari tomonidan bosib olinishi natijasida Yuan sulolasi (1280-1368 yy.) taxtga kelgan davrda, keyin Min sulolasi (1368-1644 yy.), so'ng manchjurlik Sin sulolasi (1644-1911 yy.) hukmdorlik davrlarida feodal parchalanish lahjalarning xilma-xil bo'lishiga ta'sir qilar edi.

Xitoy Xalq Respublikasi talaygina lahjalarga va ularning o'rtasida, ayniqsa mamlakatning janubiy-sharqiy hududlarida katta farqlarga ega bo'lgan tilni meros sifatida qabul qilib oldi.

Talaffuz nafaqat turli xil provinsiyalarda, balki bitta provinsiyaning har xil tumanlarida farq qiladi. Aloqa qilish yo'llari noqulay bo'lgan joylar, hattoki ba'zi bir tuman (uezd)lar talaffuzda keskin farq qiladi.

Xalq demokratiyasi g'alabasiga qadar Xitoyda mavjud bo'lgan yarim feodal, yarim mustamlaka tuzumi lahjalarning sobitligiga ko'mak berib, umummilliy tilning adabiy me'yorlarini xalqda tarqalib borishiga to'siqlik qilar edi.

Umumiy fikrga ko'ra, xitoy tili hududiy lahjalarda farqlanish uncha katta emas, tafovutlar alohida bir xususiyatlarga tegishli bo'lib, grammatik tuzilishning asoslariga tegishli emas. Masalan, Pekincha «Menga kitobni ber» tarjimada *gey vo shu* bo'ladi, *Guanchjouning* aholisi esa shu mazmundagi gapni boshqacha tuzishadi: *bi (gey) shu vo*, ya'ni «kitobni menga ber». Misollardan ko'rinib turibdiki, shimoliy lahjada vositali to'ldiruvchi vositasiz to'ldiruvchidan oldin keladi, *Guanchjou* lahjasida esa u vositasiz to'ldiruvchidan keyin keladi.

Lahjalardagi tafovutlar ko'proq leksikada ko'rinib turadi, chunki leksikaning xususiyatlarida mamlakatning turli tumanlarida bir xil bo'lmagan turmush sharoitlari o'z aksini topgan.

Lahjalarning farqlanishi fonetik qatorda ko'proq sezilib turadi. Fonetik xususiyatlar nisbatan barqaror bo'lib, hisobga olinadi va odatda xitoy tilining lahjalari tasniflanishiga asos bo'ladi.

Mamlakatning siyosiy va madaniy hayotida eng katta ahamiyatga ega bo'lgan va hududiy jihatdan keng tarqalgan lahjalarning shimoliy guruhi, yoki *guanxua* hisoblanadi.



Bu guruh lahjalarida 390 mln. aholi so'zlashadi, ya'ni xitoy tilida barcha og'zaki so'zlashuvchilarning 70 foizini tashkil qiladi.

Lahjalarning shimoliy guruhi o'z tarkibi bo'yicha ancha bir xil. Mamlakat hududining deyarli yarmini egallagan bo'lib, bu guruh lahjalari talaffuz xususiyatlari bo'yicha 3 ta asosiy lahjalarga bo'linadi:

1) Xitoy Xalq Respublikasi poytaxti – Pekin shevasida namoyon bo'lgan asl shimoliy lahja;

2) Chunsin shevasida namoyon bo'lgan janubi-g'arbiy lahja;

3) Nankin shevasi bilan taqdim etilgan janubi-sharqiy lahja.

Asl shimoliy lahja ushbu hududa asosiy bo'lib hisoblanadi. Xitoy tiliga bag'ishlangan adabiyotning deyarli barchasi, darsliklar, xitoy tili lug'atlari rus va xorijiy transkripsiyalarning aksariyati Pekin talaffuzi me'yorlariga asoslanadi. Hozirda hamma tomondan qabul qilinganki, hozirgi zamon milliy xitoy tili – putungxua Pekin talaffuziga ega bo'lgan shimoliy lahja negizida rivojlangan.

Qolgan lahjalar, ko'pincha «janubiy lahjalar» nomi bilan birlashtirilgan (chunki ular Xitoyning janubida tarqalgandir) bo'lib, mamlakatning ijtimoiy hayotidagi roli bo'yicha ham, ularda so'zlashuv (og'zaki)chi aholining soni bo'yicha ham shimoliy lahjalardan ancha ortda qoladi. Bundan tashqari, janubiy lahjalar o'zining tarkibi va leksik-fonetik xususiyatlari bo'yicha bir-biridan uncha keskin farq qilmaydigan bir qator mustaqil guruhlarga bo'linadi.

1955-yil oxirida Pekinda bo'lib o'tgan hozirgi zamon xitoy tili masalalari bo'yicha Ilmiy konferensiyasi ma'ruzasida xitoy lingvistlari Din Shen shu va Li Jun shimoliy lahjadan tashqari yana 7 ta yirik janubiy lahjalarni belgilash imkoniyatiga ko'rsatib o'tishdi va mazkur lahjalarda so'zlashuv (og'zaki)chi aholining soni haqida statistik ma'lumotlar keltirishdi (mln.odam):

|   |      |
|---|------|
| Szyansu-Chjeszyan lahjasi (yoki Uyuy)     | – 46 |
| Xunan lahjasi (yoki Syan'yuy)             | – 26 |
| Szyansi lahjasi (yoki Guanyuy)            | – 13 |
| Xakka lahjasi (yoki Keszyaxua)            | – 20 |
| Shimoliy fuszyan lahjasi (yoki Minbeyxua) | – 7  |
| Janubiy fuszyan lahjasi (yoki Minnan'xua) | – 15 |
| Guandun lahjasi (yoki Yueyuy)             | – 27 |

Ko'pgina farqlanish (tafovut)larga qaramasdan, xitoy lahjalarini mustaqil tillar sifatida hisoblash mumkin emas, chunki ularga gramma-

tik tuzilishning yagona negizi, umumiy asosiy lug'aviy fond va ma'lum miqdorda umumiy lug'aviy tarkib xosdir. Fonetik farqlanishlar anchagina bo'lishiga qaramay, bu tafovutlar tovushlardagi o'zaro munosabatlarning yagona tizimi doirasiga kiradi. Ieroglifik yozuvi va yagona adabiy me'yorining mavjudligi tilning yozuv shaklidagi yagonalik (umumiyluk)ni ta'minlab beradi. Barcha xitoy lahjalarning negizida bo'lgan bu umumiy belgilar xitoy xalqining birlashishiga ko'maklashgan va ko'maklashib borayotgan qudratli omil deb hisoblanadi.

Xitoy tilining eng qiziqarli xususiyatlaridan biri oxirgi vaqtlargacha mavjud bo'lib kelgan va keng qo'llanilgan eski yozuv adabiy shakli - *venyan* («yozma til»)dan iborat. Bu til so'zlashuv (og'zaki) me'yorlaridan uzoqlashgan bo'lib, faqat o'qiyotgan odamga tushunarli va tinglayotganda qabul qilinmaydigan tildir.

*Venyanga* qarama-qarshi qilib, og'zaki nutqning me'yorlariga tayangan adabiy tilning boshqa shakli – *bayxua*, yoki *bayxuaven* («sodda til») qo'yilar edi. Hozirgi zamonda Xitoydagi milliy tilning adabiy shakli putunxua («umumtarqalgan til») deb nomlanadi.

*Bayxua* va *putunxuada* ba'zi bir istisnoliklarni e'tiborga olmasak, hozirgi zamon yevropalik tillardagidek xitoy tilining og'zaki va yozma nutq o'rtasidagi mutanosiblikni ko'rishimiz mumkin.

*Venyanga* kelsak, u yozma shaklning bir turi bo'lib, ba'zilarining fikriga ko'ra, xitoy tilining «stili» hisoblanadi, og'zaki tilda qo'llaniladigan bir xil ierogliflar bilan yozilgan bo'lsa ham, *venyanni* faqat «o'z ichida» o'qish jarayonida tushunish mumkin.

*Venyanning* mavjud bo'lishi nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy omillar tufayli bo'lgan. Eng keng tarqalgan fikrga ko'ra, *venyan* negizida eramizning avvalgi IX-XI asrlarning qadimgi og'zaki tili yotmoqda.

Bu davrda uzoq vaqt mobaynida til va shakl nuqtai nazaridan namunaviy bo'lib hisoblangan ajoyib falsafiy va badiiy adabiyot asarlari yaratilgan edi. Biroq zamon o'tishi bilan qadimgi asarlar tili keyingi avlodlar uchun tushunarsiz tilga aylana boshladi. Shunga qaramasdan ta'lim sohasida ham o'z imtiyozlari saqlanib qolishiga manfaatdor bo'lgan hukmdor sinflar ushbu tildan muloqot tili sifatida foydalanganlar. Qadimgi asarlar tilida grammatik me'yorlar o'zgar-mas (sobit) edi, biroq tirik so'zlashuv (og'zaki) tili muomalasidan chiqib ketgan eski leksika anchagina saqlanib qolgan edi.

Yozma tilning og'zaki tildan uzoqlashishga ieroglifik yozuv sababchi edi, chunki qadimgi namunalar bo'yicha aytilgan gapning mazmuni tirik og'zaki nutqning aniq yozib olinishiga qaraganda kamroq belgilar bilan yozilar edi.

Ikki ming yillikdan oshiq davr mobaynida, ya'ni bizning yuz yilligimizning yigirmanchi yillarigacha, *venyan* Xitoyning adabiy-yozma tili bo'lgan edi; bu tilda deyarli barcha ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va badiiy adabiyotning aksariyat qismi yozilar edi.

Barcha uchun tushunarli bo'lgan tilda yozish yomon odat (qiliq) hisoblanar edi. Maktab ta'limi ham *venyan* asosida olib borilar edi. *Venyanni* mukammal bilmay turib, davlat mansablarini egallashga umid qilish qiyin edi. Eramizdan avval ikkinchi asrda U Di imperatori tomondan joriy etilgan va 1905-yilgacha mavjud bo'lgan maxsus davlat imtihonlarni topshirgagina shaxslar mazkur lavozimlarni egallashi mumkin edi. Lekin *venyanni* mukammal bilib olish ko'p yillik serdiqqat o'rganish va muntazam ravishda mashq qilishni talab qilar edi, bu esa mehnatkashlarning keng ommasi uchun ta'limni egallab bo'lmaydigan qilib, hukmdor sinflarning imtiyozlarini yanada mustahkamlab qo'ygan edi.

*Venyanda* negizi bir bo'g'indan iborat bo'lgan leksikaning asosiy qismi ko'p bo'g'inli leksikaga o'tishi yetarli darajada aks ettirilmagan. Faqatgina XIX asrning oxiri va XX asrning boshida *venyan* i *bayxua*ning leksik tarkibi bir oz bir xil bo'la boshladi. Xitoy tilida paydo bo'lgan yangi ijtimoiy va ilmiy-texnik atamalarining katta hajmi ham *venyan* uchun, ham tirik so'zlashuv (og'zaki) tili uchun umumiy bo'lib qolyapti. Xitoydagi xalqning ta'limga bo'lgan intilishini aks ettirgan har qanday keng demokratik harakat u yoki bu shaklda *venyanni* bekor qilish talabini qo'yar edi. Faqatgina 1919-yildagi «4-may harakati» deb nomlangan kuchli ijtimoiy harakat natijasida og'zaki nutq me'yorlarini aks ettiradigan yozma til keng muomalaga kiritilgan edi. Biroq «4-may harakati»dan keyin ham *venyan* roli bir oz chegaralangan bo'lib, u muomaladan butunlay chiqmagan edi. Barcha rasmiy va diplomatik yozishmalar, pressa (ba'zi gazetalar faqat *venyandan* foydalanishgan) va ba'zilar bosh maqolalar va telegrammalarda rasmiy til sifatida qolar edi. *Venyan* ilmiy adabiyotda ham hukmronlik qilib kelar edi.

So'zlashuv tilga yaqin bo'lgan xitoy adabiy tildagi birinchi asar bo'lib, Lu Sinning (1913) «Aqldan ozganning xatchalari» bo'lgan edi. Biroq *venyan* o'z o'rmini darrov bo'shatib bergani yo'qituvchi Xitoyda

40-50-yillarga qadar ilmiy asarlar *venyanda* yoki talaygina «*venyanizmlar*» bilan boy gibrid tilida yozilgan edi.

*Venyan* qiyin til bo'lib hisoblanadi, asrlar davomida u o'lik til bo'lib kelgan. O'rta asr lotin tili qadimgi rumliklar tirik so'zlashuv (og'zaki) tiliga borib taqalgandek, huddi shunday *venyan* ham tirik qadimgi xitoy til asosida paydo bo'lgan. Hozirgi zamon tadqiqotlari dalolat berishicha, qadimgi Xitoydagi adabiyot tili og'zaki so'zlashuv (og'zaki) tildan hech qancha farq qilmas ekan.

Taxmin qilishadiki, «Lunyuy» devonida yozib olingan Konfusiyning fikrlari eshitganda tushunarli bo'lgan ekan. Yozma va so'zlashuv (og'zaki) til o'rtasidagi uzilishning birinchi belgilari II – III asrlarda paydo bo'la boshlagan. So'zlashuv (og'zaki) til rivojlanib borar edi, uning leksikasi va grammatikasi ketma-ketlikda o'zgarar, yozma til esa o'zgarmas bo'lib qolaverar edi, shu sababli *venyanni* tushunish uchun qadimgi xitoy tilini mukammal bilish talab qilgan.

Maxsus adabiyotda keng tarqalgan fikrga ko'ra, qadimgi xitoy tili yagona va o'zgarmas bir narsadek talqin qilinadi. *Venyanga* nisbatan aytilgan gaplar to'g'ri hisoblanar, tirik qadimgi xitoy tiliga nisbatan mutlaqo noto'g'ri bo'lib hisoblanadi. Bu til rivojlanishning uzoq yo'lini bosib o'tgan bo'lib, uning eng qadimgi yodgorliklari grammatik tuzilishi jihatidan eramizning avvalgi II – I asrlarning matnlaridan ancha farq qiladi. Shuning uchun qadimgi xitoy tili o'rganishda uning rivojlanishidagi asosiy davrlarni aniq farqlay olish kerak.

Xitoy xalqining keng ommalari harakatga kelib, xalq revolyusiyasi g'alabasi va Xitoy Xalq Respublikasi tuzilishi bilan *venyan* ildizlari butunlay uzilgan edi. Hukumat dekretida bosma nashrlarda va davlat idoralarida *venyandan* foydalanishni to'xtatish rasman e'lon qilingan edi. Yangi adabiy til – putunxua – zamonaviy Xitoyning adabiy tili, hozirgi zamon ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va badiiy adabiyot tilidir.

Xitoy hududidagi lahjalarning katta soni bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklar xitoy adabiy tilining grammatik, leksik va fonetik me'yorlarining o'rnatilishini qattiq talab qilgan. Mazkur narsa Xitoyning barcha aholisi uchun yagona bo'lgan *goyuy* umumdavlat tili uchun boshlangan harakatda o'z aksini topdi.

*Goyuy* uchun harakat Sin sulolasi ag'darilib tashlanganidan va Respublika zmatilganidan so'ng keng miqyosga ega bo'ldi. Biroq bu harakat xato yo'ldan yurgan edi: uning tarafdorlari xitoy tilining turli xil

lahjalaridan mexanik ravishda saralab olingan yagona ohangli elementlar asosida umumdavlat tilini yaratish tamoyiliga asoslangan edilar.

Ular hisoblashdiki, umumdavlat tili muammosi bilan bog'liq barcha masalalar mamlakatning har xil tumanlari vakillari – tilshunoslardan iborat bo'lgan maxsus komissiyaning ko'pchilik ovozi bilan hal bo'lishi mumkin edi.

Bunday komissiya 1913-yilda ishlay boshladi va uning faoliyati natijasida 1921-yilda talaffuzi yagona tartibga keltirilgan (unifikatsiyalashtirilgan) «*Goin szidyan*» lug'ati yaratilgan edi. Biroq mazkur komissiyaning ko'p yillik mashaqqatli ishi undan kutilayotgan natijalarni bermadi. Pekin lahjasidagi asosiy elementlarini boshqa lahjalardagi elementlar bilan mexanik tarzda birlashtirish borasidagi islohotlar tarafdorlari tomonidan yaratilgan til halqda o'z asosini topa olmadi. Xalq har doim so'zlashib yashagan lahjalarida so'zlashishni davom ettirar edi.

*Goyuy* uchun harakatning xatoligini rasmiy tan olib, 1930-yildagi hukumat qaroriga muvofiq o'sha davrda *chjuin fuxao* nomi bilan yuritila boshlangan *chjuin szimu* alifbosini Pekin lahjasining tovush tizimi bilan to'liq moslikka keltirish lozim edi. 1932-yilda Maorif vazirligi tomonidan nashr etilgan «*Goin chan'yun szixun*» eng ko'p qo'llaniladigan ierogliflar ro'yxatida ierogliflar o'qilishi goyuy asosida emas, balki Pekin lahjasi asosida berilgan edi.

1949-yilda Xitoy Xalq Respublikasi tashkil topganidan so'ng lingvistik fanining haqiqiy rivojlanishiga ta'rifsiz imkoniyatlar ochilgan edi. XXR hukumatining da'vati – til qurilishidagi amaliy vazifalari bilan nazariyani bog'lash, savodsizlikka barham berishda ko'maklashish va savodlik darajasini ko'tarish, ommalar uchun qulay bo'lgan xitoy yozuvidagi islohotlar masalalarini chuqur o'rganish, yozuvisiz tillar uchun alifbolarni yaratish va boshqa vazifalarga xitoy tilshunoslari tayyor ekanliklari bilan javob berdilar. «Chjungo yuyven» («Xitoy tili») va «Yuyven syuesi» («Tilni o'rganish») lingvistik jurnallarning sahifalarida grammatika, leksika, fonetika, yozuv va til tarixi masalalari bo'yicha keng lingvistik bahslar avj olib ketdi.

Ushbu munosabat bilan xitoy yozuvini isloh qilish bo'yicha 1955 yilning 15-oktyabrdan 23-oktyabrgacha bo'lib o'tgan Umumxitoy anjumani hamda shu yilning 25-31 oktabr kunlarida o'tgan xitoy adabiy tilini me'yorlarga keltirish masalalariga oid Umumxitoy anjumanlari katta ahamiyatga ega edi. Bahslar davomida ikkita qarama-qarshi nuqtai nazarlar yuzaga keldi: tilshunoslarning birlari milliy xitoy tilini

Pekin shevasi bilan tenglashtirganlar va Pekin shevasidagi til faktlarini umummilliy adabiy xitoy tilining me'yorlari sifatida hisoblanishida turib olgan edilar. Ularga qarshi bo'lib, boshqa lingvistlar Pekin lahjasi umummilliy tilning asosi bo'lishini inkor etardilar. Ushbu nuqtai nazarga Xuan Dyan-chenning Pekin lahjasi xitoy tilining boshqa lahjalaridan ustun kelishi mumkin emasligi haqidagi fikri mos keladi.

Oxiri oqibatda xitoy yozuvini isloh qilish bo'yicha anjumanda milliy xitoy tili va uning lahjaviy negizi tushunchalari quyidagicha ifodalan-gan edi: xitoy milliy adabiy tili Pekin talaffuzi qo'llanilgan shimoliy lahja negizida rivojlanadi. Ushbu ifodaga ko'ra, yagona milliy adabiy til negizi sifatida keng tarqalgan, yagona grammatik tuzilishi va yagona lug'aviy fondi bilan ta'riflanadigan shimoliy lahja bo'lib hisoblanadi.

Shimoliy Xitoyning katta hududlarida hamda Pekin shahrining o'zida ham Pekin talaffuzining keng tarqalganini e'tiborga olib, adabiyotda o'rnatilgan an'anaga muvofiq, «Pekin lahjasi» atamasini ishlatishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ushbu nuqtai nazarda asosan xitoyliklar yashaydigan va mamlakatning deyarli yarmini tashkil qilgan katta hududlarda keng tarqalgan shimoliy lahjalarning orasida Pekin lahjasi markaziy yadro bo'lib hisoblanayapti.

700 yillik tarixga ega Pekin lahjasi qadimdan madaniyat, adabiyot, mamlakatning bosh ma'muriy va tijorat markazlarida qo'llanilar edi. Pekin lahjasida barcha markaziy radioeshittirishlar, ko'pgina tumanlarda filmlar va spektakllar namoyish qilinadi.

Pekin talaffuzi umummilliy xitoy tilining adabiy me'yorlari sifatida rasmiy tan olinishi Pekin lahjasining yetakchi rolini ta'kidlab turadi. Biroq aytish o'tish joizki, umummilliy til va hududiy lahja-negiz o'rtasida to'liq moslik bo'lmasligi mumkin: lahja-negizning o'ziga xos xususiyatlari milliy til doirasida chetda qoladi. Xitoy milliy adabiy tili Pekin yoki boshqa bir lahjadagi narsalarni to'liq o'ziga ololmaydi. Shu bilan birga, milliy til rivojlanib borishi jarayonida doimiy ravishda boshqa lahjalar hisobiga boyib boradi, tadrijiy ravishda o'z vazifasini bajarish – insonlar o'rtasida to'laqon muloqot vositasi sifatida xizmat ko'rsatish – uchun barcha zarur narsalarni o'z ichiga oladi.

Milliy tilning mustahkamlanib borishi sari lahjalarning roli asasekin pasayib boradi, lekin ular uzoq vaqt mobaynida umummilliy adabiy til bilan barovar qo'llaniladi.

*Putunxua* umummilliy xitoy tili hamma taraflama tan olingan bo'lsa ham, Xitoyga kirgan mustamlakachilik tufayli xitoy milliy

rivojlanishi kechiktirilgani uchun hali keng tarqalmagan. Haligacha ko'p xitoyliklar *putunxuada* emas, mahalliy lahjalarda so'zlashadilar. Ko'p maktablarda turli umumta'lim fanlardan mashg'ulotlar milliy lahjalarda olib boriladi, faqat adabiy matnlarni o'qish darslarida o'qituvchi va o'quvchilar Pekin talaffuzi me'yorlariga rioya qilishga harakat qiladilar. Mahalliy radioeshittirishlar *putunxuada* va mahalliy lahjalarda olib boriladi, shuning uchun bir xil eshitirishlar qaytariladi. Teatrlarning gastrollari ancha qiyinlashadi.

Xitoydagi avj olgan sotsialistik qurilish davrida barcha xitoy xalqi uchun yagona adabiy tilga bo'lgan ehtiyoj juda sezilar edi. Biroq ma'lum vaqtgacha adabiy tilning me'yorlari aniq belgilanmagan va qonunlashtirilmagan edi. 1956-yilning fevralida Pekin talaffuziga tayangan *putunxua* milliy tilning qabul qilinishi va ommaviy tarqatilishi haqida hukumat qarori qabul qilindi. Biroq, aniqlash kerak ediki, Pekin shevasining qaysi talaffuz xususiyatlari umummilliy xitoy tilining adabiy me'yorlari bo'lib hisoblanishi kerak. Pekin shevasining o'zida so'zlar va morfemalar talaffuzida farqlanish (tafovut)lar mavjud edi. Masalan, «ta'minlamoq» so'zi bir *gunszi*, bir *gungey* deb o'qiladi, «yetilmoq, pishmoq» so'zi gohida *yunyan*, gohida *venjan* deb talaffuz qilinadi, «xavf-xatar» (*veysyan*) so'zida birinchi morfema ba'zida birinchi, ba'zida ikkinchi Pekin toni bilan talaffuz qilinadi va h.k.

Aniq belgilangan me'yorlarning yo'qligi mazmun va stilistik jihatlardan farqlanmaydigan sinonimlar ko'pligida yaqqol ko'rinib turadi. Masalan, «sement» xitoychasiga *yanxuy*, va *shuyi* deyilishi mumkin, biroq bu ikkita so'z mazmunda ham, qo'llanilishda ham qandaydir farqlarga ega emas. Bir birini qaytaradigan (dubl qiladigan) shu kabi sinonimlarning ko'pgina holatlari lug'atlarni qalashtirib yuboradi va o'rganishni ancha qiyinlashtirdi.

O'zboshimchalik (erkin tarzda) so'z yasash va abbreviatura (qisqartirish)larni suiste'mol qilish natijasida faqatgina tor doiradagi odamlarga tushunarli bo'lgan so'zlar paydo bo'ladi. Masalan, *szyan'li syuanchuan van gunszo* – «targ'ibot tarmog'ini yaratish bo'yicha ish» o'rniga *szyan van gunszo* xalqqa tushunarsiz bo'lgan qisqartirma ishlatiladi. *Meygo digochjui* «amerika imperializmi» iborasi *meydi* gacha qisqartirilib yuborilishi asossiz bo'lmoqda.

Qator masalalarda grammatika tartibga keltirilishi lozim edi. Masalan, ham predloglar sifatida qo'llaniladigan biriktiruvchi bog'lovchilar *xe, duy, gen, yuy, szi* o'rtasida aniq chegara o'tkazilmagan.

*Chufey*, «agar faqat hozir bo'lmasa» bog'lovchisining qo'llanilishi anchagina zid bo'ladi. Ilgari u faqat fe'ning tasdiq shakli bilan ishlatilgan bo'lsa, hozirda inkor shakli bilan ham kelishi mumkin, biroq, gapning mazmuni o'zgarmas bo'lib qolaveradi.

Ma'lum vaqtgacha tinish belgilarini qo'yish to'liq qoidalari yetarli darajada ishlanmagan edi.

Xitoy millati uchun tilni me'yorlashtirish va uni butun mamlakatda tarqalib borishi nafaqat kelajakda alifbolik yozuvga o'tishi uchun, balki xitoy xalqining siyosiy, iqtisodiy va madaniy birlashishi uchun katta ahamiyat kasb etadi.

### Nazorat uchun savollar:

1. Xitoy tili lahjalarini tasniflashda qanday xususiyatlar belgilanadi?
2. Lahjalarning shimoliy guruhi haqida aytib bering.
3. Lahjalarning janubiy guruhi haqida aytib bering.
4. *Venyan* eski yozuv tili, uning paydo bo'lish sabablari va uzoq yillik mavjud bo'lganligi haqida bayon qiling.
5. Tillarning xitoy-tibet oilasi haqida aytib bering.
6. Xitoy tilini davrlashtirish haqida bayon qiling.
7. Xitoy hududida ko'plab lahjalarning paydo bo'lishiga nima sabablar bo'lgan?
8. *Goyuy* davlat tili uchun bo'lgan harakat haqida aytib bering.
9. *Putunxua* hozirgi zamon umummilliy til haqida nimalarni aytib bera olasiz?
10. *Putunxua* umummilliy tilning kamchiliklari nimadan iborat?

### 1.2. Xitoyda grammatik fikrning rivojlanishi

**Maqsad:** Xitoy tili grammatikasiga oid ilk nazariy qarashlarning yuzaga kelishi, hozirgi zamon xitoy tilshunosligidagi bu boradagi asosiy ilmiy manbalar haqida tushuncha hosil qilish.

**Tayanch so'z va iboralar:** 小学 *xiǎoxué*, Ma *Szyanchjun*, *Lyu Fu*, *Yan Shudu*, *Chjan Shichjao*, *Szin Chjaotszi*, 古文 *gu wen* (qadimgi xitoy tili), 国语 *guó yǔ* (milliy til), *Gao Minkay*, *Lyu Shusyan*.

Xitoyda grammatik fikr o'z ildizlari bilan antik ekzegetika, klassik filologiya – yozma yodgorliklarni yig'ish, ularning matnlarini aniqlash

va talqin (interpretatsiya) qilish bilan bog'liq edi. Bu fan xitoy tilida 小学 xiǎoxué nomi bilan ma'lum.

Xitoyda grammatik fikrning rivojlanish tarixi ikki davrga bo'linadi. *Birinchi davrda* grammatikani o'rganish matnshunoslik tadqiqotlardan chetga chiqmas edi, grammatika hali mustaqil lingvistik fan sifatida bo'lmagan edi.

*Ikkinchi davr* xitoy tili tuzilishini yaxlit (butun) qilib tavsiflanishiga asos solgan birinchi sistematik grammatikaning vujudga kelishi bilan bog'liq. Bu ikki davrni ajratib turadigan xronologik chegara XIX asrning oxirigacha to'g'ri keladi. Aynan o'n to'qqizinchi asrning oxirgi yillari Ma Szyanchjunning «Ma grammatik devoni» deb nomlangan asari yaratilishi bilan ochib berildi. Xitoy tili grammatik tizimini o'rganishda va ilmiy tavsiflashda yangi va o'ta muhim davr boshlandi. 马建忠 马氏文通, 上海 1924年

XIX asrda G'arb madaniyati va fani haqidagi ma'lumotlarning Xitoyga keng tarzda kirib kelishi xitoy ziyolilarining ilg'or qismida ilmiy bilimlar turli sohalarida g'arbiy davlatlarning g'oyalarini egallab olishga intilishini uyg'otdi. Tabiiyki, xitoy filologiyasi bundan chetda qolmadi. Xitoy olimlari Blumfild, Vandries, Yespersen, Maspero kabi lingvistlarning yaxlit konsepsiyalari va alohida g'oyalari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Ushbu davr xitoy tilidagi hodisalarni nazariy jihatdan tushunish va ilmiy talqin qilish uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan. G'arb tilshunoslarining asarlari bilan tanishishning natijasini yevropalik grammatikalar namunalari bo'yicha xitoy tili universal grammatikalarini yozilishida ko'rish mumkin.

Xitoy tilining birinchi tizimli grammatikasining paydo bo'lishi XIX asrning oxirgi yillari bilan bog'liq. 1898-yilda Ma Szyanchjunning asari nashr etildi. Xitoy tilshunosligining rivojlanish tarixida mazkur asar alohida o'rin tutadi. Asar juda mashhur bo'lib, xitoy tili bo'yicha keyingi tadqiqotlarga katta ta'sir o'tkazgan.

Xitoy tili va hind-evropa tillari o'rtasida mavjud bo'lgan tubdan tipologik farqlar sababli Ma Szyanchjun faktlarga asoslangan til materiallarining qarshiligini boshdan kechirgan va, ko'pgina xitoy olimlarning ta'kidlashicha, Ma Szyanchjun xitoy tilidagi hodisalarni yevropalik sxemalarga moslashtirishga majbur edi. Biroq, yevropalik grammatik an'analar doirasiga xitoy tilining ba'zi faktlari sig'mas edi va Ma Szyanchjun ushbu qarama-qarshilikni hal qilishga intilgan holda xitoy filologiyasida mavjud bo'lgan grammatik kategoriyalarga murojaat qilgan.

Ma Szyanchjun asos solgan xitoy tilining grammatik tuzilishini tavsiflash va o'rganishga bag'ishlangan ishlar qatorida Lyu Fu va Yan Shudularning tuzilgan grammatikalarini aytib o'tish kerak. Asarlar Ma Szyanchjun devoniga bo'lgan tanqidiy fikrlardan va yangi to'ldirilishlardan iboratdir.

Yan Shudu qalamiga mansub bo'lgan asarlar orasida qadimgi xitoy tili grammatikasiga oid «Xitoy tili grammatikasining oliy ta'lim muassasi kursi» juda mashhur edi (杨树达, 高等国文法, 上海, 1920年).

Chjan Shichjaoning «O'rta maktab uchun xitoy tili bo'yicha me'yoriy qo'llanma» (章士钊, 忠等国文典, 上海, 1907年) va Chen Chenszening «Milliy til grammatikasining boshlang'ich kursi» (陈承泽, 国文法草创, 上海, 1922年) kitoblarida Ma Szyanchjun tomonidan qabul qilingan grammatik hodisalarni lingvistik tavsiflash tizimining asosiy xususiyatlarini aks ettiriladi va ba'zi aniqlashlar kiritiladi.

Szin Chjaotszining «Xitoy tili grammatikasi bo'yicha tadqiqotlar» (金兆梓 国文法之研究 北京, 1922年) grammatik hodisalarni yanada chuqurroq o'rganishga o'rinish bo'lgan. Masalan, Sin Chjaotszi o'tmishdoshlaridan farq qilib, so'z turkumlari va gap bo'laklarini aniq bir biriga qarama-qarshi qo'ygan va har xil so'z turkumlariga tegishli bo'lgan so'zlar bilan gapning bir xil bo'laklarini ifodalash imkoniyati haqida xulosaga keldi.

Tilni tavsiflashga 国语 va uning grammatik tuzilishiga bag'ishlangan ishlar orasida muhim joyni Li Szinsining «Milliy tilning yangi grammatikasi» (黎锦熙. 新著国语文法. 北京, 1924年) kitobi egallaydi.

Ushbu kitob tildagi boy materiallarga asoslangan bo'lib, hozirgi zamon xitoy tilining grammatik tizimini batafsil tavsiflanishini aks ettirgan me'yoriy grammatikadan iboratdir.

Mazkur asar xitoy tili grammatikasini o'rganilishiga katta hissa qo'shgan deb hisoblanadi. Uning muallifi yevropalik tillarning grammatikalarida qabul qilingan tavsiflash sxemalaridan ancha uzoqlashdi.

O'ttizinchi yillarda 古文 gu wen (qadimgi xitoy tili) va 国语 guó yǔ (milliy til)larda mavjud bo'lgan grammatik hodisalarni izchil qiyoslashga bag'ishlangan bir nechta asarlar yaratilgan edi. Bu asarlar ikkita adabiy tillarning grammatikalarida aralashib ketish hodisalarini aks ettirar edi.

Gao Minkayning «Xitoy tili grammatikasining nazariyasi» (高名凯《语法理论》北京, 1960年, 20页) asari gaplar va soʻz birikmalarining, grammatik kategoriyalarining izchil tavsiflanishi va talqin qilinishi, shuningdek, gaplarning funksional turlarini oʻz ichiga oladi. Shunga muvofiq asar uchta katta qismlarga boʻlinadi: gaplarning tuzilishi haqidagi taʼlimot, kategoriyalar haqida taʼlimot va gap (jumla)lar turlari haqida taʼlimot.

Xitoy Xalq Respublikasi tashkil topishidan keyin xitoy olimlari tomonidan xitoy tili grammatik tuzilishini har tomonlama oʻrganish va tavsiflash borasida koʻp ishlar amalga oshirilgan edi.

1952-1953-yillarda «Chjungo yuyven» jurnalida XXR Fanlar Akademiyasi Tilshunoslik Institutining grammatika boʻlimi xodimlari tomonidan yaratilgan «Grammatikadan maʼruzalar» deb nomlangan jamoaviy asar nashr etilgan edi. 1961-yilda mazkur ishning toʻgʻrilangan va toʻldirilgan varianti «Zamonaviy xitoy tili grammatikasi boʻyicha maʼruzalar» (现代汉语语法讲话, 北京, 1961年) nomi bilan chop etildi.

1957-yilda nashr etilgan XXR Fanlar Akademiyasi Tilshunoslik instituti Lu Chjivey boshchiligidagi olimlari guruhining jamoa asari (陆志伟等《汉语的构词法》北京, 1957年) soʻz yasash morfologiyasi sohasida oʻta muhim edi. 1953-1955-yillarda Li Szinsi va Lyu Shiju tomonidan yaratilgan 3 jildlik «Xitoy grammatikasi boʻyicha oʻquv materiallari» kitobi xitoy tili grammatikasining faktik asosini kengaytirdi. (黎锦熙, 刘世儒《中国言法教材》北京, 1953-57年)

Oxirgi 30 yilda xitoy tili grammatikasidan nashr etilgan kitoblar orasida Lyuy Shusyanning «Xitoy tili grammatikasi tahlili muammolari» (吕叔湘《汉语语法分析问题》北京, 1979年) asarini koʻrsatish lozim.

Mazkur ishda hozirgi zamon xitoy tili grammatik tuzilishining asosiy birliklari, grammatik xususiyatlarga asosan ajratilgan soʻz turkumlari hamda murakkab soʻzlarning tarkibiy turlari kabi muhim masalalarda olimning fikrlari oʻzining toʻliq aksini topgan.

Xulosada «Zamonaviy xitoy tilining sakkiz yuzta soʻzlari» (现代汉语八百词. 吕叔湘主编. 北京, 1981年) deb nomlangan xitoy lingvistlarining jamoaviy ishiga qisqa annotatsiyani taqdim etamiz. Bu asar – hajm jihatdan (668 ta bet) va mazmun jihatidan obroʻli (ishonchli) xitoy tili grammatikasi boʻyicha qoʻllanma-maʼlumotnomadir.

Hozirgi zamon xitoy tilining grammatik tizimi undagi taqdim etilgan faktlar va hodisalar kengligi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Xitoy sintaksisi grammatikaning eng muhim boʻlimi boʻlib, oʻzining vositalari va usullarining boyligi va kengligini aniq namoyon qiladi. Xitoy tilida soʻzlarni soʻz birikmalari va gaplarda ulanib kelishi usullarining tartibli tizimi mavjud.

Asrlar davomida xitoy tilining grammatik tuzilishi milliy adabiyotning eng sara namunalarida oʻzining yorqin aksini topgan holda takomillashib borar edi. Darhaqiqat, xitoy grammatikasini sodda va aniq deb atashadi (语法简明yǔfǎ jiǎnmíng). Unga tarkibiy (tuzilish jihatidan) soddalik va soʻz shakllari va sintaktik qurilmalaridagi maʼno jihatidan aniqlik (ravshanlik) xosdir.

Xitoy tili grammatikasi sohasida qoʻllanilayotgan ilmiy atamalarining masalasida toʻxtalib oʻtgan holda, quyidagi atamalarni koʻrsatib oʻtish joiz: 语法 (yǔfǎ), 语法学 (yǔfǎxué), 文法 (wénfǎ) (eskigan atama) – grammatika, 理论语法 (lǐlùn yǔfǎ) – nazariy grammatika, 语法结构 (yǔfǎ jiégòu) – grammatik tuzilish, 形态学 (xíngtǎixué) (词法 (cífǎ)) – morfologiya, 句法 (jùfǎ) – sintaksis, 词素 (cí-sù) 语素 (yǔ-sù) – morfema, 词 (cí) – soʻz, 词组 (cí-zǔ) – soʻz birikmasi, 句子 (jù-zì) – gap, ibora, 语法意义 (yǔfǎ yì-yì) – grammatik maʼno, 语法形式 (yǔfǎ xíng-shì) – grammatik shakl, 语法范畴 (yǔfǎ fānchóu) – grammatik kategoriya.

### Nazorat uchun savollar

1. Xitoyda grammatik fikrning rivojlanishi tarixi nechta davrga boʻlinadi?
2. Xitoy tili grammatikasiga oid asarlar (ishlar) haqida gapirib bering.
3. Ilmiy grammatik atamashunoslik toʻgʻrisida aytib bering.

### 1.3. Xitoy yozuvi

**Maqsad:** zamonaviy xitoy ierogliflari, ularning turlari va tarkibi haqida tushuncha hosil qilish.

**Tayanch soʻz va iboralar:** ven – eng sodda yozuv belgisi, syansin – tasviriy toifa (kategoriya), chjishi – ishora qiluvchi toifa (kategoriya), szi – murakkab ieroglif, xueyi – ideogramma.

Zamonaviy xitoy ierogliflar tarkibini quyidagilardan tashkil topgan:  
a) sodda ierogliflar; b) murakkab ierogliflar; v) kalitlar; g) fonetiklar.

### 1.3.1. Zamonaviy xitoy ierogliflarning tarkibi

Xitoy tilidagi barcha yozuv belgilari ikkita katta guruhga bo'linadi:

1. Xitoy ieroglifik yozuvning boshlang'ich (dastlabki) elementlari – eng sodda yozuv belgilari (xitoy terminologiyasi bo'yicha 文 wen deb nomlanadi) tarkibiy qismlarga bo'linmaydi. Prof. I.M. Oshanin-ning hisoblashicha, bunday elementlarning soni – 458 ta;

2. Murakkab ierogliflar (xitoy terminologiyasi bo'yicha 字 zi deb nomlanadi) birinchi guruhdagi belgilarning turli xil kombinatsiyalari asosida quriladi. Murakkab ierogliflarning soni 60 mingga yaqindir, biroq, hozirgi zamon tilida eng ko'p ishlatiladigan ierogliflarning soni 6-7 mingtani tashkil qiladi.

#### 1.3.1.1. Sodda ierogliflar

Xitoy yozuvining eng qadimgi ierogliflari bo'lmish boshlang'ich elementlar o'z navbatida ikkita kategoriyaga taqsimlanadi:

Tasviriy (xitoy terminologiyasi bo'yicha 象形 xiangxing deb nomlanadi) va ishora qiluvchi (ko'rsatuvchi) (xitoycha 指示 zhishi nomiga ega).

Tasvir toifasidagi ierogliflar piktogramma bo'lib, aloxida narsa-buyumlarning aniq tasviridir.

Piktogrammaning paydo bo'lishi tasvirli yozuvning bosqichma-bosqich rivojlanishi bilan bog'liq. Tasvirli yozuv hamda piktogramma o'rtasida ma'lum farqlar mavjud: tasvirlar va yozuv paydo bo'lgungacha bo'lgan davrda muomala vositasi sifatida foydalanilgan belgilarni ieroglif deya olmaymiz. Ierogliflar yozuv belgisi sifatida, yozuvda alohida morfemani ifodalaydi hamda ma'lum ma'no va ohangga ega bo'ladi.

Tasvir toifasidagi ierogliflar nisbatan kamroq uchraydi, chunki faqatgina aniq shakldagi narsa-buyumlarni aynan chizish mumkin. Piktogrammalar inson kundalik hayotida ko'p foydalanadigan buyumlarni ifodalagani uchun ham nisbatan keng foydalaniladi. Piktogrammalar o'simlik va hayvonot olamiga oid, insonga oid, koinotga oid, mehnat buyumlariga oid, kundalik hayotga oid predmetlarni ifodalaydi. Ba'zi misollarni keltiramiz:

Ieroglif yozuvining birinchi elementlari ko'rsatkich ishorali ierogliflar toifasi bo'lib, narsa-buyumning tasvirini ifodalamaydi, balki tasvirini ifodalash qiyin bo'lgan so'zlarni ifodalaydi. Bunga raqamlar, ta'qiq belgilari va boshqalarni kiritish mumkin. Uchgacha bo'lgan raqamlar gorizontaal belgilar bilan ifodalanadi:

一 yi – “bir”;

二 er – “ikki”;

三 san – “uch”;

八 ba ieroglifi (“sakkiz”) bir predmetning bo'laklarga bo'linishini ifodalaydi;

十 Shi ieroglifi (“o'n”) dunyo taraflari-sharq, g'arb, shimol, janubni anglatadi.

Hozirgi kundagi ierogliflardan 上 shang “yuqori” va 下 xia “quyi” kabilar ham shu toifaga mansub bo'lib, ierogliflarning o'ng tarafidagi gorizontaal chiziqlar mos ravishda yuqori va quyiga ishora qiladi.

Ko'rsatkich ishorali ierogliflar tasvirli ierogliflarga qaraganda anchagina kam. 25000ta ieroglifda ularning ulushi 0.5% xalos. Ko'p qo'llanadigan 4000 ta ieroglifda esa ular 3%ni tashkil etadi.

#### 1.3.1.2. Murakkab ierogliflar

Murakkab ierogliflarning paydo bo'lishi va shakllanishi mavxum so'z va tushunchalar miqdorining o'sib borishi bilan izoxlanadi. Yangi so'zlarni oddiy piktogramma va belgilar bilan yozuvda ifodalashning imkoni yo'q edi. Yangi so'zlarni hosil qilish piktogrammalar va belgilarni qo'shish orqali hosil qilindi va bunda yangi so'zning ma'nosi va yangi so'z tarkibidagi piktogramma ma'nosi o'rtasida bog'liqlik bor edi. Masalan, 木 mu – daraxtni anglatadi, ikkitasi birgalikda murakkab ieroglifni tashkil etib, 林 lin (o'rmon) morfemasini hosil qiladi, uchtasi bir ieroglifga birlashib, “changalzor” deb ataladi va soya ma'nosini beradi.

东 dong (sharq) ieroglifi 木 mu (daraxt) va 日 ri (quyosh) belgilaridan, (ya'ni, daraxtzor ortidan ko'tarilib kelayotgan quyosh) tashkil topgan. 男 nan ieroglifi esa 田 tian (dala) va 力 li (kuch) belgilaridan (ya'ni, daladagi kuch) tashkil topgan. Ieroglif yaratishning bunday usulining yaratilishi yozuvning yanada yoqori darajaga chiqqanligini anglatadi; yozuvda ideogrammalar (会惠 huiyi) paydo bo'ladi.

Ideogrammalar murakkab sintetik belgilar bo'lib, odatda ikkita belgidan iborat bo'ladi va bu belgilar ma'no jihatdan ideogramma ma'nosiga aloqador bo'ladi. Ideogrammaning ikkala qismi ham ma'no anglatadi, faqat ideogrammaning talaffuzi uning qismlarining talaffuziga bog'liq bo'lmaydi. Talaffuzdagi bu nomuvofiqlik xitoy ieroglifining ideogrammalariga xos xususiyat hisoblanadi. Ideogrammalar hosil qila olish mavxum so'zlarni ifodalashda juda qo'l keladi. Shuni aytish kerakki, doim ham ideogramma tarkibidagi belgining ma'nosi anglab olish oson bo'lmaydi. Ba'zida murakkab ierogliflarning tarkibiy qismlarini oydinlashtirish uchun chuqur taxlil qilish kerak bo'ladi.

Ideogrammalar orqali so'zlar yasash imkoniyati paydo bo'lgan bo'lsada, amalda yangi xosil qilingan so'zlarni yodda saqlash mushkul edi. Bu odatda ma'nosi o'xshash so'zlarning barida asosiy so'z ishtirokini talab qilar edi. Shu kabi ideogrammalar bilan bog'liq murakkabliklar ieroglif yozuvida fonetik usul keng tarqalishiga olib keldi. Bunda so'zlarning ohangidagi farqni yozuvda ifodalash uchun ko'rsatkichlardan foydalanildi. Misol uchun, 马 *ma* ieroglifi, "ot" ma'nosini beradi, deyarli shunga oxangdosh so'z 吗 *ma* ieroglifi esa (qo'shimcha *nü* (ayol) belgisi bilan) ona ma'nosini beradi, quyidagi so'zlarga e'tibor bering: 骂 *ma*-“so'kmoq” (口 *kou*-“og'iz” belgisi bilan); 蚂 *ma*-“chumoli” (虫 *chong*-“hasharot” belgisi bilan).

Shu bilan xitoy ieroglifi taraqqiyotida yangi bosqich boshlandi – yangi hosil bo'layotgan ierogliflar murakkab fonogrammaga ega edi. Bunda yangi hosil bo'layotgan ierogliflarning tarkibida fonetik ko'rsatkichidan tashqari yana qo'shimcha belgisi – uning yangi ma'nosiga ishora qiluvchi semantik determinativi yoki kaliti bor edi.

Ko'p hollarda murakkabroq ierogliflarda fonetika va kalitdan iborat fonogrammaning o'zi fonetika vazifasini bajarib berar edi.

Fonetik yozuv rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan qoidalardan biri bu “o'zlashtirma so'z”lardir (xitoycha 假借 *jiajie*). O'zlashtirma so'zlarning mohiyati shunda ediki, bunda yangi so'zni ifodalash uchun oxangdosh bo'lgan eski ierogliflardan xech qanday belgi-kalitlarni qo'shmasdan foydalanildi. Masalan, piktogramma xisoblanadigan, bug'doyning ma'lum bir turini anglatuvchi 来 *lai* ieroglifi “kelmoq” morfemasi uchun o'zlashtirma bo'lib xisoblanadi. Qaynatilgan go'sht uchun idish ma'nosini beruvchi 豆 *dou* ieroglifi esa dukkakli donlarni ifodalash uchun foydalanilgan.

Bu qoida bo'yicha yasaladigan so'zlarga chetdan o'zlashgan so'zlar ham kiradi. Biroq, bunda faqatgina talaffuz oxangi saqlanib, ierogliflar o'z ma'nosini yo'qotadi. Masalan, 蒙古 *menggu* “Mongoliya” (蒙 *meng* “qoramtir” va 古 *gu* “qadimgi” ierogliflaridan). Bu qoidada ieroglif sof holatda fonetik belgiga aylanadi.

Bugungi kunda fonogrammalar ierogliflarning eng keng tarqalgan turi bo'lib, ierogliflarning 80%idan ko'prog'ini tashkil etadi. Yangi ierogliflar ham aynan shu usulda yasalmog'ida.

Bugungi kunda ideografik usul ko'p qo'llanmog'ida va deyarli barcha hollarda fonetik usul bilan birgalikda qo'llanilmog'ida.

Biroq, bu degani xitoy ieroglif yozuvi xarfli yozuvga aylanayapti degani emas. Turli so'zlarda ayni belgilar turlicha ohangga ega bo'lishi mumkin. Umuman olganda, yozuv hamda uning talaffuzi o'rtasidagi bog'liqlik juda murakkabligicha qolmog'ida.

Shunday qilib, dastlabki ieroglif belgilaridan bo'lgan tasvirli belgilar va ko'rsatkichli belgilarning birikishidan murakkab ierogliflar hosil bo'ldi. Bular ideogrammalar va fonogrammala edi. Bu to'rtta ieroglif turlari birgalikda xitoy ieroglif yozuvini tashkil etadi va dastlabki belgilar mustaqil ravishda is'temolda qo'llanmasdan, balki faqatgina murakkab ierogliflar tarkibida uchraydi.

### 1.3.1.3. Kalitlar

Ma'lum guruhga oid so'zlarni ifodalash uchun xitoy ieroglifida murakkab ieroglif tarkibida shu guruhni ifodalovchi belgilardan foydalanildi va bular kalitlar yoki semantik determinativlar deb ataldi. Masalan, o'simliklarga oid barcha so'zlar tarkibida 木 *mu* “daraxt” belgisi bor.

Ma'lum buyumning yasashida xom-ashyoning o'zgarishi bilan shu so'zning kaliti ham o'zgaradi. Masalan, 抢 *qiang* ieroglifi qurol-aslaha so'zini so'zini ifodalaydi, faqat yog'ochdan yasalganini. Zamon taraqqiyoti bilan qurollar metallardan yasala boshlandi va 木 *mu* “daraxt” kaliti *jin* kaliti bilan almashtirildi. Natijada, bugun qurol ma'nosini ifodalovchi, bir xil oxangga ega ikkita so'z mavjud. Bu so'zlardagi ma'noviy farq esa kalitdan anglashiladi.

Kalit sifatida oddiy ierogliflardan foydalaniladi. Kalit va fonetiklar miqdorining aniq hisobi turli manbalarda turlicha va bu



tilga ilmiy yondashuvlarning o'zaro farqlari bilan bog'liq. Shuni takidlash kerakki, kalitlarni hisobga olib borish katta ahamiyatga ega, zero lug'atlarda so'zlarni aynan kalitlarga qarab joylashtirish qulay hisoblanadi. mil. avv. I asrda Syuy Shen tomonidan tuzilgan "shuowenjiezi" lug'atida ham ierogliflar 540 ta kalit bo'yicha tartiblangan. VI asrda Gu Ye Van tomonidan tuzilgan "语篇 yupian" lug'atida 542 ta kalitdan, XI asrda taniqli davlat arbobi va olim Sima Guan(1019-1086) tomonidan tuzilgan "类篇 leipian" lug'atida shu miqdordagi kalitlardan foydalanilgan. Vaqt o'tishi bilan til ustida katta mehnat qilindi va kalitlar soni kamayib bordi.

Xitoy ieroglif tizimida muhim ahamiyat kasb etgan lug'at 1633-yilda nashr etilgan "自会 zihu" lug'ati bo'lib, "zengzitong" nomi bilan 1705-yilda ham bosilgan. Unda kalitlar soni 214 tagacha qisqartirilgan bo'lib, aynan shu kalitlar tizimi ommaviy qabul qilinib, to bugungacha o'zgartirilmay foydalanib kelinmoqda. Ieroglif lug'atlari ham shu kalitlar asosida tuzilib nashr etilmoqda.

#### 1.3.1.4. Fonetiklar

Fonetiklar murakkab ierogliflar tarkibida kelib, ieroglifning talaffuzini belgilab beradi va ular taxminan mingtadan ko'proq. Fonetik bo'yicha lug'at tuzishga bo'lgan urinish dastlab 1823-yilda bo'ldi va bu lug'atda u yoki bu fonetik guruhga mansub bo'lgan ierogliflar o'z navbatida kalitlari bo'yicha ham tartiblangan edi.

Fonetik guruhlar bo'yicha tartiblangan lug'atlar ommalashmadi, biroq ilmiy doiralarda, tarixiy izlanishlarda va ayniqsa, tilning tovush tizimi bilan bog'liq izlanishlarda keng qo'llanildi. Shved olimi sinolog B. Karlgren keng miqyosda olib borgan ishlarini "Grammar-ta Serica"(1940) asarida bayon etadi. U 1260 ta fonetikni keltirgan.

Til taraqqiyoti bilan so'zlarning talaffuzi o'zgargan, xos tovushlar yo'qolgan, boshqalari yangidan paydo bo'lgan, so'zlarning ohangdorligi o'zgargan. Lekin ierogliflarning grafik strukturasi asrlar davomida o'zgarimasdan qolavergan. Oqibatda zamonaviy xitoy tilida bir xil fonetikka ega bo'lgan so'zlar ma'nosi butunlay farq qilmoqda. Masalan, hozirgi zamon xitoy tilida gong ofnetikli ieroglif quyidagicha o'qiladi:

功 gong «yutuq», «jasorat»

空 kong «bo'sh», «bo'shliq»

红 hong «qizil»

江 jiang «katta daryo»

项 xiang «band», «paragraf»

Zhao fonetikli ierogliflar quyidagicha o'qiladi:

兆 zhao «fetonlar bilan bayroq»

桃 tao «shaftoli»

跳 tiao «yuqoriga sakramoq»

挑 tiao «xodada yuk tashimoq»

眺 tiao «diqqat bilan qaramoq»

Tovushlarning, xususan, bo'g'in boshi undoshlarning o'ziga xos o'zgarishi xitoy tilidagi tovushlardagi tarixiy o'zgarishlarning qonuniyatlarini aks ettiradi.

Ba'zi bir fonetiklar ieroglifning bir xil bo'lgan o'qilishiga ko'rsatib turadi. Shunday qilib, bin ieroglifi sikl belgisi, «yong'in, olov», bin «yorqin», «aniq» yoki uning grafik variantlari uchinchi ohang (ton)ga tegishli, lekin bin ieroglifi «dastak», «qo'lda ushamoq», «kasallik», «ziyon yetkazmoq», bin «qattiq», «mustahkam» to'rtinchi ohang (ton)ga tegishlidir.

Ohangdagi farqlanishlarni inobatga olgan holda, shunday «turg'un» fonetiklarning soni nisbatan ko'p emas, shu bois ierogliflarni o'qishda fonetiklardan amaliy foydalanish qiyinchilik keltiradi.

#### Nazorat uchun savollar:

1. Xitoy tilining yozuv belgilari qanday guruhlariga taqsimlanadi?
2. Boshlang'ich (dastlabki) elementlarning tasviriy toifasi (kategoriyasi) haqida aytib bering.
3. Boshlang'ich (dastlabki) elementlarning ishora qiluvchi toifasi (kategoriyasi) haqida bayon qiling. Kaki ieroglifi nazivayutsya ideogrammami?
4. Fonografik yozuv (xat) nima degani?
5. Ieroglifik yozuv (xat)ini ierogliflarning qaysi turi tashkil qiladi?
6. Ierogriflar kalitlari haqida aytib bering.
7. Fonetiklar haqida bayon qiling.

#### 1.4. Xitoy yozuvini isloh qilish borasidagi harakatlar

**Maqsad:** Xitoy tili fonetik tizimini isloh qilish yo'nalishida amalga oshirilgan asosiy ishlar haqida ma'lumot berish.

**Tayanch so'z va iboralar:** 主音字母 zhuyinzimu fonetik alifbosi, umumdavlat 国语 guoyu tili, goyuy, alifbo yozuvi, Pekin shevasi, Van Chjao alifbosi, Lao Nay-syuan fonetik tizimi, 声母 shengmu – bo'g'in boshi undoshlar, 字母zimu- oraliqdagi tovushlar, 韵母yunmu – bo'g'in oxiri tovushlar.

Xitoy tili tovush tizimining rivojlanishini tadqiq etishda Maorif vazirligi tomonidan 1918-yilning noyabr oyida rasman tasdiqlangan 主音字母 zhuyinzimu fonetik alifbosi katta ahamiyatga ega. Unda asosan Pekin talaffuziga asoslangan hozirgi zamon adabiy milliy xitoy tilining tovush tizimi aks ettirilgan. 主音字母 zhuyinzimu fonetik alifbosi umumdavlat 国语 guoyu tilini yaratish yo'lidagi kuchli harakat natijasida paydo bo'ldi.

Xitoyning hukmdor sinflari tomonidan adabiy yozma va xalq og'zaki tillar o'rtasidagi uzilishni sun'iy ravishda tushunarsiz bo'lgan eski adabiy yozma tilni saqlab turishlariga qaramay, butun Xitoyda hammaga tushunarli bo'lgan adabiy tilga zarurat tobora o'sib borardi. Bu zarurat ayniqsa 1894-1895-yillardagi yapon-xitoy urushidan so'ng, Xitoydagi iqtisodiy va siyosiy qoloqlik yaqqol ko'rinib qolganda yanada sezilarli bo'ldi. Mazkur urushning Xitoy uchun bo'lgan ayanchli natijalari xitoy xalqi, ayniqsa xitoy ziyolilari orasida katta e'tirozni kelib chiqardi.

"Xitoy devori" bilan tashqi dunyodan ajralish siyosati va ayniqsa, butun qadimgi narsaga tobelikka ega bo'lgan konfusiy mafkurasi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning tormozi/ to'siq ekanligi aniq bo'ldi. ziyolilarning progressiv qatlamlari faolsizlikka qarshi kurashda, G'arbdagi ilm-fan yutuqlarini o'rganishga, boshqa xalqlarning tarixi, turmush tarzini o'rganishga da'vat etdilar. Inqilobga da'vat qilgan manifestlar chop etildi. Adabiyotda va matbuotda nafaqat *venyan*, balki og'zaki tilni ishlatish talabi qo'yildi.

Bu paytga kelib, xitoyliklar alifbo yozuvining turli zamonaviy tizimlari bilan tanishdilar. Xitoyga xitoy yozuvidan ancha sodda va qulay bo'lgan Yevropa yozuvi kirib keldi va ma'lum darajada tarqaldi.

Yapon milliy alifbosi bilan tanishish ham alifbo yozuvining afzalligiga ishonchni mustahkamladi. Bu barcha omillar ta'siri ostida xitoy yozuvini soddalashtirish uchun keng harakat boshlandi.

Shu davrda xitoy yozuvini fonetik alifbo kiritish yo'li bilan isloh qilishning ko'plab loyihalari paydo bo'ldi. Professor Lyu Fu turli alifbolarning 6 ta mualliflarini ko'rsatib o'tadi, ulardan Van Chjaoning (1859-1933) «官话字母 guanhuazimu» deb nomlangan hamda Lao Nay-syuanning «间字jianzi» deb nomlangan alifbosi eng katta ahamiyatga ega edi. Bu ikki alifbo yarim rasmiy ravishda qabul qilingan bo'lib, ma'lum darajada o'qitilishda ham ommalashdi.

Biroq xalq ommalari uchun tushunarli bo'lgan til uchun kurash qaysi sheva o'z og'zaki va yozma shaklida barcha xitoyliklar uchun tushunarli bo'lgan umumdavlat tili rolini bajara olishi haqidagi qarorni qabul qilish zaruriyatini olg'a surdi. Umumdavlat tilining asosiga Pekin shevasi olinishi lozim deb tan olindi. Bunday tanlov uchun asos Pekin Xitoyning poytaxti va Pekin talaffuzi Xitoy aholisining aksariyat qismi uchun tushunarli bo'lganligi, Shimoliy deb nomlangan sheva sohiblari uchun ham tushunarli boshqa hududlarda esa chenovniklarning hamda jamiyatning boshqa qatlamlari bu tildan foydalanishi edi.

Van Chjao (1900y.)ning «官话字母guanhuazimu» nomli alifbosining loyihasi Pekin shevasining tovush tizimini aks etar edi. 62ta umumiy belgidan 50 tasi (音母yinmu) boshlang'ichga va 12 tasi (后母houmu) yakuniyga mansub edi.

Belgilar muvofiq ierogliflarning soddalashgan shakli edi. Ba'zi bir morfemalar bir belgi bilan yozilsa, aksariyati 2 belgi bilan yozilgan, bunda boshlang'ich belgi chapda, yakuniysi o'ngda yozilgan.

4 ohang nuqtalar bilan belgilangan.

Boshlang'ich belgilarning katta soni yarim unlilar boshlang'ich bo'g'in undoshlarga tegishli ekanligi bilan shartlanadi.

Bundan so'ng paydo bo'lgan Lao Nay-syuanning (1907) tizimi nafaqat Pekin shevasini, balki xitoyning boshqa sheva talaffuzlarini ham qamrab olar edi. Pekin shevasi uchun Lao Nay-syuanning boshlang'ich va yakuniylar tizimi Van Chjao alifbosiga to'liq muvofiq edi. Nankin shevasi uchun 56 ta boshlang'ich, 15 ta yakuniy belgi va 5 ta ohang uchun belgi qo'llanildi. Shanxay shevasi uchun alifbo 63 boshlang'ich, 18 yakuniy, 8 ohangdan iborat edi. Fuszyan va Guandun

uchun alifbo 83 ta boshlang'ich, 20 ta yakuniy, 8 ta ohangdan iborat edi. Jarangli va jarangsiz undoshlar turli belgilar bilan yozilar edi.

Bu alifbolar yordamida ba'zi bir adabiyotlar yozilgan, ularning namunalarini professor Lyu Fu keltiradi.

1908-yilda Guan-syuy imperatoriga «*间字jianzi*» alifbosini kiritish bo'yicha tayyorlagan ma'ruzasida Lao Nay-syuan 2000 dan ziyod turli bo'g'inlarni ohangni hisobga olgan holda, ya'ni Pekinning butun og'zaki tilini aks etish imkoniyatiga ega bo'lgan o'zining alifbo Pekinda ham, boshqa joyda ham tarqalganligidan ma'lumot beradi. 1905 yilda Nankinda maxsus maktab ochildi, unda avvaliga mahalliy sheva, keyin Pekin shevasi o'qitilar edi. Lao Nay-syuan bu maktabni maorif vazirligi tasarrufidagi o'qu vmuassasalar soniga kiritish haqidagi qarorni e'lon qilishni iltimos qildi.

Imperator saroyida qarshilik mavjud bo'lganligi tufayli Lao Nay-syuanning taklifi muvaffaqiyatga erishmagan bo'lsada, uning alifbosi Van Chjao alifbosi kabi *主音字母 zhuyinzimu* fonetik alifbosining bevosita asos sifatida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Van Chjao va lao Nay-syuan uchun jonli shevalarni tizimli tarzda o'rganish, og'zaki tilga yo'nalish xos edi. Ular yangi alifbo transkripsiya qilishda yordamchi vosita emas, balki ieroglifik yozuv o'rniga mustaqil ahamiyatga ega bo'lishi lozim deb hisoblashar edi.

Maktab dasturiga goyuy va alifbo yozuvini o'rganishni kiritish uchun harakat davom etdi. 1910-yilda yozuv islohoti loyihalarini o'rganib chiqish uchun tashkil qilingan maxsus hukumat qo'mitasi o'z ma'ruzasida barcha loyihalardan imperator qarori bilan tasdiqlash uchun bittasini tanlashni taklif qildi. Yangi alifboni talaffuzning bir xillashtirish maqsadida ierogliflarning yonida yozish taklif qilindi.

1911-yilda Pekinda maorif vazirligi qoshida pedagoglar anjumani tashkil qilindi. Anjuman o'z rezolyusiyasida harakatlarning to'liq dasturini bayon etdi. U Pekin shevasini umumdavlat goyuy tilining asosi sifatida olishni taklif qildi. Fonetika va grafika bo'yicha tavsiyalar quyidagilardan iborat edi: barcha tovushlar batafsil tadqiq qilinib belgilanishi, belgilar qo'shilish qoidalari aniq, belgilarning o'zi esa aniq, qulay va oddiy bo'lishi lozim edi.

Bu yo'nalishdagi keyingi chora-tadbirlar Manjur sulolasini to'ntarilishiga olib kelgan 1911-yilda Xitoy inqilobi natijasi sifatida e'lon qilingan Respublika davri bilan bog'liq edi. 1912-yilning dekabrda

maorif vazirligi maktablarda umumdavlat *国语 guoyu* tilini o'rganilishini kiritish zaruriyati haqida qarorni chiqardi hamda bir xillash-tirilgan talaffuzni ishlab chiqish uchun maxsus anjumanni tashkil qildi. Anjuman oldida muhim vazifalar qo'yildi: tilda qo'llanadigan / ishlatiladigan barcha so'zlarning talaffuzini tadqiq etish va umumdavlat miqyosida standart sifatida qabul qilinishi mumkin bo'lgan talaffuzni aniqlash, barcha so'zlarni tovush tarkibi jihatidan tahlil qilib, tovushlarning umumiy sonini belgilash va har bir harf bitta tovushni anglatgan alifboni tuzish edi. Uzoq muddatli to'xtalishdan so'ng *主音字母 zhuyinzimu* alifbosi 1918-yil noyabr oyida maorif vazirligi tomonidan tasdiqlandi, keyin esa 1919-yil 16-aprelda vazir dekreti bilan *主音字母 zhuyinzimu* alifbosida barcha 39 ta belgining joylashuvning aniq tartibi tasdiqlandi.

**Jadval**

|  |  |
|--|--|
| 声母 shengmu (bo'g'in boshi tovushlarining harflari)     |  |
| 字母 zimu: (o'tish tovushlarining harflari)              |  |
| 韵母 yunmu: (yakuniy /oxiridagi/ tovushlarning harflari) |  |

O'sha davr tilshunoslarida umummilliy tilni shakllanish qonunlarini aniq tushunchasi bo'lmasada (bu xususan, *国语 guoyu* ning Pekin shevasini tovush tizimini boshqa shevalarga mansub bo'lgan tovush hodisalari bilan mexanik birlashtirishning natijasi bo'lgan me'yorlarini ishlab chiqilishiga olib keldi va bunday "ust sheva" tuzilmani hayotiy emasligini shartlab berdi), milliy fonetik alifboni yaratish alifbo yozuviga o'tishdagi kurashda muhim bosqichni belgilab berib, Xitoy tili tovush tuzilmasini ilmiy bahosini anglash va rivojlantirishda keyingi progressdan dalolat beradi.

*主音字母 zhuyinzimu* alifbo tizimi. Xitoy bo'g'inlarini 2 qismga an'anaviy tarzda tasniflashni meros qilib olgan, ya'ni bunda bo'g'inning boshlang'ich qismi va yakuniy qismi ajratiladi.

Jadvaldan ko'rinib turganidek, barcha 39 ta belgi 3 guruhga bo'linadi:

1. Bo'g'in boshi (boshlang'ich) undoshlarining belgisi, xitoy-chasiga *声母 shengmu*, hammasi bo'lib 24 ta belgi.

- Oraliq belgilar xitoychasiga 字母 zimu hammasi bo'lib 3 ta belgi.
- Yakuniy belgilar, ular o'z ichiga bo'g'in unilari va yakuniy bo'g'inli undosh va yarim unilar bilan birikkan unilar kompleksini oladi, xitoychasiga 韵母yunmu, hammasi bo'lib 12 ta belgi.

Ohang zaruriyat tug'ilganda qo'shimcha —, /, V, \ ko'rinishdagi belgilar bilan ifodalandi.

#### *Nazorat uchun savollar:*

- Xitoyda fonetik alifbolarini paydo bo'lishini qanday sabablar shartlab berdi?
- Van Chjao alifbosi haqida gapirib bering.
- Lao Nay-syuan fonetik tizimi haqida gapirib bering.
- 1911 yildagi pedagoglarning Pekin anjumanida qanday qarorlar qabul qilindi?
- «主音字母 zhuyinzimu» fonetik alifbo haqida gapirib bering.
- Bo'g'in boshi (boshlang'ich) undoshlarning belgilari qanday nomlanadi va ular nechta?
- Bo'g'in oxiridagi (yakuniy) belgilar qanday nomlanadi va ular nechta?

### **1.5. Ieroglif labirintlari: muammo va yechim**

**Maqsad:** Xitoycha ierogliflarning qo'llanilishidagi muammolar haqida tushuncha hosil qilish, bu muammolarning yechimi yo'lida amalga oshirilgan ishlarni tavsiflash.

**Tayanch so'z va iboralar:** "Ieroglifik klub", ierogliflar, to'liq (butun) belgilar uchun kurash, "ommalar tili", "to'rtburchakli yozuv", kompyuter to'sig'i (barer), "Sinxua szidyan" lug'ati.

Ikki asr va ikki ming yillik chegarasida eng qadimgi va zamonaviy yozuvlarning eng murakkabi kelajakka ishonch bilan qaramoqda. Ikkinchi ming yillikdan yangi eragacha xitoy ierogliflari bronza idishlari, tosh ustunlari, bambuk taxtachalari va ipak matolarda, qog'ozda va chinnida yetib kelgan. Sharqiy Osiyoda ierogliflar asrlar davomida xitoy madaniyatining asosiy ramzi va nufuzi sifatida qabul qilingan edi. Uzoq Sharqning "ieroglifik" mamlakatlarida eng muhim san'at

sifatida husnixat san'ati (kalligrafiya) hisoblanib, an'anaviy nafis san'ati va she'riyatda ham, zamonaviy dizayn va reklamada ham o'zining munosib o'rniga ega.

#### **1.5.1. "Ieroglifik klub"**

O'tmishning mashhur xattotlari orasida imperatorlar bo'lgan. Xitoy revolyusionerlari boshchisi va XXR yaratuvchisi Mao Szedun aytganki, yozuv "ma'lum bir sharoitlarda isloh qilinishi lozimdir". Imperatorlar kabi u klassik she'rlar yaratgan va avlodlariga ko'plab husnixatli yozuvlarni qoldirgan edi. Mao Szedun husnixatlarining namunalari hozirgi kungacha "Jenmin jibao" va Xitoyning boshqa markaziy ro'znomalarining sarlavhalarida o'z aksini topadi. Islohotchi Den Syaopin mo'y-qalamiga "Szinszi sankao bao" yangi iqtisodiy nashrning sarlavhasi mansubdir. 90-yillar oxiridagi muhim voqea – Xitoyga Gonkongni qaytarilishi munosabati bilan XXRning hozirgi raisi Szyan Szeminning tabrigi ham husnixat bilan yozilgan. Ikkinchi jahon urushidan keyin zamonaviy dizayn unsuri bo'lmish husnixat va xitoycha ierogliflar modasi G'arbga Yaponiya orqali kirib keldi. Hozirda esa bu moda Rossiyaga ham kirib keldi: ierogliflar – ba'zan oyog'i osmonda bo'lsa ham – mahalliy rasmiy jumallar muqovalarida paydo bo'lmoqda.

Xitoy ierogliflari bu nafaqat qadimiy madaniyat ramzidir. Asrlar davomida ular zamonda va makonda millatning birdamligini ta'minlab keldi. Hattoki XX asrning boshlarida ham ieroglifik yozu barcha o'qimishli odamlarga Konfusiyning qadimgi fikrlarini o'qish va o'rta asr namunalari bo'yicha she'rlarni yaratish imkoniyatini berar edi. Ushbu yozuv doimo ko'plab xitoy lahjalarini bir-biri bilan bog'lab turardi. Lahjalardagi farq shunchalik katta ediki, turli xil tumna aholisi og'zaki nutqda "tarjimonlar" yoki qo'llarida ierogliflar "yozib", o'zini lahjasida shu ieroglifni talaffuz qilib, o'zaro muloqot qilgan. Shu kabi lahjadagi talaffuz qilishga misol qilib Gonkong shahrining nomini keltirish mumkin. Ikki ieroglif bilan yozilgan "Xushbo'y bandargoh" nomi janubiy o'qilishda bizga ma'lum. Bunday talaffuz Gonkongni o'zida va qo'shni bo'lgan xitoy provinsiyasi Guandunda tarqalgan. Pekincha talaffuzda esa Gonkong Syangan deb o'qiladi. Ieroglifik dunyo Syangan va Tayvandan tashqari millionlab xitoyliklar yashab kelayotgan Singapur va Janubiy-Sharqiy Osiyoning boshqa mamlakatlarini qamrab oladi.

Uzoq bahslar va ikkilanishlardan keyin Osiyoning "ieroglifik klubi"dan Yaponiya va uni ketidan Janubiy Koreya chiqib ketishni istamadi. Ming yil oldin xitoy ierogliflari Koreya orqali Yaponiyaga kirib kelgan va keyinchalik yaratilgan ikki turdagi alifbo bilan bir qatorda hozirgi vaqtgacha zamonaviy yapon yozuvning asosi bo'lib xizmat kilmoqda. Hozirda Janubiy Koreyada Yaponiyaga qaraganda ierogliflar qamroq ishlatiladi, lekin ular bekor qilinmagan va milliy koreyscha alifbo bilan birga ishlatiladi. "Ieroglifik klub" dan Shimoliy Koreya chiqib ketgan, barcha bosma matnlardan ierogliflar olib tashlangan, biroq juda kam hajmda maktab dasturidan saqlanib kelmoqda. Yuz yil oldin Vetnamda ham xitoycha ham xitoy namunalari bo'yicha yaratilgan mahalliy ierogliflar qo'llanilgan edi. Keyinchalik yevropa missionerlari tomonidan kiritilgan lotin yozuvchi ierogliflarni siqib chiqargan, hozirda ular vetnamliklar uchun ko'p asrlik adabiy merosga kirib borish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Xitoyning o'zida ierogliflar ikki marta hujumga uchragan - chet ellik bosqinchilar oldida va jamiyat modernizatsiyasiga to'siq deb hisoblagan xitoy islohotchilari oldida.

XIII asrning oxirida Xitoyni bosib olib, mo'g'ullar buyuk davlatning tushunarsiz va yovuz bo'lgan madaniyatini yo'q qilishga harakat qildilar. Ierogliflar va mo'g'ul sulolasi Yuan ta'siri ostida bo'lgan hududlardagi boshqa yozuvlar o'rniga mo'g'ullar Tibetdagi buddaviy olim-lama tomonidan yaratilgan maxsus, to'rtburchakli alifboli yozuvni tatbiq etishga urindilar. An'naviy madaniyatga tayanmagan to'rtburchakli yozuv mo'g'ullar boshqaruvi nihoyasiga hali yetmasdan yo'q bo'ldi.

Bizning asrimizda liberal yo'nalishidagi filolog-islohotchilar murakab ierogliflarni soddalashtirishga da'vat qildilar. Revolyusion demokratlar esa an'anaviy yozuvni butunlay yo'q qilib tashlashni orzu qilgan edilar. Ierogliflar o'rniga sobiq Sovet Ittifoqida xitoy emigrantlari uchun yaratilgan "yangi lotinlashtirigan yozuv"ni kiritishni istaganlar. Ierogliflar yo'q qilinishi bilan yagona yozuv tili va Xitoyning mingyillik madaniy merosi o'tmishda qolib ketishi ularni uncha havotirga solmas edi. Turli lahjalarda gaplashayotgan "omma" barcha narsani lotin harflari bilan yozib imkoniga ega bo'ladi deb taxmin qilishgan.

### 1.5.2. To'liq (butun) belgilar uchun kurash

1949-yilda XXR tashkil topishi bilan lotinlashgan "ommalar tili" "to'rtburchakli yozuv" kabi tez unutildi. Ieroglifik yozuvning islohoti soddalashtirilgan ierogliflar va uning grafik qismlarini kiritish bilan chegaralandi. Ikki mingdan ortiq ierogliflarga taalluqli bo'lgan soddalashtirishlar ilgari ham tez yozuvda va ommlar tilidagi badiiy adabiyotda qo'llanilar edi.

Xitoyda tatbiq etilgan soddalashtirilgan ierogliflar BMT tomonidan tashkilotning rasmiy va ishchi tillaridan biri bo'lmish zamonaviy xitoy tili uchun standartlar sifatida tan olingan. Bunday soddalashtirishlar Singapur va Janubiy-Sharqiy Osiyoning boshqa davlatlarida yashayotgan "dengiz orti xitoyliklar" tomonidan ham ishlatilib kelmoqda.

Shu bilan birga Xitoyda o'rta me'yordagi lingvistik yangi kiritishlar kommunistlar g'alabasidan keyin zodagonlarning ko'pchiligi, shu qatorda filologlar ham ko'chib kelgan Tayvanda qabul qilinmay kelgan.

Natijada ierogliflarning kutilgan yagonalashtirish (unifikatsiya) jarayoni xitoy tilida so'zlovchi Osiyo miqyosida bo'lib o'tmadi. Tayvan va Gonkong "to'liq" belgilarni qo'llab kelishgan va qo'llashni davom ettirmoqda, bu orada XXRda "to'liq" belgilar faqat husnixatda va xorijiy xitoyliklar uchun bo'lgan nashrlarda ishlatilmoqda.

50-60-yillarda, ayniqsa "madaniy inqilob" davrida, "uchta Xitoy" o'rtasidagi muloqot juda ham pasayib ketgan edi, ierogliflardagi farqlanish uncha sezilmagan. Den Syaopin tomonidan "ochiqlik siyosati" amalga oshirilishi hamda Xitoyga Tayvan va Gonkongdan sarmoyalarning oqimi kirib kelishi bilan 2 ta ieroglifik tizim o'zaro ta'sirga kirishib, ular o'rtasida raqobat boshlanib ketdi.

Xitoyga, o'zining tarixiy vataniga minglab ishbilarmonlar va sayohatchilar kela boshladi, ular o'zlarining gazeta va jurnallarini, texnik va rasmiy adabiyotni olib kirdilar. Ierogliflarning bekor qilingan variantlari nafaqat qadimiy madaniyat, balki moliyaviy hujjatlarga kirib borganligi sababli, zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot bilan bog'lana boshladi. Modaga aylangan to'liq belgilar "modaga kirdi" va ko'pincha reklama va osma peshtaxtalarda paydo bo'lmoqda, ayniqsa xitoy poytaxtidan tashqarida (chetda). Masalan, Shanxayning ko'chalarida yozma husnixatli yozuvlar bilan birga bosma variantlari ham har qadamda uchrab turadi.

Bir milliard aholiga ega bo'lgan qit'a Tayvanda ham yozuvning bu variantini inkor qilib bo'lmadi. Soddashtirilgan ierogliflar qo'ldan yozilgan norasmiy matnlarda ishlatiladi hamda xitoy tilini o'rganuvchi chet ellik talabalarga o'qitiladi.

Buning natijasida xitoy yozuvi bilan bog'liq bo'lgan murakkab vaziyat yanada qiyinlashib bormoqda. Zamonaviy xitoy tilidagi matnlarni o'qish uchun (shu qatorda kompyuter ekranida ham) ikki variantdagi, ya'ni to'liq va soddashtirilgan belgili ierogliflarni bilish kerak.

### 1.5.3. Kompyuter to'sig'i (barer)

Ieroglifik yozuvning eng asosiy qiyinchiligi minglab sanalayotgan belgilarning mavjudligidir. Eramizning boshida paydo bo'lgan "Sho ven" birinchi to'liq xitoycha lug'atda 9 mingdan ortiq ierogliflar bo'lgan edi. Xitoy tili tarixida eng ko'p ieroglifik belgilar soni, 53 mingdan ortig'i 1037-yilda yaratilgan "Szi yuan" lug'atida to'plangan edi. Zamonaviy "Sinxua szidyan" lug'ati 11 mingga yaqin ierogliflarni qamrab oladi. XXRda zamonaviy matbuot nashrlari uchun ishlab chiqarilgan ruyxatda 7 mingta ieroglif belgilangan, oliy ma'lumotli odamlar o'rta hisobda 3500 tadan 4500 tagacha ierogliflarga egadir.

Ierogliflarning sonini eslab qolish ham, ularning yozilishi, ma'nosi va o'qilishini ham tekshirish mushkuldir. Lug'atlarda ierogliflar joylashishi va qidirib topishning an'anaviy grafik tizimlari juda murakkab, ularni faqat o'qimishli odam o'zlashtirishi mumkin. Zamonaviy fonetik tizimlarda ierogliflar Pekin talaffuzi (o'qilishi)da lotin harflar bilan yozib olingan alifbo tartibida joylashgan. Bu tizimdan o'z lahjasiga ega bo'lgan tumanlar aholisi foydalana olmaydi. Pekin talaffuzi (o'qilish)ni hattoki poytaxtda ko'p yil yashagan va oliy filologik ma'lumotga ega bo'lganlardan ham bilmaydi.

Kompyuter asri boshlanishi bilan ieroglifik lug'atlarni yaratuvchi mualliflar va ulardan foydalanuvchilar oldida o'sha-o'sha an'anaviy muammolar paydo bo'ldi. Xitoy tili uchun ierogliflarni kodlashtirishning bir necha usullari mavjud. Ikkita asosiy tizim bir biridan bog'liq bo'lmagan holda XXR va Tayvanda yaratilgan edi. Ular bir biriga mos kelmaydi, lekin ekrandagi matnlarni ko'rish va bir tizimdan ikkinchisiga o'tish uchun maxsus dasturlardan foydalanish mumkin. Har bir tizimda ham to'liq, ham qisqartirilgan belgilarni, hattoki ierogliflarni qadimiy yozilishini ham ishlatish imkoniyati bor. Kompyu-

terda matnni terish jarayonida ieroglif har xil – grafik va fonetik usullarda chiqariladi. Xitoy foydalanuvchilarining fikricha, o'zlashtirish uchun murakkab bo'lgan grafik usullar xitoy tili uchun fonetik usullarga qaraganda ancha qulay. XXRdagi ierogliflarni kodlashtirish standart tizimi 6673 belgiga mo'ljallanadi. Bir qiziq fakt, bu belgilarining orasida hozirdagi xitoy premeri (bosh vaziri) Chju Junszining ismidagi ishlatiladigan jun ieroglifning yozilish varianti topilmabdi. Buning natijasida Sinxua agentligining axborot berishicha, bosh vazir (premer)ning ismidan keyin qavs ichida belgicha paydo bo'ldi – "jun ieroglifiga "metall" grafik elementini qo'shing".

Kompyuter asriga ierogliflarning moslashtirishidagi yutuqlar jahon Internet tarmog'ini axborot agentliklari va ko'plab gazetalarning xitoy tilidagi materiallari bilan to'ldirish imkoniyatini yaratdi. Xitoyning eng yirik ommaviy axborot vositalari (OAV), shular qatorida "Chjungo sinnyan bao" ommabop yoshlar gazetasi, o'zining faolitetini elektron versiyasiga keluvchi kundalik murojaatlarni tahlil qilish bilan bog'laydi. 1997-yilning yoz oyida XXRda Internet tarmog'iga atigi 40 mingta foydalanuvchi ulangan edi. 1998-yilning ikkinchi yarmida turli ma'lumotlarga ko'ra, bu son milliondan besh milliongacha yetar edi. Tayvanda Internet tarmog'idan aholining har o'ninchi kishisi foydalanadi, ya'ni hozirda foydalanuvchilar soni bu yerda ikki milliondan ortiqdir.

Xitoy tilidagi ma'lumotlarning hajmi tobora ko'payib borishi hamda Tayvan va XXRda ieroglifik qidiruv tizimlarining yaratilishi bilan Internet tarmog'ining ommabopligi usib boryapti. XXRdan tashqarida Internet tarmog'ida xitoy tili bilan ishlovchi ko'pgina firmalar uning ulkan bozoriga chiqish istagida edilar. Bu yilda bunday kompaniyalarning birisi – "Xitoy tarmog'i" Sinanet Pekindagi SRS provayderi bilan bu boradagi harakatlarini birlashtirdi. Yaqin kelajakda Tayvan va AQShda yashovchi xitoyliklarga mo'ljallangan Sinanet va XXR va Gonkongga mo'ljallangan SRS kompaniyalari ieroglifik asosida bo'lgan yangi yagona tarmoqni yaratadi. Ushbu tarmoqning yangi nomi ham mavjud – Sina.

Ieroglifik yozuvning "kompyuter to'sig'i"dan muvaffaqiyatli o'tishi yozuvning oldida keng istiqbollarni ochadi. Xitoy ierogliflaridan dunyoning deyarli har to'rtinchi odami foydalanadi. "Ieroglifik" mintaqaning demografik, iqtisodiy va texnologik yutuqlari bu ming-yillikda jahondagi ancha oldinga ketuvchi geostrategik va lingvistik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Ehtimoldan xoli emas, kiberma-

konda ierogliflarning unifikatsiyasi (yagona standartlarga keltirish)ga erishilib, natijada xitoy yozuviga asoslangan Sharqiy Osiyo sivilizatsiyasiga mansub bo'lgan davlatlarning yangidan yaqinlashish jarayoni ro'y beradi.

**Nazorat uchun savol va topshiriqlar:**

1. "Szq yuan" lug'ati qancha ieroglifni o'z ichiga qamrab olgan?
2. Xitoy tili uchun ierogliflarni kodlashtirish xosmi?
3. 1997 yilda XXRda internet tarmog'iga qancha odam ulangan edi?
4. XXRdagi qanday internet provayderlarining nomini bilasiz?
5. "Kompyuter to'sig'i" iborasi ostida nimani tushunasiz?
6. Kompyuterda matnni terish jarayoni qanday kechadi?
7. Kompyuterda terishda lahja (dialekt) masalalari ko'tarilganmi?
8. Internet tarmog'i hamda OAV (Ommaviy axborot vositalari) o'rtasidagi aloqalari haqida nimalarni bilasiz?

**II BOB**

**XITOIY TILI FONETIK VA FONOLOGIK SATHI**

**2.1. Xitoy tilidagi unililar va ularning tavsifi**

**Maqsad:** xitoy tilidagi unililarning tasnifi va tasnifi haqida ma'lumot berish.

**Tayanch so'z va iboralar:** *diftongli talaffuz, lablanmagan unli, lablangan unli, nazalizatsiya, tilorqa va tiloldi artikulyatsiyasi, xitoycha unililarning kuchli cheklanishi.*

Hozirgi zamon xitoy tilida barcha bo'g'inlar jadvali unililar uchraydigan boshqa tovushlarga nisbatan pozitsiyalarni aniqlash mumkin. Bo'g'inli unlidagi birlik bo'yicha barcha bo'g'inlarni guruhlarga ajratishda ushbu jadval ancha ko'mak beradi.

Unlilardagi muhim o'zgarishlar asosan o'tuvchi va bo'g'in oxiri tovushlar ta'sirida bo'lganligi sababli, biz bo'g'in boshi undosh bo'lmagan bo'g'inlarni o'rganish bilan kifoyalanamiz.

Bunday yondashuv xitoy tilidagi bo'g'inlar tarkibida unililarning roli va joyini quyidagicha sxemada aniqlashga imkon beradi:

| <b>Bitta unlidan iborat bo'g'inlar va bo'g'inlar oxiri</b>   | <b>A</b> | <b>e (o)</b> |             | <b>i</b> | <b>u</b> | <b>u</b> |
|--|----------|--------------|-------------|----------|----------|----------|
| Ikkita tovushdan iborat bo'g'inlar va bo'g'inlar oxiri:  | ai_      | ei_          | ou          |          | ui       |          |
| bo'g'inli unli plyus bo'g'in oxiri undosh yoki yarim unli  | An       | en           |             | in       | un       | u'<br>n  |
|  | an'      | en'          |             | in'      | un'      |          |
|  |          | er           |             |          |          |          |
| Ikkita tovushdan iborat bo'g'inlar va bo'g'inlar oxiri: o'tuvchi yarim unli plyus bo'g'inli unli   | Ia       | ie           |             |          |          |          |
|  | Ua       |              | uo          |          |          |          |
| O'sha tovushlardan iborat bo'g'inlar va bo'g'inlar oxiri: o'tuvchi yarim unli plyus bo'g'inli unli, plyus bo'g'in oxiri undosh yoki yarim unli | Iai      |              |             |          |          |          |
|  | Iau      |              | iou<br>(iu) |          |          |          |
|  | Ian      |              |             |          |          |          |
|  | ian'     |              |             |          |          | iun'     |

|  |      |      |  |  |  |  |
|--|------|------|--|--|--|--|
|  | Uai  | uei  |  |  |  |  |
|  | Uan  | uen  |  |  |  |  |
|  | uan' | uen' |  |  |  |  |
|  | u'an |      |  |  |  |  |

Xitoy tilidagi unilarning artikulyatsionjakustik xususiyatlarini ko'rib chiqamiz:

### Unli [a]

Xitoy tilida bitta [a] unlisidan iborat bo'lgan so'zlar va morfemalar soni uncha ko'p emas. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

1) [a], qo'rquv va taajjub holatida baqirib yuborishni ifodalaydigan mustaqil so'z sifatida;

2) [a], undov gaplarning oxirida yordamichi so'z sifatida ishlatiladi.

Xitoycha [a] unlisini talaffuz qilganda, tilning butun jismi rqaga surilgan bo'ladi: til uchi oldingi past tishlardan uzoqda joylashadi, uning markaziy (o'rta-orqa) qismi tanglayga bir oz ko'tariladi. Til usti qismining eng yuqori ko'tarilgan nuqtasi yumshoq va qattiq tanglay chegarasiga to'g'ri keladi. Yumshoq tanglay burun bo'shlig'iga o'tayotgan yo'lni bir oz to'sadi va tilning orqa qismiga yaqinlashadi.

[a] talaffuzida lablar cho'zilmaydi va taranglashmaydi, anchagina ochiq bo'lib, tepa va past tishlarning bosh qismini ko'rsatib turadi.

[a] unlisi xitoycha unililar orasida eng pastki ohang (ton)ga ega bo'ladi.

Shunday qilib, xitoycha [a] o'zining mustaqil pozitsiyasida o'rta qatorning lablanmagan, taranglashmagan, ko'tarilishning o'rta yoki past darajasidagi unlisi hisoblanadi.

### Unli [e]

[e] bo'g'in hosil qiluvchi morfemalarga quyidagilar tegishli:

[e] 'milk'

[e] 'ochlik', 'och bo'lmoq' va boshqalar.

Mustaqil [e] unlisi artikulyatsiyasida tilning butun jismi mustaqil [a] artikulyatsiyasiga qaraganda ancha orqaga suriladi. Til uchi bir oz pastga tushiriladi, og'iz bo'shlig'ining orqa devori va til ildizi o'rta-sida tor o'tish hosil bo'ladi. Eng yuqori ko'tarilish tilning markaziy qismiga to'g'ri keladi, biroq, [a] talaffuziga nisbatan ancha orqaroq.

Unli [e] old rezonatorning ancha yuqori o'ziga xos ohang (ton)ga egadir.

Xitoycha [e] talaffuz qilishni boshida, ayniqsa mustaqil pozitsiyada, diftongli torayishga ega: uning artikulyatsiyasi yopiq tarzda ruscha [i] kabi bo'ladi, so'ng tadjiriy ravishda ochiq artikulyatsiyaga o'tib boradi. Shuning uchun xitoycha [e]ni mustaqil pozitsiyada va ochiq bo'g'inda undoshlardan keyin ko'pincha ruscha transkripsiyada [ie] orqali berishadi.

Biroq xitoycha [e]ning diftongli talaffuzi turg'un emas.

Shunday qilib, xitoycha [e] mustaqil pozitsiyada oldiga surilgan o'rta yoki orqa qatorning taranglashgan lablanmagan ko'tarilishning yuqori darajasidagi unlidir.

### Unli [o]

Mustaqil pozitsiyada [o] unlisi [o] ieroglifning ikkinchi o'qilishida ([ou] ham o'qilishi mumkin) undov so'z sifatida namoyon bo'ladi. Ochiq bo'g'inlardagi bog'liq bo'lgan pozitsiyada unli [o] ikkita holatda uchraydi:

1) bo'g'in boshi [b,p,m,f] undoshlardan keyin ([bo,po,mo,fo]);

2) o'tuvchi yarim undosh unli [u] dan keyin, bo'g'inlarda [uo,huo,guo] va h.k.

Yopiq bo'g'inlarda u faqat bo'g'in oxiri [i]dan oldin keladi. [o] unlisi talaffuzi orqa artikulyatsiyadagi unililar uchun xosdir. Og'iz bo'shlig'idagi rezonator ancha yuqori va uzunroq, orqa tarafga qaraganda. Yumshoq tanglay ko'tarilgan, tilning orqa ust qismiga yaqinlashgan bo'ladi.

Og'iz ochilishining darajasi [e] unlisi talaffuzi kabi bo'ladi, lablar dumaloqlashgan. [o]ga xos bo'lgan ohang (ton)ning balandligi [e]ga qaraganda pastroq bo'ladi. Shunday qilib, xitoycha [o] orqa qatorning taranglashgan lablangan, ko'tarilishning yuqori darajasidagi o'rta yoki keng turidagi unli bo'lib hisoblanadi.

### Unli [i]

Bo'g'in hosil qiluvchi [i] unlidan iborat so'zlar va morfemalar soni juda ko'p, masalan:

[i] 'bir'

[i] 'kiyim'

[i] 'stul' va boshqalar.



Xitoycha unli [i] artikulyatsiyasida tilning butun jismi oldinga va yuqoriga suriladi. Tilning uchi pastga tushadi va yuqori tishlar bilan bir sathda bo'ladi. Til ildizi va og'iz bo'shlig'ining orqa devori o'rtasidagi masofa [u] unlisi talaffuzidagidek bo'ladi, lekin ancha ko'proq, boshqa unlilarga qaraganda. Tilning o'rta qismi qattiq tanglayning o'rta qismiga nisbatan yuqoriga ko'tariladi. Yumshoq tanglay ko'tarilgan va havo oqimi faqat og'iz bo'shlig'idan o'tadi.

[i] artikulyatsiyasida og'iz ochilish darajasi uncha katta emas, lablar cho'zilgan va taranglashgan bo'ladi.

Xitoycha unli [i] boshqa unlilarga nisbatan eng yuqori o'ziga xom ohang (ton)ga egadir. Bo'g'in boshida talaffuzda diftongli torayishga ega bo'ladi, shuning uchun bir qator transkripsiyalarda, masalan ingliz tilida, [i]dan oldi qo'shimcha belgi qo'yiladi.

Shunday qilib, xitoycha [i] oldi qatorning taranglashgan lablanmagan, ko'tarilishning yuqori darajasidagi unlisi hisoblanadi.

#### Unli [u]

Bo'g'in hosil qiluvchi [u]dan iborat bo'lgan bo'g'inlar va morfemalarga quyidagilar kiradi:

[u] 'xona'

[u] 'besh'

[u] 'tuman' va boshqalar.

Xitoycha [u] artikulyatsiyasida [o] artikulyatsiyasidagidek tilning butun jismi orqaga suriladi. Tilning uchi pastda bo'ladi va pastki tishlarning ildizlaridan ancha masofada joylashadi. Til ildizi va og'iz bo'shlig'ining orqa devori o'rtasidagi masofa boshqa unlilar talaffuziga qaraganda ancha kamroq. Tilning eng yuqori ko'tarilishi orqa tomonning o'rta qismida, yumshoq tanglayning oldi qismi ro'parasida sodir bo'ladi.

Til orqasining ko'tarilish darajasi [o] unlisi talaffuzi kabi. Yumshoq tanglay ko'tariladi. Og'iz bo'shlig'ining oldi qismida yuqori balandlik, uzunli va hajmdagi rezonator hosil bo'ladi, og'iz bo'shlig'ining orqa tarafida rezonator qisqa va tor bo'ladi.

[u] talaffuzidagi og'izning ochilishi [o] talaffuziga qaraganda qichikroq, lablar dumaloqlashgan va oldinga chiqqan bo'ladi. Old rezonatorga xos bo'lgan ohang (ton)ning balandligi bo'yicha unli [u] unlilar [u] va [e] o'rtasida joylashadi, [i,u]dan pastroq, lekin [a,e]dan yuqoriroq.

Shunday qilib, xitoycha [u] mustaqil pozisiyada orqa qatorning taranglashgan lablangan, ko'tarilishning yuqori darajasidagi unlisi bo'lib hisoblanadi.

Til oldi artikulyatsiyasiga ega undoshlar va yarim unlilar bilan birga unli [u] til oldi talaffuzga, tanglay orqasida hosil bo'ladigan [n] undoshi bilan unli [u] tilorqa artikulyatsiyaga ega bo'ldi.

#### Unli [u']

Xitoycha [u'] artikulyatsiyasida tilning holati [i] artikulyatsiyasi bilan bir xil bo'ladi: tilning butun jismi oldinga va yuqoriga surilgan bo'ladi, til uchi pastga tushiriladi, ti ildizi esa og'iz bo'shlig'idan ancha masofada bo'ladi.

Unlilar [i] va [u'] talaffuzida asosiy farq lablar bajarayotgan vazifada bo'ladi: [u'] unisi artikulyatsiyasida lablar dumaloqlashadi va oldinga chiqariladi. Yig'ishtirilgan lablar kichkinagina novcha shaklida tor teshikcha hosil qiladi. [u'] talaffuzida og'iz [i] talaffuziga qaraganda kattaroq ochiladi. Yumshoq tanglay ko'tarilgan bo'ladi, lablarning dumaloqlashishi tufayli [u'] unlisining ohang (ton)i pastroq bo'ladi.

Shunday qilib, xitoycha unli [u'] oldi qatorning taranglashgan lablangan, ko'tarilishning yuqori darajasidagi unlisi hisoblanadi.

Xitoy tilidagi bo'g'inli unlilar uchun bo'lgan umumiy xususiyatlardan biri ularning mustaqil pozisiyasidagi bir xil bo'lmagan, diftongli talaffuzidan iborat. Unlilarning barchasi nutq a'zolarining yopiq holatida hosil bo'la boshlaydi, so'ng ochiq artikulyatsiyaga o'tadi. Shunday qilib, [i] o'rniga deyarli [yi] hosil bo'ladi, [u'] o'rniga [yu'], [u] o'rniga [wu], [e] o'rniga [ie] tovushlari paydo bo'ladi.

Faqatgina unli [a] o'zining mustaqil pozisiyasida aniq ifodalangan diftongli talaffuzga ega bo'lmaydi.

Xitoy bo'g'inli unlilarning ikkinchi xususiyati ulardagi kuchli cheklanish (til uchining tishlardan uzoqlashishi)da ifodalanadi. Bu uzoqlashish bilan ularga birikib kelayotgan qorishiq-portlovchi yarim jarangli undoshlar [b, d, g] kelishi; bo'g'inli unlilardan keyin bevosita kelayotganda ular o'zining «yarim jarangli»ligini saqlaydi, lekin jarangliga aylanmaydi. Bo'g'inli unlilar asta-sekin pasayib boradi, ulardan keyin kelayotgan yarim jarangli bo'g'in boshi undoshlar oldida uzilib qolmaydi.

Til sathi bilan bog'liq bo'lgan yana bir artikulyatsion xususiyatni ta'kidlab o'tish kerak. Unlilar oldi qatorga yaqinroq bo'lgan sari,

tilning o'rt va orqa qismlarining anchagina botiq holati kuzatiladi. Tilning chetlari ko'tarilgan bo'ladi. O'rt qator unililari uchun tilning orqa qismida bir oz bo'rtish hosi bo'ladi. Orqa qatordagi unililarning talaffuziga tilning orqa va o'rt qismlarida bo'rtish kuzatiladi.

Izoh: [u']- [yuy], [n']- [ng].

**Nazorat uchun savollar:**

1. Xitoy tilidagi unililarni sanab bering.
2. [a], [e], [o], [u], [u'] unililar artikulyatsiyasi qanday bo'ladi?
3. Orqa qatordagi unililar artikulyatsiyasiga nima xos bo'ladi?
4. Oldi qatordagi unililar artikulyatsiyasi qanday hosil bo'ladi?
5. [a] unidan tashqari, xitoy tilidagi unililarda qanday umumiy xususiyat mavjud?

**2.2. Xitoy tilida undoshlar va ularning tasnifi**

**Maqsad:** Xitoy tilidagi undoshlar va ularning tasniflanishi haqida umumiy ma'lumot berish.

**Tayanch so'z va iboralar:** artikulyatsion-akustik (hosil bo'lish o'rniga va usuliga ko'ra) ta'rif, qorishiq-portlovchi undoshlar, sirg'aluvchi (frikativ) undoshlar, qo'shma (affrikat) undoshlar, sonantlar, yarim undoshlar.

Shovqinlilar.

**Qorishiq – portlovchi** undoshlar

Xitoy tilida undoshlar nafasning ishtrokiga ko'ra qorishiq – portlovchilar 2 guruhga bo'linadi:

- 1) nafassiz,
- 2) nafasli.

Fonetikaga oid ko'pchilik ishlarda ovoz paychalarining ishtrokiga ko'ra nafasli va nafassizlar deb guruhlariga bo'linmaydi. Chunki, nafasli ham nafasli kabi jarangsiz hisoblanadi. Bu esa xitoy tilining chet tillaridagi transkripsiyasida an'aviy (inglizcha, fransuzcha) tilda ham, ilmiy (Karlqren) tilda ham nafasli va nafassizlarni ifodalashda bir xil belgilardan foydalanilishida namoyon bo'ladi. Faqatgina ovozning ishtrokini belgilash uchun diakretik (ostida yoki ustidagi belgi) belgidan foydalaniladi.

| Hosil bo'lish o'rniga ko'ra        | Lab undoshlari |          | Til undoshlari |                         |          |      |                         |         |            |   |    |   |   |   |
|------------------------------------|----------------|----------|----------------|-------------------------|----------|------|-------------------------|---------|------------|---|----|---|---|---|
|                                    | Lab-lab        | Lab-tish | Til oldi       | Til o'rt                | Til orqa |      |                         |         |            |   |    |   |   |   |
| <b>Hosil bo'lish usuliga ko'ra</b> | Yarim jarangli | b        | Milk undosh    | Tanglay oldi alve-olyar | g        |      |                         |         |            |   |    |   |   |   |
|                                    |                |          | Jarangsiz      |                         |          | Z(r) |                         |         |            |   |    |   |   |   |
|                                    |                |          | Jarangli       |                         |          |      | s                       |         |            |   |    |   |   |   |
|                                    |                |          | Jarangsiz      |                         |          |      |                         | s'      |            |   |    |   |   |   |
|                                    |                |          | Jarangli       |                         |          |      |                         |         | z          |   |    |   |   |   |
| Jarangsiz                          | z'             |          |                |                         |          |      |                         |         |            |   |    |   |   |   |
| <b>Shovqinlilar</b>                |                | m        | p              | f                       | s        | x    |                         |         |            |   |    |   |   |   |
|                                    |                |          |                |                         |          |      | Portlovchi sirg'aluvchi |         |            | s | c' | j |   |   |
|                                    |                |          |                |                         |          |      |                         | Burunli |            |   |    |   | n | q |
|                                    |                |          |                |                         |          |      |                         |         | Yon tovush |   |    |   |   |   |
|                                    | Sirg'aluvchi   |          |                |                         |          |      |                         |         |            |   |    |   |   |   |
| Yarim undosh                       |                | i,u'     |                |                         |          |      |                         |         |            |   |    |   |   |   |
|                                    |                |          | u              | u                       |          |      |                         |         |            |   |    |   |   |   |

Rus tilidagi an'anaviy talaffuzda uning paydo bo'lganidan hozirgi kungacha nafasli bo'lmagan tovushlarni ifodalash uchun jarangli undoshlar, nafasli bo'lganlar uchun esa – jarangsiz undoshlardan foydalaniladi. Rossiyada va sobiq Sovet Ittifoqida nafasli tovushlarni biror belgi bilan belgilab qo'yishga harakat qilingan bo'lsa-da, harflarning qo'llanilish tartibi buzilmagan. Ammo bu, rus xitoyshunoslari xitoy tilidagi harfni rus tilidagi jarangli va jarangsizlar bilan tenglashtirgan degani emas. N.Ya.Bichurin rus tilida ifodalanuvchi b, g, d xitoy tili tovushlarini quyidagicha ifodalagan: "B, g, d tovushlari ozgina yumshatilib bp, gk, dt, kabi talaffuz etilishi kerak.

Professor Polivanov xitoy tilidagi b, d, g portlovchi nafasli bo'lmagan tovushlarni  $(p+b)/2$  formula bilan aniqlab, rus tilidagi mos tovushlarning o'rtacha talaffuzi deb ta'kidlaydi.

Bichurin va professor Polivanovlar tomonidan taqdim etilgan bu tovushlarning umumiy ta'rifini ko'rib chiqar ekanmiz, xitoy tilidagi nafasli bo'lmagan tovushlarni rus tilidagi jarangli va jarangsiz undoshlar bilan tenglashtirib bo'lmada, uni aniq ma'lumot deyolmaymiz, chunki, ular xitoy tilidagi yarim jarangli [b, d, g] tovushlarining paydo bo'lishi va usulining to'liq tasnifini berolmaydi. Bu guruh xitoy undoshlarining yarim jaranglilik tabiatini ochib berish uchun qayta-qayta izlanishlar olib borilishi kerak.

Bizning izlanishlarimizga ko'ra, xitoy tilining nafasli bo'lmagan tovushlarining yarim jaranglilik quyidagicha: ularning talaffuzida tovush paychalari faqatgina portlash vaqtida titraydi. Shu xususiyati bilan xitoy tili [b, g, d] undoshlari rus tilidagi mos undoshlardan farq qiladi.

Bundan tashqari xitoy tili nafasli bo'lmagan tovushlari bir necha tovush paychalarining yaqinlashuvidan og'iz bo'shlig'ida paydo bo'lgan havo oqimining otilib chiqishidan hosil bo'ladi. Nutq organlari taranglashgan, til oldinda bo'ladi. Bo'g'in so'ngidagi nafasli bo'lmagan undoshlar to'liq talaffuz etiladi.

Aslida, xitoy tilidagi ovozlilar bir turdagi tovushlar sanaladi. Hosil bo'layotganda tovush paychalari keng ochiq bo'ladi, o'pkadan chiqayotgan havo oqimi to'siqqa uriladi. Birdaniga urilgan havo oqimi zarba bilan otilib chiqadi. Paydo bo'lgan shovqinli havo oqimi hosil bo'lgan tovush va keyingi aytilayotgan tovush bilan oralig'ida kichik to'xtam hosil bo'lib, buning oralig'ida ovoz hosil bo'ladi.

Bichurin professor Polivanovga ko'ra xitoy tili nafasli tovushlariga to'liqroq ta'rif berib o'tgan. Bichurin: " kx, px, tx undoshlarida

keyin yumshoq nafas bo'ladi, huddi, k, p, t tovushlaridan so'ng x undoshi bordek, yoki ular o'zidan keyingi harflardan tere (-) bilan ajratilib qo'yilgandek. Masalan:

*Kxay* yoki *k-ay* "ochayapman"

*Pxay* yoki *p-ao* "yuguryapman"

*Txen* yoki *t-in* "og'riyapti"

100 yil avval Bichurin tomonidan berilgan nafasli tovushlarning to'liq va aniq ta'rifi, afsuski, xitoy fonemachi tadqiqotchilarining hech qanday diqqatini tortmadi.

Zamonaviy Pekin shevasida [b, p, d, t, g, k] qorishiq-portlovchi undoshlari bo'g'inning boshida uchraydi. [b, d, g] undoshlar VI asrga qadar, [p, t, k] undoshlari esa VIII asrga qadar bo'g'in so'ngida uchraydi. [p, t, k] undoshlarining bo'g'in so'ngida qo'llanilishi janubiy shevalarda hozirga qadar saqlanib qolgan.

*[b]* xitoy undoshi shovqinli, lab-lab, qorishiq-portlovchi, nafasli bo'lmagan yarim jarangli; *[p]* undoshi shovqinli, lab-lab, qorishiq-portlovchi, jarangsiz nafasli.

*[d]* xitoy undoshi shovqinli, til oldi, qorishiq-portlovchi, nafasli bo'lmagan yarim jarangli; *[t]* undoshi shovqinli, til oldi, qorishiq-portlovchi, jarangsiz nafasli.

*[g]* xitoy undoshi shovqinli, til orqa, qorishiq-portlovchi, nafasli bo'lmagan yarim jarangli; *[k]* undoshi shovqinli, til orqa, qorishiq-portlovchi, jarangsiz nafasli.

### *Sirg'aluvchilar (frikativ)*

Xitoy tilidagi barcha sirg'aluvchilar ([s, z (r)] dan tashqari) juftsiz undoshlar sanaladi. Ular hech qanday farqlanish turiga ko'ra juft hosil qilmaydi: jarangli-jarangsiz, nafasli-nafasli bo'lmagan va h.k.

Asosiy akustik xususiyati, ya'ni, biron bir frikativlar boshqasidan farqlanish xususiyati bu – mos frikativ undoshlarning talaffuzidagi shovqinning ishtrokidir.

Adabiyotda [z] undoshi frikativ [s'] undoshining juftligi emas taxminlari mavjud. Bu masalani biz [s', z] undoshlarini ta'riflayotganimizda ko'rib chiqamiz. Xitoy tilidagi barcha sirg'aluvchi tovushlar kuch bilan talaffuz qilinadi.

*[f]* xitoy tovushi shovqinli, lab-tish, sirg'aluvchi. Zamonaviy xitoy tilida [f] undoshining jarangli jufti yo'q, ammo, qadimgi xitoy tilida [v] undoshi shu o'rinda qo'llanilardi.

[s] *xitoy tovushi* shovqinli, til oldi, milk undoshi, jarangli undosh.  
[s'] *xitoy tovushi* shovqinli, til oldi, tanglay oldi, jarangli undosh.  
[h] *xitoy tovushi* shovqinli til orqa, sirg'aluvchi jarangsiz undosh.  
[x] *xitoy tovushi* shovqinli til o'rta, jarangsiz.

### Qo'shma (birikma) undoshlar (affrikat)

Xitoy tili tovushlar tizimida affrikatlar ko'pchilikni tashkil etadi. Xitoy tili affrikati ham qorishiq-portlovchilar singari nafasning ishtroki bilan farqlanadi. Tovush paychalarining ishtroki ahamiyatli emas: nafaslilar singari nafasli bo'lmaganlar ham jarangsizdir. Xitoy tili affrikatlarining hosil bo'lish o'rnini va ularning asosiy farqlanish xususiyatini bilish uchun affrikat bu - tilda mavjud 2 mustaqil tovushni qo'shilishidan emasligini, balki, 1 murakkab tovushning talaffuzida qo'shma boshi va sirg'aluvchi yakuni bor tovush ekaniga ahamiyat berish kerak. Ya'ni tovush bir yerda (masalan: tilning oldi qismida) hosil bo'ladi. Xitoy tilida ba'zi affikatlarining 2 qismi bo'lib, mustaqil ham, alohida ham bo'la olmaydigan tovushlar xizmat qiladi. Masalan: [z] va [j] tovushlari til oldi va til o'rta sirg'aluvchilar bo'lsada, Pekin shevasida bunday tovush yo'qituvchi.

[z] *xitoy undoshi* shovqinli qo'shma, til oldi, tanglay oldi (alveolyar), jarangli.

[c] *xitoy undoshi* shovqinli qo'shma, til oldi, tanglay oldi (alveolyar), jarangsiz, kuchli.

[z'(zh)] *xitoy undoshi* shovqinli qo'shma, til oldi, tanglay oldi (alveolyar), jarangli.

[c'(ch)] *xitoy undoshi* shovqinli qo'shma, til oldi, tanglay oldi (alveolyar), jarangsiz, kuchli.

[j] *xitoy undoshi* shovqinli qo'shma, til o'rta, jarangli, nafasli bo'lmagan.

[q] *xitoy undoshi* shovqinli qo'shma, til o'rta, jarangsiz, kuchli

### Sonantlar

Bu guruh undoshlarga musiqiy jarangdorligi shovqindan balandroq bo'lgan tovushlar kiradi. Ularning talaffuzida tovush paychalari hardom titraydi; ammo xitoy tilida sonorlar hech qachon bo'g'in hosil qilmaydi.

### Burun sonantlari

Burunli sonorlar uchun nutq a'zolarining hammasining og'izning biron bir yerida qo'shilishi hosidir.

[m] *undoshi* lab-lab, qo'shma, burunli sonor.

[n] *bo'g'in oldi tovushi* til oldi, milk tovushi, qo'shma, burunli sonor.

[l] *bo'g'in orti tovushi* til oldi, milk tovushi, qo'shma, burunli, kuchli boshlanuvchi sonor.

[r] *undoshi* til orqa, uvulyar(yumshoq tanglay va kichik til ishtrokida talaffuz etiladigan tovushlar), qo'shma, burunli sonor.

### Og'iz sonantlari

Burunlilardan farqli, qolgan hamma jarangli sonorlarni og'iz sonorlari guruhiga qo'shish mumkin. Og'iz boshlig'iga kelayotgan havo oqimiga shovqinli undoshlarga qaraganda kengroq tuynuk hosil bo'ladi.

[l] *undoshi* til oldi, tanglay oldi, qo'shma, yon sonor.

[r] *bo'g'in orti tovushi* til oldi, tanglay orti, sirg'aluvchi sonor.

### Yarim undoshlar

Sonorlar sistemasida xitoy tili undoshlarida [i, u, u'] yarim undoshlari ajratiladi. Hosil bo'lishida tilning holati ko'p hollarda mos [i, u, u'] unililari bilan o'xshashlik tomoni ko'p. Farqi shundaki yarim undoshlarning kamroq sonorlik xususiyati bor.

[i] *yarim undoshi* til o'rta, sirg'aluvchi sonor.....

[u] *yarim undoshi* kuchli lablangan, til o'rta, sirg'aluvchi sonor

### Nazorat uchun savollar:

1. Qorishiq-portlovchilar qanday guruhlariga bo'linadi?
2. Qorishiq-undoshlarni sanab bering.
3. Qaysi undoshlar sirg'aluvchilar sanaladi?
4. Xitoy tili affrikatlarini sanab bering.
5. Burun sonantlarini sanab bering.
6. Og'iz sonantlarini sanab bering.
7. Yarim undoshlarni sanab bering.

### 2.3. Xitoy tilining fonematik tuzilishi

**Maqsad:** xitoy tilining fonematik tuzilishi haqida tushuncha hosil qilish, undosh fonemalar, unli fonemalarning turlarini tavsiflash.

**Tayanch soʻz va iboralar:** kvaziomonimlarning qiyoslash usuli, unli fonemalarda qator belgisi, unli fonemalarda tilning koʻtarilishi belgisi, priznunli fonemalarning lablangan-lablanmagan belgisi, tovush bogʻich (paycha)lari faoliyatining belgisi, nafas olish belgisi, artikulyatsion-akustik belgilar.

**Xitoy tilida fonemalarni aniqlash metodikasi.** Soʻzning fonemik tuzilishini aniqlash uchun, soʻzga kiruvchi boʻgʻinlarning fonemalarini bilib olish zarur boʻladi. Xitoy tili morfemalari uchun omonimiya xarakteri xosdir. Bir xil talaffuzli soʻzlar va morfemalarni tahlil qilishda omonim boʻlib xizmat qiluvchi boʻgʻinga teng boʻladi. Xitoy tilida fonemalar tuzilishi ham ularning variantlari ham bir xil boʻladi.

Xitoy tili fonemalarining ichida bir guruh omonimlarning boshqasidab farqlash uchun hamma boʻgʻinlarni boshqasi bilan solishtirilsa boʻldi.

Xitoy tilida asosiy unlilar mos soʻz, omonimik-morfema va maʼnosi bilan bogʻliq tovushga ega boʻladi.

Bu kabi boʻgʻin unlilari tovush fonemalarining mustaqil varianti boʻlib xizmat qiladi. Agar xitoy tilida maʼnoli boʻlak bir tovushdan iborat boʻlsa, u holda bu tovush mustaqil fonema boʻlib xizmat qiladi.

Shu unli fonemalar boʻgʻin hosil qiluvchi tovush birliklari sifatida xitoy tilida mavjud boʻlgan boshqa barcha boʻgʻinlar tarkibiga kiradi, bu yerda ular pozisiya jihatidan tobe fonemalar variantlarida namoyon boʻladi.

Unilarning tobe variantlari mustaqil ravishda alohida boʻgʻinlarni ifoda etolmaydi, demak, xitoy tilidagi alohida maʼnoga ega birlik (morfema)larni ifoda etolmaydi. Shuning uchun fonemalarning tobe boʻlgan variantlari mustaqil tovush birliklari sifatida aniqlanmaydi, ular asosiy variant bilan yaxlit tovushli turga birlashtiriladi.

Tovushva maʼno oʻrtasidagi bevosita aloqa borligi asosida fonemalarni aniqlash usuli xitoy tilida qoʻllanilmaydi, chunki faqatgina (g) undoshi soʻz oʻzagi bilan birga bitta boʻgʻin tarkibidagi suffiks rolida bevosita morfemani ifodalashi mumkin. Barcha boshqa undoshlar qandaydir maʼno anglatuvchi birliklarga qobiq vazifasini oʻtolmaydi.

Shunday qilib, xitoy tili tovushli tarkibining xususiyatlari fonemalarning asosiy variantlarini aniqlash uchun quyidagi ikkita usulni qoʻllash imkonini beradi:

1) Unlilar uchun – bevosita maʼno bilan bogʻliqlikni aniqlash imkoniyati;

2) Undoshlar uchun – «yagona farq» usuli, yaʼni kvaziomonimlarni qiyoslash.

Xitoy tilining unli fonemalari quyidagi asosiy, bir-biriga qarshi qoʻyiladigan belgilar bilan aniqlanadi:

1. Qator belgisi

2. Tilning koʻtarilishi darajasi

3. Lablangan-lablanmagan

Qolgan belgilar unli fonemalarni tavsiflashda muhim, biroq qarshi qoʻyishda asosiy vazifani bajarmaydi.

Tanglayga tilning koʻtarilishi darajasiga qarab, qator belgisiga koʻra unli fonemalar oldi, oʻrta va orqa qatorga keyinchalik oldi ortga surilgan, oʻrta oldinga surilgan va orqa oldinga surilgan qatorlarga taqsimlanadi.

Oldi qatordagi unlilarga [i,] [uʼ] kiritiladi, oʻrta qatorga - [a], [e] va orqa qator fonemalarga - [u], [o] tegishlidir.

Tilning koʻtarilish darajasiga koʻra unlilar uch qatorga boʻlinadi: yuqori koʻtarilish, oʻrta va past koʻtarilish darajasidagi unlilar, oʻz navbatida har bir daraja keng va tor turga ega boʻladi. Yuqori koʻtarilishning tor turiga [i], [uʼ], [u] unli fonemalari kiritiladi. Yuqori koʻtarilishning keng turiga - [e], [o] unli fonemalari, oʻrta koʻtarilish darajasiga [a] unli fonemasi kiritiladi.

#### Xitoy tilida undosh fonemalar

Xitoy tilida undoshlar (shu qatorda yarim undoshlar)ni aniqlash uchun bitta unlidan iborat toʻlgan boʻgʻinlarni va unli oldidan undosh (yoki yari undosh) kelgan ikki tovushli boʻgʻinlarni solishtirish kifoya boʻladi. Ochiq boʻgʻinda unli oldidagi undoshlarning bunday pozisiyasi mustaqil hisoblanadi, chunki bitta undoshni ikkinchi undoshga qarshi kelishini yaqqol koʻrsatib turadi.

Agar tovush boʻgʻin tarkibidagi unli pozisiyasida kelmasa, fonema boʻgʻinlarni solishtirish yoʻli orqali aniqlanadi: bitta unlidan iborat boʻlgan boʻgʻin shu unlidan keyin keluvchi undosh (yarim undosh)li boʻgʻin bilan qiyoslanadi. Undosh fonemalarni aniqlashda bu ikkinchi mustaqil pozisiya hisoblanadi. Undoshli fonemalarni aniqlashda ikki tovushdan iborat boʻgʻinlarni koʻrib chiqish yetarli: undosh plyus unli va unli plyus undosh.

Xitoy undoshlari nafaqat o'zining artikulyatsion-akustik xususiyatlari, balki bo'g'in hosil qiluvchi roli bilan ajralib turadi: unlilar doim bo'g'inli bo'ladi, undoshlar bo'g'inli bo'lmaydi.

O'z navbatida undoshlar shovqin va musiqiy ohang bo'yicha ikki guruhga bo'linadi: shovqinli, ya'ni ularda shovqin musiqiy ohangdan ustun keladi, va burun (sonor), ya'ni musiqiy ohang shovqindan ustun keladigan undoshlar. O'zining artikulyatsion-akustik xususiyatlari bo'yicha undoshlar unlilardan ancha farq qiladi, burun (sonor) undoshlar shovqin undoshlar va unlilar orasida o'rta pozitsiyaga ega bo'ladi.

Xitoy tilidagi undosh fonemalarni qiyoslash shovqin va sonor undoshlilar uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarni aniqlashga imkon beradi:

1. Artikulyatsion a'zo bo'yicha
2. Artikulyatsiya usuli bo'yicha
3. Tovush bog'ichlari (paylari)ning ishi bo'yicha
4. Nafas chiqarish bo'yicha

Artikulyatsion a'zo bo'yicha undoshlar quyidagicha taqqoslanadi:

1. Lab undoshlari
2. Til undoshlari

Lab undoshlari o'z navbatida ikkita guruhga ajratiladi:

1. Qo'sh lab undoshlari (b, p, m, u)
2. Lab-tish undoshlari (f)

Til undoshlari uchta guruhga bo'linadi:

1. Til uchi oldi undoshlar (d, t, s, z, c, n, l, z, s', z', c', r)
2. Til o'rta undoshlar (x, q, j, l, u')
3. Til orqa undoshlar (g, k, h, n')

Til uchi oldi undoshlar pasiv a'zo bo'yicha uchta guruhga ajratiladi:

1. Oldi alveolyar (milk) undoshlari (d, t, s, z, c, n, l)
2. Alveolyar undoshlar (z, s, z, c)
3. Orqa alveolyar undoshlar (r)

Xitoy tilidagi til uchi oldi undoshlarning artikulyatsiyasi (talaffuzi)da til kakuminal shaklda bo'ladi: til uchi biroz tepaga ko'tariladi, tilning oldi-o'rta qismi pasayadi (chuqurlik paydo bo'ladi), tilning orqa qismi bir oz ko'tariladi.

Yarim jarangli va jarangli (d, z, z) undoshlarda tiling kakuminal shakli jarangsiz va nafasli jarangsizlar (t, s, c) talaffuziga qaraganda ancha aniq bo'ladi.

Undoshlilarning yumshoqlanishi (birinchi qator yopiq unlilar va til o'rta yarim undoshlilar oldidagi pozitsiyada) tilning kakuminal-doroal shaklida kuzatiladi. Bu holatda til oldi ustida chuqurcha paydo bo'ladi, shunda tilning orqa qismi emas, o'rta usti qismi ko'tariladi.

(r) undoshi til uchi oldi qismining alveola (milk)lardan ancha uzoqlashib, keskin tepaga qayirilganda hosil bo'ladi.

Til o'rta undoshlari qattiq tanglay qismida hosila bo'ladi. Jarangsiz, nafasli (k) talaffuzida tilning orqa usti qismi yumshoq tanglay bilan juda yaqin bo'ladi.

Xitoy tilidagi shovqinli undoshlar artikulyatsiya bo'yicha uchta guruhga bo'linadi:

1. Qorishiq-portlovchi (b, p, d, t, g, k)
2. Sirg'aluvchi (frikativ) (f, s, z, s, x, h)
3. Qo'shma (birikma) (affrikatlar) (z, c, z, c, j, q).

Burun (sonor) undoshlar artikulyatsiya bo'yicha ikkita guruhga ajratiladi:

1. Burun (m, n, n')
2. Og'iz (sirg'aluvchi). Bularga ravon (bir tekkisdagi) (l, g) va yarim unli (I, u, u')lar tegishlidir.

Shovqinli undoshlar talaffuzida tovush bog'ichlari faoliyati nafas chiqarish bilan bog'liq bo'ladi. Tovush bog'ichlarining ishi yoki nafas olish ustunligiga qarab xitoy tilidagi shovqin undoshlari ikkita guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga sirg'aluvchi-portlovchi (b, p, d, t, g, k) undoshlar kiritiladi, bularda nafas olish birinchi o'rinda, tovush esa ikkinchi o'rinda turadi. Ikkinchi guruh (shovqin sirg'aluvchi va afrikatlar)ning talaffuzida esa birinchi o'ringa tovush kuchi chiqadi, nafas chiqarish kuchi birinchi guruhga qaraganda muhim rol o'ynamaydi.

Qorishiq-portlovchi undoshlar yarim jarangli nafassiz va jarangsiz nafasli turlariga bo'linadi. Yarim jarangli undoshlarning xususiyatlari shundaki, tovush bog'ichlarining titrashi to'siqlar olinish vaqtida sodir bo'ladi, undan oldin emas. Yarim jarangli undoshlarning yana bir so-bit (o'zgarmas) belgisi bu nafassiz bo'lishi (ya'ni nafas chiqarilmaydi talaffuz qilinganda). Bulardan farqli ravishda jarangsiz bo'lgan sirg'aluvchi-portlovchilar doim nafasli bo'ladi va hech qanday pozitsiyada jaranglilarga aylanmaydi.

Oltita sirg'aluvchi undoshlar orasida faqat (s, g) jarangli-jarangsiz qarama-qarshi juftlikka ega. Qolganlari frikativ jarangsiz undoshlar, o'zining jarangli juftiga ega emas. Affrikatlar (z, j, z') butun talaffuz jarayonida jarangli bo'lib chiqadi. Sonantalar doim jarangli va nafassiz bo'ladi.

Yuqoridagi keltirilgan undosh fonemalar tizimini quyidagi sxemada keltirish mumkin:



bilan ifodalanadi (xu, xun, ju, jun, qu, qun). Agar [u'] fonemasidan oldin bo'g'in boshi undoshi va yarim unli bo'lmasa, unda uni ifodalash uchun ikki harfli birikma ishlatiladi, yun bo'g'inidagi yu kabi.

Yangi xitoy fonetik alifbosida "u'" harfi umuman mavjud emas, biroq u [u'] bo'g'in unlisi uchun ham, o'tuvchi yarim unli [u'] fonemasi uchun ham ishlatiladi, masalan lue, luan, nue bo'g'inlarida.

### O'tuvchi yarim unli

Xitoy tilida yarim unli fonemalar ikki pozisiya ko'rinishida uchraydi: o'tuvchi yarim unli (bo'g'indagi unli) va bo'g'in oxiri unli (bevosita bo'g'in unlisidan keyin).

O'tuvchi yarim unli [i] bo'g'in boshi undosh undan oldin kelgan holatda faqat "i" harfi bilan ifodalanadi, masalan, bian, diao, jiu, qiong bo'g'inlarida. Agarda bu fonema bo'g'inni boshlab kelsa (ya'ni bo'g'in boshi undoshsiz), unda "u" harfi orqali beriladi, masalan yao, [iau], yong [iun] bo'g'inlarida.

O'tuvchi yarim unli [u] agar undan oldin bo'g'in boshi undosh kelsa, "u" harfi bilan ifodalanadi, masalan, kuang, huai bo'g'inlarida; agarda bu fonema bo'g'inni boshlasa (ya'ni bo'g'in boshi undoshsiz kelsa), "w" harfi bilan beriladi, masalan, wai, weng, wo bo'g'inlarida. Lab undoshlari [b, p, m, f] dan keyin belgilanmaydi: bo, po, mo, fo.

O'tuvchi yarim unli [u] dan oldin bo'g'in boshi undosh kelsa, "u" harfi bilan ifodalanadi, boshqa bo'g'in boshi undoshlar [x, j, q] bilan [u] fonemasi "i" harfi bilan beriladi, masalan, xue, xuan, jue, juan, que, quan. Agarda bu fonema bo'g'inni boshlab bersa (bo'g'in boshi undoshsiz kelsa), u ikki harfli birikma "yu" bilan ifodalanadi, masalan, yue, yuan bo'g'inlarida.

### Bo'g'in oxiri undoshlar va yarim unli

Til oldi burun undoshi [n] bo'g'in oxiri pozitsiyasida, ya'ni bevosita bo'g'in unlisidan keyin kelsa, "n" harfi bilan beriladi.

Til orqa burun [n'] faqat bo'g'in oxirisida ishlatiladi va ikki harfli birikmasi bilan ifodalanadi.

Yarim unli [i] bo'g'in oxiri pozitsiyasida doim "i" harfi bilan ifodalanadi, masalan wai, mei, dui bo'g'inlarida.

Yarim unli [u] bo'g'in oxiri pozitsiyasida [o] bo'g'in unlisidan keyin "u" harfi bilan ifodalanadi, "a" bo'g'in unlisidan keyin esa "o" harfi bilan beriladi: hao, mao, yao.

Sonor (burun) orqa alveolyar [r] undosh faqat so'z oxirida ishlatilib, "g" harfi bilan beriladi.

### Bo'g'in boshi undoshlari

Xitoy tilidagi bo'g'in boshida ishlatiladigan 21 ta undoshlardan lotin alifboli tillar kabi harf ifodalariga ega. Bu yerga lab undoshlari: [b,p,m,f], til oldi [d,t,n,l,s], til orqa [g,k,h] kiritiladi. Alveolyar frikativ undosh [s'] ikki harfli sh birikmasi bilan ifodalanishi qabul qilingan. Til o'rta frikativ undoshni "x" harfi bilan ifodalash lotin alifbosiga xos bo'lmasada, ba'zan fonetik transkripsilarda qo'llaniladi. Xitoy tilidagi 6 ta murakkab undosh (affrikat)lar aksariyat holatlarda bitta harf orqali ifodalanadi: til oldi (milk) jarangsiz affrikat [s] "s" harfi bilan beriladi, uning jarangli affrikati [z] "z" harfi bilan beriladi, til o'rta jarangsiz affrikat [q] undoshini ifodalashda "q" harfi ishlatiladi, jarangli affrikat [j] undoshini ifodalash uchun "j" harfi qo'llaniladi. Yangi xitoy alifbosida ikki harfli zh, ch, sh belgilarga muvofiq z', c', s' belgilarini yozish mumkin. Shu orqali bo'g'in boshi undoshlarni ifodalashda "har bir tovushga – alohida harf" degan prinsip to'la amal qiladi.

Til oldi alveolyar (milk) yordamida hosil bo'ladigan frikativ undosh [z] "r" harfi bilan beriladi, bu harf bo'g'in oxiri alveolyar sonor (ya'ni burun) undoshi [r]ni ifodalash uchun ham ishlatiladi.

### Nazorat uchun savollar:

1. Xitoy tilida unli fonemalarni aniqlash metodikasi haqida bayon qiling.
2. Xitoy tilida unli fonemalarni aniqlashda qanday usul bor?
3. Unli fonemalar qanday belgilarga ega?
4. Undosh fonemalar qanday belgilarga ega?
5. O'tuvchi yarim unli fonemalar haqida gapirib bering.
6. Bo'g'in oxiri undoshlar va yarim unli fonemalar haqida aytib bering.
7. Bo'g'in boshi undosh fonemalar haqida bayon qiling.



## 2.4. Xitoy bo'g'inlari

**Maqsad:** xitoy tilidagi so'zlarni bo'g'inlarga ajratish masalalari haqida ma'lumot berish, xitoy tilidagi bo'g'in turlari haqida tushuncha hosil qilish.

**Tayanch so'z va iboralar:** *bo'g'in, kichik bo'g'in, boshlang'ich va oxirgi bo'g'in, bir tovushli, ikki tovushli, uch tovushli, to'rt tovushli bo'g'inlar.*

Xitoycha bo'g'inlarning tovushli tarkibida bo'g'inlar sonida ham, ularni bo'g'inida joylashish tartibida ham bir qator xususiyatlar xosdir.

Eng kichik bo'g'inlar bir dona bo'g'in hosil qiluvchi [a, e, i, u, u] unlilaridan iborat bo'ladi.

Ikki tovushdan iborat bo'g'inlar 3 xil bo'ladi:

1. Bo'g'inli unlidan keyin bo'g'in oxiri (yakuniy) tovush keladi, buning vazifasida quyidagi kuchli bo'g'in boshi yarim unlilar va sonor undoshlar kelishi mumkin: [i, u, n, n, r] Masalan:

[ai], [ei], ---, ---

[au], [ou], ---, ---

[an], [en], [un], [un]

[an], [en], [un]. ---

--- [er], ---, ---

2. Bo'g'inli unlidan oldin o'tuvchi yarim unlilar keladi: [i (y), u (w), u (yu)]

Masalan: [ia (ya)] [ua (wa)] ---

[ie (ye)] [uo (wo)] [ue (yue)]

[iu (you)] --- ---

3. Bo'g'inli unli oldidan bo'g'in boshi undoshlardan biri keladi: [da, te, mi, lu, ju (ju), zi] va h.k.

**Uchta tovushdan iborat bo'g'inlar** ham 3 turda bo'ladi. Birinchi tur o'z ichiga quyidagilarni oladi:

a) o'tuvchi yarim unli;

b) bo'g'inli unli;

v) bo'g'in oxiri (yakuniy) tovush.

Masalan: [iau (yao)], [ian (yan)], [ian (yang)], [uan (wan)], [uan

(yuan)]

Ikkinchi turi quyidagicha bo'ladi:

a) bo'g'in boshi undosh;

b) bo'g'inli unli;

v) bo'g'in oxiri (yakuniy) tovush.

Masalan: [mai, tau (tao), tan, tan, zer].

Ushbu bo'g'inlarning uchinchi turi quyidagilardan iborat bo'ladi:

a) bo'g'in boshi undosh;

b) o'tuvchi yarim unli;

v) bo'g'inli unli.

Masalan: [xia], [hua], [lue]

[jia], [zua], [jue]

**To'rtta tovushdan iborat bo'g'inlar:**

1) Bo'g'in boshi undosh;

2) O'tuvchi yarim unli;

3) Bo'g'inli undosh

4) Bo'g'in oxirigi (yakuniy) (yarim unli yoki undosh). Masalan:

[pian], [huan], [kuai]

[mian], [zuan], [quan]

Xitoy tilidagi bo'g'inida to'rttadan ortiq tovushlar bo'lmaydi. Har qanday bo'g'inida bo'g'inning markaziy tovushi bo'lmish bo'g'inli unli kelishi shart. Bo'g'inli unliga nisbatan bo'g'indagi qolgan tovushlar aniq belgilangan tartibda keladi. Bevosita bo'g'inli unlidan oldin yarim unlilar [i, u, u] ham, bo'g'in boshi undoshlar: [b, p, d, t, g, k, f, s, s, z (r), h, z, c, z, c, j, q, x, m, n, l] ham kelishi mumkin. Bo'g'in boshi undoshlar yarim unli: [i, u, u] lardan oldin ham bo'lishi mumkin. Demak, yuqorida ko'rsatib o'tilgan bo'g'in boshi undoshlar bo'g'in boshida undosh kelmaganda bo'ladi, bevosita bo'g'inli unli oldidan keladi. Ko'pincha yarim unli [i, y, u] bo'g'in boshi undoshlar va bo'g'inli unlilar o'rtasida kelgani tufayli, ularni o'tuvchi (yoki oraliqdagi) yarim unlilar deb nomlash qabul qilingan.

Bevosita bo'g'inli unlilardan keyin, ya'ni doim bo'g'in oxirida, yarim unli [i, u] va undoshlar [n, n, r] kelishi mumkin. Bo'g'indagi joyiga qarab, ularni bo'g'in oxiri (yakuniy) deb atashadi.

Xitoy bo'g'inlari tarkibining xususiyatlari tovushlar soniga qarab ham, bo'g'inida ularning ketma-ketligidan kelib chiqib ham, xitoy tilining tovush tizimini o'rganayotgan ko'pgina mualliflar tomonidan qayd etiladi. Bu borada prof. Polivanovning takliflari katta ahamiyatga egadir. Uning fikriga ko'ra, tovush elementlarining tarkibiga qarab barcha xitoy sillabema (bo'g'in)lari quyidagicha tasniflanadi: 1) bosh-

lang'ich undoshlar, 2) tor bo'g'in hosil qilmaydigan unlilar, 3) bo'g'in hosil qiluvchi unlilar, 4) diftonglar bo'g'inlar bo'lmagan elementlar.

Prof. Polivanov xitoy sillabemalarning har xil turlarini raqamlar bilan belgilash o'ziga xos usulni tatbiq etgan. Barcha to'rtta tovush elementlarga ega to'liq tarkibdagi sillabemalar 1234 formulasi bilan belgilanadi; boshqa turdagi «to'liq bo'lmagan» tarkibdagi sillabemalar bitta, ikkita, uchta raqam bilan belgilanadi. Masalan:

[yan] bo'g'ini 234 raqamlar bilan belgilanadi,

[ba] bo'g'ini === 13 raqamlar,

[e] bo'g'ini === 3 raqami bilan belgilanadi.

Bo'g'in ichidagi tovushlarning qat'iy belgilangan qonuniyatlari, hamda ma'lum bir tovushlarning boshqa tovushlar bilan o'zaro birikmasligi tufayli, amalda qo'llaniladigan bo'g'inlar soni chegaralangan va hisobini olib borish uncha qiyin emas.

Bo'g'in haqidagi umumiy nazariyasidagi bo'g'in boshida yoki oxirida kelgan undoshlarning talaffuziga oid bo'lgan L.V.IIIerbaning fikrlari katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, bo'g'in boshidagi undoshlar - kuchli oxirgi (yakuniy), bo'g'in oxiridagi undoshlar esa kuchli bo'g'in boshi undoshlar deb hisoblanadi.

Afsuski, xitoy fonetikasi tadqiqotchilari bo'g'in boshi va bo'g'in oxiri undoshlarning talaffuz qilish xususiyatlarini e'tiborga olishmagan, ta'limiy va ilmiy maqsadlarda ishlab chiqilgan transkripsiyalarga, shuningdek, harfli yozuvga o'tish bo'yicha loyihalarga salbiy ta'sir qilgan. Odatda bu transkripsiya va alifbolar, shular qatorida 主音字母 zhuyinzimu alifbosi, bitta jiddiy kamchilikka ega – bular yordamida har qanday xitoycha murakkab, ko'p tarkibli (ko'p morfemali) so'zni qo'shib yozib olish imkoni bo'lmaydi, chunki transkripsiyada bo'g'inlar o'rtasidagi chegara yo'qolib ketadi. Ko'p tarkibli so'zlarni qo'shib yozishga yordam beradigan ba'zi transkripsiyalar va alifbolar talaffuz qilinayotgan tovushlar xarakteri bilan umuman bog'liq bo'lmagan qo'shimcha belgilarga murojaat qiladi.

Biroq, bo'g'in boshidagi va oxiridagi undoshlar va yarim unilarni talaffuz qilinishidagi farqlarni e'tiborga olib, yuqorida aytib o'tilgan kamchilikdan xoli va o'z ichiga xitoy tilining tovush qoidalari bilan bevosita bog'liq bo'lgan transkripsiyaning ishlab chiqishga imkon beradi.

An'anaga ko'ra xitoy tilshunosligida xitoycha bo'g'inlarni ikki qismga: boshlang'ich va oxirgi bo'g'inlarga bo'lish qabul qilingan.

Bosh (boshlang'ich) qismga faqat bo'g'in boshi undoshlar tegishlidir, qolgan barcha har qanday bo'g'inning tovushlari bo'g'inning oxirgi (yakuniy) qismiga kiritiladi.

Agar bo'g'in boshi undosh bo'lmasa, unda bu bo'g'in faqat oxirgi (yakuniy) qismdan iborat deb hisoblanadi; bu qismda doim bo'g'in hosil qiluvchi unli bo'lishi kerak.

Xitoycha bo'g'inlarni bo'g'in boshi va bo'g'in oxiri (yakuni) qismlarga bo'lishning bu an'anaviy prinsipini qo'llagan holda xitoy tilidagi barcha bo'g'inlarni jadvalda keltirish mumkin. Unda bo'g'in boshi undoshlar vertikal, bo'g'in oxiri qismlar esa – gorizontall joylashgan. Bo'g'in boshi undoshlar va bo'g'in oxiridagi qismlarning kesishi joyida ular yordamida hosil bo'ladigan bo'g'inlar keltirilgan.

Hozirgi zamon xitoy adabiy tilida 411 ta bo'g'in mavjud; bu son xitoy tili qo'llanmalarida qayd etilgan bo'g'inlar sonidan 10-11 ta bo'g'inga ko'proqdir.

#### *Nazorat uchun savollar:*

1. Eng kichik bo'g'inlar nechta tovushdan iborat?
2. Ikkita tovushdan iborat bo'g'inlar haqida aytib bering.
3. Uchta tovushdan tashkil topgan bo'g'inlar haqida bayon qiling.
4. To'rtta tovushni o'z ichiga olgan bo'g'inlar haqida gapirib bering.
5. Hozirgi zamon xitoy tilida nechta bo'g'in mavjud?

### III BOB

## XITOIY TILINING MORFEMIK TARKIBI

### 3.1. Xitoy tilida soʻz yasalishi

**Maqsad:** Xitoy tilidagi soʻz yasash usullari haqida tushuncha hosil qilish, xitoycha yasama soʻzlarning tarkibini tahlil etish, soʻz yasovchi vositalarni aniqlashni oʻrganish.

**Tayanch soʻz va iboralar:** affiks, suffiks, abbreviatura, konversiya, transkripsiya, kalka, aralash yasaliş.

Xitoy tilidagi soʻz yasashning quyidagi usullarini ajratib koʻrsatish mumkin:

#### 1. Affikslar yordamida soʻz yasash.

A) Ot (ismiy) suffikslar

B) Ikki ot (ismiy) suffiksli soʻzlar

V) Feʼliy yasaliş

#### 2. Aralash yasaliş

#### 3. Abbreviatura yoki murakkab qisqartirilgan soʻzlar

A) Qisqartirilgan uch tarkibli soʻz

B) Qisqartirilgan toʻrt tarkibli soʻz

V) Besh morfemadan tashkil topgan qisqartirilgan soʻz birikmasi

G) Olti va yetti morfemadan tashkil topgan qisqartirilgan soʻz

birikmasi.

D) Qisqartirilgan soʻz birikmasi, bir yoki shu maʼno qismida takrorlanadigan soʻzlar

#### 4. Konversiya orqali yasaliş.

#### 5. Chet tillardan oʻzlashtirilgan soʻzlar.

A) Transkripsiya yoʻli orqali oʻzlashtirish

B) Kalka yoʻli orqali oʻzlashtirish

#### 3.1.1. Affikslar yordamida soʻz yasaliş

Koʻp tarkibli (murakkab) soʻzlar oʻzakka affiks (suffiks, prefiks)larni qoʻshish orqali hosil boʻladi. Affiksatsiya xitoy tilida oʻzaklarni bir biriga qoʻshishga qaraganda kamroq rol oʻynaydi. Haqiqiy affikslar, masalan, butunlay maʼno anglatmaydigan morfema sifatida xitoy tilida juda kam uchraydi.

Xitoy tilida suffiksatsiyaning rivojlanishi soʻz yasalishi bilan ifodalanadi, bunda sifat va murakkab soʻzlardan ot suffikslar kelib chiqadi. Feʼl suffikslari esa murakkab natijaviy bogʻlanish bilan yasaladi.

Aniqlovchi turda soʻz ikkinchi komponent bilan ifodalanadi. Qadimiy matnlarda bunday soʻzlarni koʻp uchratishimiz mumkin. Jumladan, mavjudot nomi aniqlovchi aʼzosi sifatida yoki davlat soʻzida 人 rén “odam” ieroglifini oʻzakda qatnashishi orqali.

Zamonaviy tilda ham ushbu tarkibdagi soʻzlardan keng tarzda foydalaniladi:

北京人 běijīngrén «Pekinlik» (北京 běijīng «Pekin», 人 rén «odam»)

中国人 zhōngguó rén «xitoylik» (中国 zhōngguó «Xitoy»)

人 rén «odam» oʻzak soʻzi kasblar va boshqa soʻzlarni nomlashda ham keng qoʻllaniladi:

工人 gōngrén «ishchi» (工 gōng «ish, mehnat»)

农人 nóng rén «dehqon» (农 nóng «yerga ishlov bermoq»)

圣人 shèngrén «ruhoni» (圣 shèng «muqaddas»)

Murakkab soʻz tarkibida maʼlum bir turdagi maʼnoni ifodalovchi quyidagi sodda soʻzlar ikkinchi komponentlar sifatida ishlatiladi: 厂 chǎng «zavod»

灯 dēng «chiroq»

船 chuán «kema»

店 diàn «doʻkon, magazin»

病 bìng «kasallik»

党 dǎng «partiya»

场 chǎng «maydon»

室 shì «xona, hujra»

车 chē «arava»

部 bù «boʻlim»

局 jú «muassasa, byuro»

学 xué «ilm, taʼlimot»

树 shù «oʻsayotgan daraxt»

所 suǒ «joy, makon»

Daraxt nomlarida ikkinchi komponentga 树 shù «oʻsayotgan daraxt» soʻzini oʻzgartirmasdan qoʻshish orqali yasaladi:

松树 sōngshù «qarag'ay»,

杨树 yángshù «terak»,

橡树 xiàngshù «eman».

Ammo bu so'zlardagi asosiy ma'noni birinchi komponent ifodalaydi, 松 sōng, 杨 yáng, 橡 xiàng so'zlarining o'zi «qarag'ay», «terak», «eman» ma'nolarini beradi. Undan tashqari, narsalarning ma'nosini anglatadigan birinchi komponent so'zi ikkinchi komponent o'rnida formal sifatida ishlatiladi. U birinchidan, ikki morfemali so'zlar shaklida ishlatiladi. Masalan, 松 sōng, 杨 yáng, 橡 xiàng kabi hozirda mustaqil so'z sifatida ishlatilmaydigan so'zlar, ikkinchidan, bu so'zlar otga ko'rsatgich bo'lib xizmat qiladi. Yana so'z tarkibidagi boshqa formal rol ni xing «harakter, xususiyat» morfemasi amalga oshiradi.

党性 dǎngxìng «partiyaviylik» (党 dǎng «partiya»),

可能性 kěnéngxìng «imkoniyat» (可能 kěnéng «mumkin»),

阶级性 jiējìxìng «sinfiylik» (阶级 jiēji «sinf»),

组织性 zǔzhīxìng «tashkilotchilik» (组织 zǔzhī «tashkil qilmoq, tashkilot»)

性 xìng morfemasi rus tilidagi **-ost** suffiksiga to'g'ri keladi (masalan, «partiynost, vozmojnost, klassovost va boshqalar»).

Va nihoyat, so'z tarkibida suffiksning haqiqiy formal o'rnini 子 zǐ, 儿 ér morfemalari bajaradi. Bular ot suffikslari hisoblanib, yangi so'z hosil qilish va hozirgi zamonaviy tilda foydalanilmaydigan bir o'zakli so'z shaklini o'zgartirish uchun xizmat qiladi.

本子 běnzi «daftar» (本 běn «ildiz, tomir»),

胖子 pàngzi «semiz» (胖 pàng «qalin, semiz»),

桌 zhuō «stol» (桌 zhuō morfemasi mustaqil so'z sifatida ishlatilmaydi),

屋子 wúzi «xona» (mustaqil so'z o'rnida 屋 wú o'zak morfemasi og'zaki nutqda ishlatilmaydi).

子 zǐ va 儿 ér suffikslari shuningdek, ikkinchi komponent sifatida ulardan foydalanish natijasida mustaqil so'zlardan hosil bo'lgan.

O'z ma'no (ya'ni narsani anglatuvchi ma'no)sini butunlay yo'qotgan morfemalarga quyidagi morfemalar kiradi:

生 shēng – ba'zi kasblarni ifodalaydigan suffiks;

者 zhě – shaxsiyat va arboblarni ifodalaydigan suffiks;

家 jiā – aqliy (intellektual) kasblarni yasaydigan suffiks;

员 yuán – tashkilot a'zosi va arboblarni ma'nosini beradigan suffiks;

主义 zhǔyì – rus tilida **-izm** qo'shimchasiga mos keladigan suffiks.

Xitoy tili materiallarida “suffiks” va “yarim suffiks” rivojlanishini ot so'z turkumida kuzatishimiz mumkin. Har xil so'zlar so'z birikmasida ikkinchi komponent sifatida ishtirok etadi. Natijada, bu o'sish murakkab so'zlarda so'z elementlari tuzilishida aniqlovchi ko'rinishida sifat o'zgarishidan kelib chiqadi. Xitoy tilida otlarni yasash uchun suffiks va yarim suffikslardan foydalaniladi.

Ba'zi xitoy tili so'zlarida ikkita suffiksni uchratishimiz mumkin.

帝国主义者 diguózhǔyìzhě «imperialist» (主义 zhǔyì va 者 zhě suffikslari). Ot (ismiy) suffikslarning rivojlanishi so'zlarning aniqlovchi turi asosida bo'layotgan bo'lsa, xitoy tilidagi fe'liy suffikslarning rivojlanishiga esa natijaviy turdagi murakkab so'zlar xizmat qilib keladi. Tilda bir xil natijaviy morfema bilan birlashtirilgan fe'llar guruhi hosil bo'lishi bois, ushbu guruh fe'llaridagi tarkibiy qismlarning mutanosibligi qayta ko'rilib chiqadi.

Birinchi tarkibiy qism so'z o'zagining asl (haqiqiy) ma'nosini saqlab qoladi, ikkinchi qism esa yordamchi unsur (element)ga aylanadi va birinchi, asosiy morfemaga aniqlik kiritadi.

O'z ma'nosini to'la yoki qisman yo'qotib, fe'llar elementlariga aylangan natijaviy morfemalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

见 jiàn (dastlabki ma'nosi: «ko'rmoq»), 住 zhù (dastlabki ma'nosi: «to'xtamoq»), 着 zhe (dastlabki ma'nosi: «tegib turmoq»), 到 dào (dastlabki ma'nosi: «yetishmoq»), 开 kāi (dastlabki ma'nosi: «ochmoq»), 成 chéng (isxodnoe dastlabki ma'nosi: «kimdir bo'lmoq, tayyor»).

听见 tīngjiàn «eshitmoq» (听 tīng «tinglamoq»)

碰见 pèngjiàn «to'satdan uchratmoq» (碰 pèng «to'qnashmoq»)

记住 jìzhu «eslab olmoq» (记 jì «eslamoq, xotiralamoq»)

拿住 nǎzhu «olmoq» (拿 nǎ «olmoq»)

摸着 mōzhe «paypaslab topmoq» (摸 mō «paypasamoq»)

咬着 yǎozhe «tishlab olmoq» (咬 yǎo «tishlamoq»)

找到 zhǎodào «topib olmoq» (找 zhǎo «qidirmoq»)

买到 mǎidào «sotib olmoq» (买 mǎi «sotib olmoq»)

分开 fēnkāi «ajrab chiqmoq» (分 fēn «bo'lmoq»)

切开 qiekai «kesib olmoq» (切 qie «kesmoq»)

写成 xiecheng «yozib olmoq» (写 xie «yozmoq»)

做成 zuocheng «qilib bo'lmoq» (做 zuo «qilmoq»)

Ushbu fe'llardagi ikkinchi morfemalar asosiy morfemalarga yangi leksik ma'noni qo'shmaydi, faqatgina ish-harakatning amalga oshirilib bo'lganligi, natijaga erishilganligi haqida umumiy grammatik ma'noni ifodalaydi. O'z ma'nosini saqlab qolgan natijaviy morfemalar odatiy urg'usini bu yerda yo'qotadi.

Natijaviy-yo'naltirilgan fe'llarda zamon turlari suffikslarining huddi shunga o'xshash hosil bo'lishi va rivojlanishi jarayoni kuzatiladi, ularda 来 lai, 去 qu, 进来 jinlai, 进去 jinqu va boshqa suffikslar natijani ifodalash bilan birga harakatning yo'naltirilishini ham ifodalaydi.

### 3.1.2. Aralash yasaliş

Aralash yasaliş – bu ko'p tarkibli so'zlar bo'lib, murakkab so'z va so'z yasaliş suffiksidan iborat bo'ladi, masalan: 人民性 renmingxing – xalqchilik, (人民 renming xalq + 性 xing suffiksi).

### 3.1.3. Abbreviatura yoki murakkab qisqartirilgan so'zlar

Hozirgi zamon xitoy tilida yangi so'zlar, ayniqsa atama (termin)-larning kattagina qismi bevosita o'zaklarni qo'shish orqali hosil bo'ladi. 阅报室 yuebaoshi «qiroatxona» (阅 yue «ko'rib chiqmoq», 报 bao «ro'znoma, gazeta», 室 shi «xona»), 实验室 shiyanshi «laboratoriya» «实验 shiyan «tajriba o'tkazmoq», 室 shi «xona») kabi so'zlar ilgari so'z birikmalari sifatida qo'llanilmagan va keyinchalik tilda ishlab chiqarilgan so'z yasaliş modellari orqali hosil bo'lgan.

Xitoy tilida yangi so'zlarni yasash bilan bir qatorda murakkab so'zlar va birikmalarning qisqartirish usuli ham keng tarkalgan. Buning natijasida tilda mavjud bo'lgan so'z yasaliş modellariga javob beradigan murakkab qisqartirilgan so'zlar hosil bo'ladi. Ko'p tarkibli so'z va so'z birikmalarini soddalashtirish – lug'aviy tarkibning amaldagi ob'ektiv tirik jarayon bo'lib hisoblanadi va leksik birliklarning qisqa lo'nda va turg'un bo'lishiga xizmat qiladi.

**Uch tarkibli so'zlarning qisqartirilishi** nisbatan kam uchraydi, chunki uchta morfemadan iborat bo'lgan so'zlar xitoy tiliga xos

hodisadir. Ba'zan shunday so'zlarning bitta morfemasi tushirilib qoldirilgan ko'rinishi qo'llaniladi. Masalan, 射击手 shijishou «o'qchi» 射手 shishou ko'rinishgacha qisqartiriladi, 防御线 fangyuxian «himoya chizig'i» 防线 fangxian shaklgacha qisqartiriladi. Ushbu so'zlarda birinchi morfemalarning sinonimlari bo'lmish ikkinchi morfemalari tushib qoladi, buning natijasida so'zdagi tarkibiy qismlarida ma'no mutanosibliigi saqlanib qoladi.

To'rt tarkibli so'zlarning qisqartirilishi uch tarkibli so'zlarning qisqartirilishiga qaraganda ko'proq uchraydi, natijada ikkimorfemali so'zlar hosil bo'ladi. Masalan, 政权 zhengquan «siyosiy hokimiyat» so'zi 政治权力 zhengzhiquanli so'zidan hosil bo'ladi, 政委 zhengwei «komissar» 政治委员 zhengzhiweiyuan so'zidan yasaladi.

Yuqoridagi so'zlarda ikkinchi va turtinchi morfemalar tushib qoldirilgan, biroq, boshqa morfemalar ham tushirilib qoldirilishi mumkin: ikkinchi va uchinchi, birinchi va to'rtinchi va h.k.

Besh tarkibli so'zlarning qisqartirilishi natijasida ikki morfemali so'zlar hosil bo'ladi. Masalan:

中国共产党 zhongguogongchandang o'rniga 中共 «Xitoyning Kommunistik partiyasi» so'zi hosil bo'ladi.

Ko'pincha uchta morfemadan iborat bo'lgan so'zlar yasaladi:

支部委员会 zhibuwei yuanhui so'zidan 支委会 zhiweihui «partiya byurosi» so'zi, 水力发电站 shuilifadianzhan so'zidan 水电站 shuidianzhan «gidroelektrostansiya» so'zi hosil bo'ladi.

Olti morfemali so'z birikmalari odatda uchta so'zdan iborat bo'ladi. Ko'pincha qisqartirish natijasida birinchi ikkita so'zdan bittadan morfema tushirilib qoldiriladi, oxirgi so'z saqlanadi:

军事政治学校 junshizhengzhixuexiao so'zidan 军政学校 junzhengxuexiao «harbiy-siyosiy bilim yurti» so'zi hosil bo'ladi.

Ba'zan birinchi so'z saqlanib qolib, oxirgi ikkitasidan bittadan morfema tushib qoladigan holatlar ham uchraydi:

世界职工联盟 shijiezhigonglianmeng so'zidan 世界职联 shijiezhilian «Kasaba uyushmalarining Butunjahon Federatsiyasi» so'zi qoladi.

Yetti va undan ortiq morfemalardan iborat so'z birikmalari ham qisqartirilishi mumkin:

世界学生们联合会 shijixueshenglianhui so'zidan 世界学联 shijixuelian «Butunjahon talabalar kongressi» so'zi hosil bo'ladi.

Bir xil ma'noga ega qismi takrorlangan so'z birikmalarning qisqartirilishi o'ziga xos bir hodisa hisoblanadi. Mashhur bo'lgan «uchta yomonlik (ofat)ga qarshi harakat», «beshta yomonlik (ofat)ga qarshi harakat» va boshqa matbuotda keng qo'llaniladigan atamalar xitoy tilida shunday yasaladi: so'z birikmani tashkil qiluvchi so'zlardan faqat takrorlanayotgan qismi ishlatiladi va uni oldiga qancha so'zlar birga kelatganiga ishora qiluvchi son qo'yiladi. Qolgan morfemalar tushirilib qoldiriladi. Masalan, Sun Yatsenning 三民主义 sanminzhuyi «uchta xalq prinsiplari» so'zi quyidagi so'zlarning qisqartirmasi hisoblanadi:

民族主义 minzuzhuyi «millatchilik prinsipi», 民权主义 minquanzhuyi «demokratizm prinsipi», 民生主义 minshengzhuyi «xalq farovonligi prinsipi».

Ushbu uchta so'zning qayta takrorlanayotgan qismi 民 min, 主义 zhuyi olinga, birinchi morfema 三 san «uch» qancha so'z birlashtirilganiga ishora qiladi. 三反 sanfan so'zi (so'zma-so'z: «uchtalik qarshi» ma'nosiga ega bo'lib), quyidagi ma'noda ishlatiladi: «korrupsiya, isrofgarchilik va byurokratizmga qarshi kurash» (反贪污 fantanwu, 反浪费 fanlangfei, 官僚主义 guanliaozhuyi).

Murakkab tarkibli so'zlarning qisqartirilishi natijasida murakkab qisartirilgan so'zlar hosil bo'ladi, ular o'zaklarning qo'shilishi orqali yasalgan oddiy murakkab so'zlardan farq qiladi, chunki aniq ko'rinib turadigan komponentlar mutanosibligiga ega bo'ladi.

To'liq so'z birikmalarining tarkibiy qismlari o'zining dastlabki ma'nolarida emas, balki ancha o'zgargan ma'nolarda qo'llanilishi mumkin. Ma'lum bir morfemaning tushirilib qoldirilishi ayrim bir noaniqlikka olib keladi. Odatda morfemalar ma'nosini sodda qo'shishdan murakkab qisqartirilgan so'z ma'nosini aniqlash qiyin bo'ladi. Bunday so'zning turg'un bo'lishi ko'pincha uning doimiy qo'llanilishiga bog'liq bo'ladi.

Murakkab qisqartirilgan so'zlar shaklan tarkibi bir turda bo'lgan oddiy murakkab so'zlar bilan o'xshash bo'lsada, aksariyat holatlarda murakkab ma'nolarni ifodalaydi.

Murakkab qisqartirilgan so'zlar o'ziga mos keladigan to'liq so'z birikmalari bilan bir qatorda qo'llaniladi. Zarurat tug'ilganda og'zaki va yozma muomalada to'liq so'z birikmalari ishlatilishi ham mumkin.

Ko'pincha murakkab qisqartirilgan so'z o'zining mos keladigan to'liq shaklini muomaladan chiqarib yuboradi, shunda uning to'liq shaklini faqat ma'lumot beruvchi materiallar yordamida tiklash mumkin bo'ladi.

### 3.1.4. Konversiya orqali hosil bo'lgan yasaliqlar

Xitoy tilida konversiya deb nomlanuvchi so'z yasaliqlari keng tarqalgan. Yangi so'z bir so'z turkumidan ikkinchi so'z turkumiga o'tish yo'li bilan hosil bo'ladi.

Misol tariqasida rus tilidagi “pech” (rus uylarida ovqat va non pishiradigan tandir sifat qurilma) – otni va “pech” (yopmoq, pishirmoq /nonni/) – fe'lni keltirish mumkin. Shu kabi so'zlar o'zlarining lug'aviy dastlabki (ya'ni “nolinchi”) shakllarida o'xshash bo'lib, boshqa grammatik shakllarda farq qiladi. Masalan, “pech” ot sifatida son va kelishiklar bo'yicha: “pech – pechi, pechey, na pechi”, “pech” fe'li zamon va shaxs bo'yicha: “peku, pechyosh, pekla, pekli” kabi o'zgarishlarni kuzatishimiz mumkin.

Xitoy tili uchun konversiya orqali ko'pgina fe'llar, fe'ldan yasalgan (harakat) nomlar hosil bo'lishi xos hodisa. Hosil bo'lgan shakllar lug'atdagi dastlabki shakl bo'yicha bir xil bo'lib, grammatik funksiyalari bo'yicha bir biridan anchagina farqlanadi.

Qiyoslaymiz: 讨论 taolun «muhokama qilmoq» va 讨论 taolun «muhokama qilish», 发音 fayin «talaffuz qilmoq» va 发音 fayin «talaffuz qilish» va h.k.

### 3.1.5. Chet tillaridan o'zlashtirishlar

Xorijiy so'zlarning Xitoy kirib borishining birinchi sezilarli jarayoni eramiz birinchi asrida mamlakatda buddizmning tarqalishi bilan boshlangan, ayniqsa, IV – IX asrlarda bu jarayon juda ham jadal sur'atlarda amalga oshgan. Hindistonlik buddaviy monax (ruhoniy)lar xitoy tiliga sanskrit tilidan buddaviy adabiyotni tarjima qilishgan, va'z (nasihat)lar qilishgan va shu orqali ko'pgina sanskrit so'zlarining xitoy tilida tarqalishiga va saqlanib qolishiga ko'mak qilishgan. Odatda bu jarayon davomida ko'p tarkibli so'zlar xitoy tilida ikki tarkibli so'zlar ko'rinishigacha qisqartiriladi.

Ba'zan transkripsiyaga uchragan so'zning bo'g'inlaridan biriga ma'no berilar edi. 婆罗门 poluomen «braxmanizm» so'zida 门 men

shaklida yozilgan oxirgi bo'g'in «maktab, sekta, oqim» ma'nosiga ega bo'ldi. Huddi shu prinsipda 佛经 fojing «buddaviy klassiklar» so'zida oxiridagi 经 jing bo'g'in «kanon, qoida» ma'nosini anglatadi.

Mo'g'ul va manchjurlar ta'siri xitoy leksikasida uncha katta bo'lmagan iz qoldirgan; asosan mansabdor shaxslar nomini ifodalovchi bir nechta so'zlar saqlanib qoldi:

张均科 zhangjunke «lashkarboshi, sarkarda» (mo'g'ulcha: Chjasak).

Boshqa tilarga qaraganda ingliz tilidan o'zlashtirilgan so'zlarning soni ko'proq.

Ingliz tilidan yoki shu til orqali xitoy tiliga ko'pgina ilmiy va texnik atamalar hamda ba'zi maishiy so'zlar kirib kelgan:

引颈 yinjing «dvigatel» (ingl. engine), 维他命 weitaming «vitamin» (ingl. vitamin), 吉普jipu «djip, villis» (ingl. jeep).

Ba'zi so'zlarda fonetik va ma'noviy prinsiplar bir vaqtning o'zida namoyon bo'ladi:

摩托车 motuoche «mototsikl» (ingl. motor-cycle).

Ushbu so'zning birinchi qismi (motor) transkripsiyada berilgan, oxirgi qismi (cycle) esa tarjima qilingan, natijada «motoarava» ma'nosini anglatuvchi so'z hosil bo'ldi.

冰淇淋 bingqilin «muzqaymoq» (angl. ice cream).

Bu so'zda ingliz so'zning birinchi qismi (ice) 冰bing «muz» so'zi bilan tarjima qilingan, ikkinchi qismi (cream) – 淇淋qilin transkripsiya orqali berilgan.

拖拉机 tuolaji «traktor» (ingl. tractor) so'zida transkripsiya quyidagicha berilgan: «tortuvchi mashina» 拖拉 tuola «tortmoq», 机ji «mashina».

Transkripsiya yo'li orqali boshqa yevropa tillaridan ham o'zlashtirilgan so'zlar uchrab turadi.

XX asrning boshiga qadar rus tilidan o'zlashtirilgan so'zlar maishiy turmushga oid, asosan Xitoyning shimolida ierogriflar bilan ifodalanmagan, lekin og'zaki nutqda ishlatiladigan so'zlar bo'lgan, masalan:

和列巴 helieba «non», 伏特加 futejia «vodka, aroq» va boshqalar.

Oktabr to'ntarishidan keyin ham xitoy tili rus tilidan so'pgina so'zlarni o'zlashtirib borgan. 1925-1927-yillarda Xitoyda tashkil topgan partiya apparati va sovet hokimiyatining tarkibotlariga oid barcha atamalar o'zlashtirilgan edi. Biroq rus tilidan o'zlashtirilgan so'zlar-

ning aksariyati kalka orqali kirib kelgan. Faqatgina oz miqdordagi so'zlar xitoy tiliga transkripsiya yoramida kirib kelgan:

苏维埃 suwei'ai «sovetlar», 习明纳尔 ximingnaer «seminar»

Kalka (so'zning bo'laklari bevosita tarjimasi) yo'li orqali o'zlashtirilgan so'zlarning soni anchagina: 马克思主义 makesizhuyi «marksizm», 列宁主义 lieningzhuyi «leninizm», 政治部 zhengzhibu «siyosiy bo'lim», 自我评ziwoping «o'zini tanqid qilish».

Kalka yo'li bilan bir qatorda xitoy tilida xorijiy so'zlarni tarjima qilish keng tarqalgan. Ushbu usul xorijiy chet tilidagi so'z anglatayotgan ma'noni to'liq va aniq ifodalash uchun qo'llaniladi, masalan: «proletariat» - 无产阶级 wuchangjieji so'zma-so'zma: «阶级jieji mulkchilikka ega bo'lmagan sinf».

### Nazorat uchun savollar:

1. Affiksatsiya yordamida so'z yasashini tushuntirib bering.
2. Qanday ot (ismiy) suffikslarni bilasiz?
3. Qanday fe'liy suffikslarni bilasiz?
4. Uch tarkibli so'zlarning qisqartirilishi qanday bo'ladi?
5. To'rt tarkibli so'zlarning qisqartirilishi haqida gapirib bering.
6. Aralash yasash haqida gapirib bering.
7. Beshta morfemadan iborat so'zlarning qisqartirilishi haqida bayon qiling.
8. Olti va yettita morfemadan iborat so'zlar qanday qisqartiriladi?
9. Morfologik konversiya nima degani?
10. Chet tillaridan o'zlashtirilishlar haqida gapirib bering.
11. Kalka usuli yordamida o'zlashtirish qanday bo'ladi?
12. Transkripsiya orqali o'zlashtirish qanday amalga oshiriladi?

### 3.2. Xitoy tilida so'z yasash modellari (tarkibiy tavsif)

**Maqsad:** Xitoy tilidagi so'z yasash modellari haqida ma'umot berish, xitoycha yasama so'zlarning qaysi model asosida hosil qilinganligini aniqlashga o'rgatish.

**Tayanch so'z va iboralar:** *aniqlovchi tur, kapulyativ tur, to'ldiruvchi tur, natijaviy tur, predikativ tur.*

Murakkab soʻzning grammatik xususiyatlari leksik birligining soʻz yasash modeli bilan bogʻliq boʻladi. Murakkab soʻzning grammatik xususiyatlari koʻpincha soʻz yasash strukturasi bilan belgilanadi.

Soʻzlarning har bira leksik-grammatik sinfi (u yoki bu soʻz turkumi) unga xos boʻlgan soʻz yasash modellari yigʻindisiga ega boʻladi.

Xitoy tili hozirgi zamon leksikasi oʻzining tarkibi va maʼnoviy unsurlari (morfemalar) mutanosibligi bilan koʻpgina xilma-xil turlarni shakllantiradi. Tarkibi boʻyicha eng sodda soʻzlar – bu yasama boʻlmagan, bitta oʻzak morfemasidan iborat boʻlgan soʻzlardir, masalan:

人 rén «odam», 水 shuǐ «suv», 山 shān «togʻ», 马 mǎ «ot», 来 lái «kelmoq», 走 zǒu «kemoq», 作 zuò «qilmoq», 多 duō «koʻp», 少 shǎo «kam», 大 dà «katta», 小 xiǎo «kichkina», 我 wǒ «men», 你 nǐ «sen», 他 tā «u» va boshqalar. Bu soʻzlarning hammasi bir boʻgʻinli boʻlib, xitoy tili lugʻaviy fondining eng qadimgi, turgʻun qismiga taalluqlidir.

Yasama boʻlmagan soʻzlarning ikkinchi turini ikki boʻgʻinli etimologiyasiz soʻzlar tashkil qiladi, masalan:

若干 ruògān «shuncha, maʼlum miqdor», 工夫 gōngfu «vaqt, boʻsh vaqt», 东西 dōngxī «narsa, predmet», 玻璃 bōli «shisha», 萝卜 luóbo «turup».

Mazkur soʻzlarning umumiy xususiyati shundaki, ularni tashkil qiluvchi ierogliflar maʼnosidan butun soʻzning maʼnosini chiqarib boʻlmaydi. Masalan, 东西 dōngxī «narsa, predmet» soʻzi va 东 dōng «sharq» hamda 西 xī «gʻarb» ierogriflari oʻrtasida qanday bogʻliqlik borligi tushunarsiz boʻlib qolmoqda. Ehtimol, dastlabki davrda oʻzagi ikki boʻgʻinli bu soʻz va uni tashkil qiluvchi ierogliflar soʻzning maʼnoviy unsurlari tarkibiga emas, balki faqatgina talaffuziga ishora qilar edi.

工夫 gōngfu «vaqt, boʻsh vaqt», (工 gōng «ish», 夫 fu «ishchi, erkak») soʻzlaridagi hamda 若干 ruògān «shuncha, maʼlum miqdor» (若 ruò «singari, agarda», 干 gān «qalqon, himoya qilmoq») soʻzlaridagi ierogliflar tarkibining sabablari ham tushunarsiz boʻlib kolmoqda.

Hozirgi zamon xitoy tilida etimologiyasi (yaʼni kelib chiqishi) boʻlmagan ikki boʻgʻinli soʻzlarning soni juda oz.

Zamonaviy xitoy tilida etimologik boʻlmagan murakkab soʻzlar koʻp morfemali yasalgan soʻzlarga qaraganda kam. Biroq aynan shu soʻzlar soʻz yasashida asosiy oʻrinni egallaydi. Mustaqil qoʻllaniluvchi

bir morfemali soʻzlardan tashqari zamonaviy xitoy tilida mustaqil qoʻllanishi kam boʻlgan murakkab soʻzlarning tarkida keladigan soʻzlar ham koʻp. Misol uchun: 队 duì otryad soʻzi mustaqil ravishda deyarli qoʻllanilmaydi. Bu ieroglif bilan birga turli xil koʻp morfemali soʻzlar qoʻllaniladi. Misol uchun: 游击队 yóujīduì partizan otryadi, 劳动队 láodòngduì mehnatkashlar otryadi, 卫生队 wèishēngduì sanitar otryadi.

Yana 场 chǎng maydon soʻzi soʻz birikmalarining tarkibida qoʻllaniladi. 红场 hōngchǎng qizil maydon (红 hōng «qizil»), 飞机场 fēijīchǎng aerodrom (飞机 fēijī «samolyot»), 运动场 yúndòngchǎng sport maydoni (运动 yúndòng «sport»). Ammo, maydon mustaqil ravishda zamonaviy xitoy tilida 场 chǎng bir oʻzi emas balki, ikki morfemalari 广场 guǎngchǎng maydon (广 guǎng «keng», 场 chǎng «maydon») bilan ifodalaniadi. Bunday yarim mustaqil bir morfemali soʻzlar zamonaviy xitoy tilida ancha koʻp. Ular yangi soʻz va soʻz birikmalarini hosil qilishda katta rol oʻynaydi.

Baʼzi yarim mustaqil soʻzlar 子 zǐ suffiksi bilan qoʻllaniladi. Hech qanday leksik maʼno anglatmasi ham, faqatgina maʼlum bir formani yasaydi. 男 nán erkak, 女 nǚ ayol 村 cūn qishloq, 屋 wū xona odatda ikki morfemali shaklda qoʻllaniladi 男子 nánzi, 女子 nǚzi, 村子 cūnzi, 屋子 wūzi.

Yasalgan soʻzlar quyidagi semantik tarkib boʻyicha yasash xususiyatiga ega:

1. Murakkab soʻzlar – ikki yoki undan ortiq soʻzlar
2. Affiks orqali yasalgan soʻzlar
3. Aralash yasalgan soʻzlar
4. Abbreviatur yoki murakkab qisqartmali yasalgan soʻzlar.
5. Konversiya orqali yasalgan soʻzlar
6. Murakkab oʻzakli soʻzlar – xitoy tilida eng keng tarqalgan va soʻz yasashida eng koʻp qoʻllaniladigan usul.

Bu haqda yuqorida batafsil toʻxtaldik. Murakkab soʻzlarning tarkibidagi oʻzaklarning tuzilishi maʼlum bir struktura orqali amalga oshadi. Soʻzlardagi oʻzak tuzilishi boʻyicha har bir soʻz quyidagi 5 turdan biri orqali yasaladi:

1. Aniqlovchi tur.
2. Kapulyativ tur
3. Toʻldiruvchi tur



4. Natijaviy tur
5. Predikativ tur.

### 3.2.1. Aniqlovchi tur

Bu tur bo'yicha ot, sifat, fe'l, ravish so'z turkumiga oid so'zlar yasaladi.

Hosil bo'lgan so'zlarda aniqlovchi va aniqlanmish bo'ladi.

火车 huǒchē «poezd» (火 huǒ «olov», 车 chē «mashina»;  
so'zma-so'z: «olovli arava»).

汽车 qìchē «avtomobil» (汽 qì «bug', gaz», 车 chē «arava»;  
so'zma-so'z: «bug'li arava»).

Bu turdagi so'zlarning tarkibiy qismlari sifatida sifat, haraka va predmetlarning nomlarini ifodalovchi o'zakli morfemalar kelishi mumkin. Masalan, quyidagi morfemalar sifat ma'nosini va predmet ma'nosini anglatuvchi morfemalarni birlashtirish orqali yasalgan:

白菜 báicài «karam» (白 bái «oq», 菜 cài «sabzavotlar»), 黑人 hēirén «negr, habash» (黑 hēi «qora», 人 rén «odam»)

Ko'pgina so'zlarda morfemalar predmet ma'nosiga ega:

工厂 gōngchǎn «zavod» (工 gōng «ish», 厂 chǎn «korxon»)»

药饭 yàofàn «dorixon»)» (药 yào «dori», 饭 fàn «uy, xona, bino»)

Ko'pincha boshqa morfemalar ham uchraydi, masalan, harakat plyus predmet ma'nosini anglatuvchi morfemalar:

飞鸟 fēiniǎo «qushlar»)» (飞 fēi «uchmoq», 鸟 niǎo «qushlar»),  
走狗 zǒugǒu «malay, uy xizmatkori»)» (走 zǒu «yurmoq», 狗 gǒu «it»).

So'z ichidagi ildiz (o'zak)larning bog'lanishida aniqlovchi tur so'z yasalishidagi eng muhimlaridan sanalib, u orqali ko'pgina yangi so'z va yangi atama (termin)lar hosil bo'ladi.

### 3.2.2. Kapulyativ tur

Bu model orqali ot, sifat, fe'l kabi so'z turkumlariga oid so'zlar yasaladi, bunda so'zlar teng munosabatda bo'ladi.

父母 fumu «ota-ona»)» (父 fu «ota», 母 mu «ona»)

土地 tudi «yer»)» (土 tu «tuproq», 地 di «yer»)

Bu turdagi aksariyat so'zlar sinonim morfemalarning birlashtirishi orqali yasaladi:

朋友 pengyou «do'stlar»

妇女 funü «ayollar»

Qator so'zlar antonim morfemalarning birlashtirishi bilan hosil bo'ladi:

多少 duoshao «qancha?»)» (多 duo «ko'p», 少 shao «kam»)

天地 tiandi «olam, koinot»)» (天 tian «osmon», 地 di «yer»)

Ba'zan bu turdagi so'zlar bitta morfemani takrorlash yo'li bilan yasaladi:

爸爸 baba «ota»), 哥哥 gege «aka»), 弟弟 didi «uka»)

Murakkab so'zlarning bog'lash yo'li bilan yasalashi xitoy tili tarixining ilk davrlarida keng tarqalgan edi. Oxirgi yuz yilliklar davomida bu usul o'z samaradorligini ancha yo'qotdi.

Hozirgi zamon xitoy tilida ot (isimiy) o'zaklarining takrorlanishi ko'plikni ifodalash uchun qo'llaniladi: 人人 renren «har bir, barcha odamlar»), 件件 jianjian «har ish, hamma ishlar».

Fe'liy o'zaklarning takrorlanishi harakatning qisqa muddatligiga ishora qiladi: 看看 kankan «bir boqmoq»), 说说 shuoshuo «suhbatlashmoq».

Sifatlarning takrorlanishi ravish so'z turkumi yasab hosil bo'lgan so'zlar o'zidan keyin 地de suffiksini talab qiladi.

快 kuai «tez»), 快快地 kuaikuaide «tez»)» (ravish)

好 hao «yaxshi»), 好好地 haohaode «yaxshi»)» (ravish)

### 3.2.3. To'ldiruvchi tur

Bu tur orqali yasalgan so'zlar odatda fe'l so'z turkumiga oid bo'ladi. Bu so'zlarning ba'zilar ot so'z turkumiga oid bo'ladi. Bu tur fe'l-ob'ektlilik bo'lib, birinchi komponent harakatga, ikkinchi komponent otga yo'nalgan bo'ladi.

努力 nuli «harakat qilmoq»)» (努 nu «kuchanmoq»), 力 li «kuch»),  
吃饭 chifan «yemoq»)» (吃 chi «yemoq»), 饭 fan «ovqat»)

看书 kan shu «o'qimoq»)» (看 kan «qaramoq»), 书 shu «kitob»)

Birinchi (fe'liy) morfemaning ob'ekt o'rtasidagi ma'no mutanosibliigi turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, 投 tou «otmoq, tash-

lamoq» fe'li 漂 piao «bilet, chipta», 河 he «daryo», 诚 cheng «sadoqat, vafo» kabi so'zlari bilan murakkab ma'nolarni anglatadi:

投票 tou piao «ovoz bermoq», so'zma-so'z: «bilet, chiptani otmoq»

投河 tou he «daryoga tashlanmoq», bu yerda harakatning yo'naltirilishiga ishora qilinadi.

投诚 tou cheng «sotqinlik qilmoq, hiyonat qilmoq», so'zma-so'z: «sadoqatni qoldirmoq (otmoq, tashlamoq)».

Ushbu model bo'yicha nafaqat fe'llar, balki otlar ham yasaladi, masalan: 革命 geming «inqilob (revolyusiya)» (革 ge «o'zgartirmoq», 命 ming «hayot»)

Xitoy tilining umumiy leksikasida fe'l-ob'ekt turdagi so'zlar uzoq bo'lmagan o'tmishda taxminan 16 foizni tashkil qilgan, biroq oxirgi ikki yuz yil davomida bu foiz ancha kamaydi. Fe'l-ob'ekt turdagi so'z yasalanishning past samaradorligi hozirgi zamon xitoy tilida shu yo'l orqali yasalanadigan so'zlarning mustahkam bo'lmagan konstruksiyasi bilan bog'liq. Shuning natijasida bunday so'zlar yangi so'zlar – atama (termin)lar sifatida xizmat qilishga qo'lay bo'lmaydi.

### 3.2.4. Natijaviy tur

Bu tur orqali hosil qilingan barcha murakkab so'zlar asosan fe'lni ifodalaydi. Ulardan bir nechta sintaksis transpozisiya tartibida otlarga xos funksiyalarni bajaradi.

Natijaviy bog'lanish – so'z komponentlaridan birinchisi har doim fe'l, yakuni fe'li yoki sifatli komponent so'z bo'lib, o'zida harakatning natijasi va harakatini ifodalaydi.

Birinchi so'z komponenti tuzilishi istak, niyatni ifodalaydi, ikkinchi komponent esa, shu istakning natijasini ko'rsatadi. Masalan, 推翻 tuifan «yiqitmoq, ag'darmoq» so'zida morfema ma'no va grammatik jihatdan bog'liqdir, ya'ni, «itarib yiqitmoq» (推tui «itarmoq», 翻fan «ag'darmoq, yiqitmoq»). 说明 shuoming «tushuntirmoq» so'zida birinchi morfema 说shuo gapirish harakatini, ikkinchi morfema 明ming sifatni: «aniq», «tushunarli» ma'nosini ifodalaydi. Bu so'z qismlaridan tushunarli qilib gapirmoq degan ma'no anglashiladi.

Ikkinchi (natijaviy) komponent o'rnida ham morfema, ham sifatni ifodalaydigan morfema qo'llanishi mumkin. Ikki morfemali quyidagi misollarda harakat ifodalangan:

制定 zhiding «ishlab chiqarmoq» (制zhi «yaratmoq» 定ding «aniqlamoq»).

打破 dapo «sindirmoq» (打da «urmoq», 破po «sindirmoq, buzmoq»).

Quyidagi misollarda, ikkinchi morfemadagi so'z sifatni ifodalaydi:

炸坏 zhahuai «portlatmoq, vayron qilmoq» (炸zha «portlatmoq» 坏huai «yomon»).

订正 dingzheng «to'g'rilamoq» (订ding «tuzatmoq» 正zheng «to'g'ri»).

Bir morfema ikkinchi komponentning o'rniga ishtirok etadigan natijaviy tur so'zlar ko'pchilik qatorni tashkil etadi. Masalan, 破po «sindirmoq, yirtmoq» morfemasi bilan yasalgan so'zlar qatori:

打破 dapo «teshmoq» (打da «urmoq»)

磨破 mopo «yo'qotmoq» (磨mo «yo'qotmoq»)

撞破 zhuangpo «sindirmoq, teshmoq» (撞zhuang «urmoq, zarba bermoq»)

穿破 chuanpo «ko'ylak, oyoq kiyim kiyimoq» (穿chuan «kiymoq»)

死si «o'lmoq» morfemasi bilan yasalgan so'zlar qatori:

压死 yasi «yanchib tashlamoq» (压ya «qismoq»)

淹死 yansi «cho'kmoq» (淹yan «botmoq»)

扼死 yisi «bo'g' ilmoq» (扼yi «osilmoq»)

打死 dasi «o'lgunicha urmoq» (打da «urmoq»)

杀死 shasi «o'ldirmoq» (杀sha «o'ldirmoq»)

饿死 esi «ochidan o'lmoq» (饿esi «och qolmoq»)

Natijaviy tur so'zlarida ikkinchi komponentning semantik qo'lingan qatorlari, jumladan, 开kai «ochmoq, ajratmoq», 见jian «ko'rmoq», 住zhu «to'xtamoq» kabilari:

拉开 lakai «tortib olmoq» (拉la «tortmoq»)

离开 likai «vaqtincha yo'q bo'lmoq» (离li «g'oyib bo'lmoq»)

放开 fangkai «chiqarmoq» (放fang «chiqarmoq»), 推开 tuikai «itarib tashlamoq» (推tui «itarmoq»)

看见 kanjian «ko'rib qolmoq» (看kan «qaramoq»), 听见 tingjian «eshitmoq» (听ting «tinglamoq»)

找见 zhaojian «topmoq» (找 zhao «izlamoq, qidirmoq»), 撞见 zhuangjian «duch kelmoq, uchratmoq» (撞 zhuang «urmoq»)

记住 jizhu «eslab qolmoq» (记 ji «eslamoq, xotiralamoq»)

抓住 zhuazhu «ushlab olmoq» (抓 zhua «ushlamoq»), 捆住 kunzhu «bog'lamoq» (捆 kun «bog'lamoq»)

包住 baozhu «quchoqqa olmoq» (包 bao «quchoqlamoq»)

Natijaviy bog'lanishda mavjud bo'lgan so'zlar ko'pgina adabiy yodgorliklarda qayd etilgan, jumladan, "Shiszing" kitobida.

Zamonaviy xitoy tilida natijaviy tur orqali yasalgan so'z birikmasi juda mahsuldor hisoblanadi. Konstruksiyaviy birikmalardan hosil qilingan bu usuldagi so'zlar yangi so'z terminlarini yasashda ulardan keng foydalanishga imkon beradi.

### 3.2.5. Predikativ tur

Har xil kategoriyaviy modellar bo'yicha murakkab morfema natijasida tashkil topgan so'z bu turga kiradi.

Subekt-predikat aloqasi – so'zning tarkibiy qismi ega va kesim o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Masalan:

年轻 nianqing «yoshlar» (年 nian «yil», 轻 qing «yengil»)

耳聋 erlong «kar, kar bo'lmoq» (耳 er «quloq», 聋 long «kar»)

头疼 touteng «bosh og'rig'i» (头 tou «bosh», 疼 teng «og'rimoq»)

Bu tur kam mahsuldor va xitoy tili so'z yasalişida kam rol o'ynaydi.

Ba'zi murakkab so'zlar boshqa so'z shakllari leksikalizatsiyasi natijasida yuzaga keladi. Masalan:

马上 mashang «darhol, hozir» (etimologik: "ot ustida").

一下子 yixiazi «tezda, bir urinishda» (etimologik: "bir zarbada").

家里 jiali «uy» (etimologik: "oilada").

Ikki yoki undan ortiq morfemadan tashkil topgan murakkab so'zlar, qoidaga ko'ra, atributiv bog'liqlikni tashkil qilib, aniqlovchi o'rnida odatda ikki morfemali murakkab so'zlar ishlatiladi.

动物园 dongwuyuan «hayvonot bog'i», 园 yuan «bog'», 动物 dongwu esa «hayvon». Umumiy ma'no: «hayvonlar uchun bog'».

破冰船 pobingchuan «muz yorar kema», aniqlanmish 船 chuan «kema», aniqlovchi esa - 破冰 pobing «muzni yormoq». Umumiy ma'no: «muzni yoradigan kema».

打字机 daziji «yozadigan mashina», aniqlanmish - 机 ji «mashina», aniqlovchi - 打字 dazi «nashr qilmoq». Umumiy ma'no: «nashr qiladigan asbob».

Ikkidan ortiq morfemadan tashkil topgan murakkab fe'llar soni ko'p emas. Ko'p tarkibli fe'llar asosiy fe'lga suffikslar qo'shish orqali hosil qilinadi.

说出来 shuochulai «aytmoq, talaffuz qilmoq». Bu fe'lda 说 shuo «gapirmoq» o'zak, 出来 chulai – murakkab natija-yo'nalishli suffiksi hisoblanadi.

走进来 zoujinlai «kirmoq», fe'l 走 zou «bormoq» o'zak, 进来 jinlai – murakkab natija-yo'nalishli suffiksi bo'lib namoyon bo'ladi.

### Nazorat uchun savollar:

1. Morfologiya nimani o'rganadi?
2. Xitoycha so'z qanday xususiyat (belgi)lar bilan tavsiflanadi?
3. Xitoy tilida qanday turdagi morfemalar mavjud?
4. Xitoycha so'zning grammatik xususiyatlari haqida gapirib bering.
5. Xitoycha so'zning semantik tavsifini bering.
6. Xitoycha so'zga kvantitativ tavsif bering.
7. Bir bo'g'inli so'zni ta'riflang.
8. Ko'p bo'g'inli so'zlar haqida bayong qiling.
9. Xitoycha so'zning tarkibiy (struktural) tavsifini keltiring.
10. O'zining tarkibi (strukturasi) bo'yicha qaysi xitoy so'zlari sodda hisoblanadi?
11. So'z yasaliş modellarini sanab o'ting.
12. So'z yasalişning aniqlovchi turi nima?
13. So'z yasalişning kopulyativ turi haqida gapirib bering.
14. So'z yasalişning to'ldiruvchi turi haqida gapirib bering.
15. So'z yasalişning natijaviy turiga ta'rif bering.
16. So'z yasalişning predikativ turi haqida bayon qiling.

## XITOIY TILINING MORFOLOGIK TABIATI

Morfologiya (形太学 xingtáixué, 词法 cífǎ) – soʻz haqida grammatik taʼlimot, xitoy tili soʻzlariga xos boʻlgan grammatik kategoriyalarning morfologik xususiyatlari tizimini oʻrganuvchi grammatikaning boʻlimi.

Morfologik xususiyatlarga soʻzning ichki tuzilishi (tarkibi)ning xususiyatlari, shuningdek, soʻz yasash va shakllantirish usullari kiritiladi. Grammatik kategoriyalarga umumiy grammatik kategoriyalar (soʻz turkumlari) va ularga xos baʼzi bir kategoriyalar taalluqlidir.

Xitoy tilidagi soʻzning asosiy turini ikki boʻgʻinli soʻzlar, «binomlar» tashkil qiladi. Soʻz - maʼno birliklari (morfemalar)ning umumiyliги hisoblanib, quyidagi belgilar bilan taʼriflanadi:

«A) Bu yerda biz maʼnoni ifodalovchi birliklar, alohida tushunchani ifodala oladigan majmua (kompleks)larni uchratamiz;

B) Bu majmua (kompleks)lar umumiy fonetik shaklga ega (masalan, umumiy urgʻu);

V) Mazkur majmua (kompleks)lar yagona (barcha kompleks uchun umumiy) sintaktik vazifada – gapning bitta boʻlagi sifatida namoyon boʻlishi mumkin;

G) Ushbu majmua (komplekslar) sintaktik va morfologik jihatdan qismlar boʻyicha emas, balki butunlay shakllanadi, natijada shakllarning aniq bir yagonaligi (birligi)ni yaratadi».

Xitoy tilida soʻz uning eng muhim birligi hisoblanib, leksik tizimida markaziy oʻrinni egallaydi va boʻgʻin va morfema bilan murakkab munosabatda boʻladi.

Xitoy tilidagi soʻzlar rus tili kabi boʻgʻinlarga boʻlinadi. Biroq bu tillardagi boʻgʻinlar bajarayotgan roli bir xil emas. Rus tilidagi hamma boʻgʻin ham maʼnoga ega boʻlavermaydi, xitoy tilida esa har bir alohida olingan boʻgʻin (etimologik boʻgʻinlarga ajralmaydigan soʻzlar bundan mustasno) maʼnoga egadir. Shunday qilib, xitoy tilidagi boʻgʻin nafaqat tovush birligi, balki maʼnoga ega boʻlgan birlikdir. Demak, xitoy tilida boʻgʻinlarga boʻlish morfologik boʻlinishga mos keladi, shuning uchun morfemani baʼzida boʻgʻin-morfema deb atashadi.

Xitoy tili faktlarini tahlil qilib, aniq bir maʼnoga ega, lekin sintaktik mustaqil boʻlmagan soʻzning eng kichik (minimal) qismi (词素 cìsù) morfemasini ajratish maqsadga muvofiq.

Nutqda mustaqil vazifaga ega boʻlmagan baʼzi morfemalar aniq bir sintantik holat (sharoit)larda tilning mustaqil birligi sifatida ishlatiladi va shuning bilan bir boʻgʻinli soʻz mavqei (statusi)ni oladi.

提 tí morfemasi – mavzu mustaqil qoʻllanilmaydi, shunga qaramasdan 这道提不难 zhè dào tí bù nán Bu mavzu qiyin emas iborasi toʻgʻri hisoblanadi. Bu soʻzlar baʼzilarda 临时次 línshící – vaqtinchalik soʻzlar deb nomlanadi.

Baʼzi morfemalar (asosan venyan tilidagi bir boʻgʻinli soʻzlar) mustaqil sintaktik qoʻllanilish qobiliyatini yoʻqotgan boʻlsa ham, frazeologik birliklar tarkibida alohida soʻzlar sifatida bimalol qoʻllanilishi mumkin.

Xitoy tilida morfemalarning ikki turi mavjud: maʼnoga ega (maʼno-viy) morfemalar va yordamchi morfemalar. Yordamchi morfemalar oʻz navbatida soʻz yasovchi va shakl yasovchilarga ajratilishi mumkin.

## 4.1. Xitoycha soʻzning grammatik tabiati (asosiy tavsiflar)

**Maqsad:** xitoy tilidagi soʻzlarning grammatik tabiati haqida tushunchaga ega boʻlish.

**Tayanch soʻz va iboralar:** binom, bosh (asosiy) va yordamchi morfemalar, soʻzlarning grammatik tabiati, semantik tavsiflash, umumlashtirilgan grammatik maʼno, kvantitativ tavsiflash, - bir boʻgʻinli soʻzlar, koʻp boʻgʻinli soʻzlar, tarkibiy tavsiflash, etimologiyasiz soʻzlar, oʻzak qoʻshish, aniqlovchi (atributiv bogʻlanish), birikuvchi bogʻlanish, obʻektli bogʻlanish, natijani anglatuvchi, subʻektiv – predikativ bogʻlanish.

Xitoycha soʻzning grammatik tabiati unga xos boʻlgan grammatik xususiyatlar yigʻindisida namoyon boʻladi.

Xitoycha soʻzning xilma-xil grammatik xususiyatlari umumlashtirilgan-kategorial maʼno (semantik tavsif), boʻgʻin-miqdorli tarkib (kvantitativ tavsif), soʻz tarkibi va soʻz yasovchi model (tarkibiy tavsif), soʻz oʻzgartiruvchi shakllar (morfologik tavsif)lar kabi tarkibiy-semantik xususiyat (belgi)lar orqali vujudga keladi va belgilanadi.

Soʻzlarning alohida sinflari turli grammatik xususiyatlar va sifatlar bilan tavsiflanadi. Bitta sinf doirasida soʻzlar odatda bir xil grammatik xususiyatlar va belgilarga ega boʻladi.

#### 4.1.1. Umumlashtirilgan-kategorial ma'no (semantik tavsif)

Xitoy tilida so'zning ashyoviy (predmet-mantiqiy) ma'nosi birinchi darajali rolni o'ynaydi. So'z hamisha leksik birlikning formal-grammatik belgilaridan ustun bo'ladi. Aynan shuning uchun xitoy tili tizimida so'zlar sinflari umumlashtirilgan-kategorial ma'nolar (predmet, uning sifati – doimiy belgi, uning jarayoni – o'zgaruvchi belgi) asosida ajratiladi. Bu sinflar (so'z turkumlari)ning mazmuni ikki ma'no: ma'lum bir so'zga xos ashyoviy (leksik) va so'z turkumiga xos umumlashtirilgan-kategorial ma'nolarning birlashtirilishida ifoda topadi.

Umumlashtirilgan-kategorial (umumlashtirilgan-grammatik) ma'no aniq leksik birligining funksional-sintaktik (sintaktik vazifasi) imkoniyatini, gapdagi uning o'rnini aniqlab beradi. Albatta, so'z bitta yoki bir nechta so'z turkumiga taalluqliligi bilan chegaralangan bo'lib, ma'lum me'yorlar doirasida sintaktik qo'llanilishi mumkin.

#### 4.1.2. Bo'g'in-miqdorli tarkib (kvantitativ tavsif)

Bo'g'in-miqdorli tarkib xitoycha so'zning grammatik tavsifida muhim belgidir. Qadimgi xitoy tilida so'zlarning aksariyati bir bo'g'inli edi.

Biroq xitoy tilining ko'p asrlik tarixi va rivojlanishi undagi tubdan o'zgarishlarni taqozo etdi.

Hozirda xitoy tilida ko'p bo'g'inli so'zlar bir bo'g'inli so'zlardan ko'proq. Xitoy tadqiqotchilarining hisoblariga ko'ra, bir bo'g'inli so'zlar 24,6%, ko'p bo'g'inli so'zlar 75,4% tashkil qiladi.

Bir bo'g'inli so'zlar (单音词 dānyīncí) – boshlang'ich (tub) leksik birliklardir. Gohida ular sodda (o'zak) so'zlar deb ataladi.

Bir bo'g'inli so'z boshlang'ich, asos qilib olingan leksik birlik bo'lib, o'z tarkibida bitta morfema bilan chegaralanadi, affiksalar va boshqa qandaydir so'z yasovchi unsurlardan xoli bo'ladi. Shunday qilib, u tarkibsiz, yasama bo'lmagan so'zdir.

Ko'p bo'g'inli so'zlar (多音词 duōyīncí) – ikkilamchi (tub bo'lmagan) leksik birliklardir. Ko'p bo'g'inli so'z ikkilamchi leksik birlik bo'lib, o'z tarkibida kamida ikkita morfemaga ega, ulardan bittasi affiks yoki boshqa qandaydir so'z yasovchi unsur bo'lishi mumkin.

Demak, bu so'z yasama bo'lib hisoblanadi. Ko'p bo'g'inli so'zlar barcha murakkab so'zlarning 85 % ni tashkil qiladi.

Bo'g'in-miqdorli tarkib so'zning grammatik xususiyatlariga ancha ta'sir qiladi. Bir bo'g'inli so'z eski me'yordagi so'zga xos kvantitativ tavsifli leksik birligi bo'lib, tor doirada qo'llaniladi (to'liqsiz sintaktik avtonomlik /muxtoriyat/); ikki bo'g'inli so'z yangi me'yordagi so'zga xos kvantitativ tavsifli leksik birligi bo'lib, sintaktik jihatdan nisbatan keng qo'llanilish imkoniyatlariga ega (to'liq sintaktik avtonomlik /muxtoriyat/).

Bir bo'g'inli va ikki bo'g'inli so'zlarga xos bo'lgan grammatik xususiyatlardagi farq xitoy tilida bitta so'zning ikkita sinxron bo'lgan tarkibiy variantini vujudga keltiradi. Leksik birligi nutqda qo'llanilishiga qarab (ham sintaktik, ham stilistik holatlarda), yoki ikki bo'g'inli, yoki bir bo'g'inli so'z shaklida kelishi mumkin.

#### 4.2. Xitoy tilida mustaqil so'z turkumlari

**Maqsad:** Xitoy tilidagi mustaqil so'z turkumlari, ularning grammatik xususiyatlari, so'z turkumlarining tasnifi haqida ma'lumot berish, xitoy tilidagi ot, sifat, son, olmosh, ravish, olmoshli ravishlarning grammatik xususiyatlari haqida to'liq ma'lumot berish, xitoy tilidagi so'zlarning morfologik mansubligini aniqlash.

**Tayanch so'z va iboralar:** *butun (to'liq) so'zlar, bo'sh (mustaqil ma'nosiz) so'zlar, bosh (ma'noni anglatuvchi) so'zlar, yordamchi so'zlar, so'z turkumlari, ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe'l, yordamchi fe'l, olmoshli ravish, modal shakl.*

Xitoy lingvistik adabiyotida ko'pincha tilning lug'aviy tarkibi shici to'liq (butun) so'zlarga va 虚词 xuci bo'sh (ma'nosiz) so'zlarga bo'linadi. Shuning bilan birga 实词 shiyici bosh so'zlar va 副助词 fuzhuci yordamchi so'zlarga bo'linish mavjud.

Bosh so'zlar va yordamchi so'zlar keskin bir biridan farq qiladi. Bosh so'zlar predmetlarni va belgilarni ifodalaydi, yordamchi so'zlar esa bosh so'zlar o'rtasidagi munosabatlarni bildiradi. Aynan shunda ularning semantik farqi ko'rinib turadi. Gap tarkibidagi bosh so'zlar u yoki bu gap bulaklarining vazifasini bajarib keladi, yordamchi so'zlar esa bunday sintaktik vazifalarga ega bo'lmaydi. Mana shunda ularning grammatik farqi ifodalanadi.

## Soʻz turkumlari tizimi

### Umumiy tavsif

Soʻz turkumlari (词类 cilei) – bu bosh soʻzlarning sinflari (turlari)dir (shici). Bosh soʻzlar toʻliq narsani ifodalash maʼnosiga egadir. Ular predmetlarni, ularning belgilarini (doimiy yoki oʻzgaruvchan) ifodalaydi.

Xitoy tilidagi soʻz turkumlari leksik-grammatik belgilar va xususiyatlar, shuningdek, umumlashtiruvchi-kategorial maʼnosi, sintaktik valentligi va gap tarkibidagi vazifalari hamda soʻz yasalishi va soʻz oʻzgarishi boʻyicha farqlanadi.

### Soʻz turkumlarining tasniflanishi

Soʻzlarning soʻz turkumlari boʻyicha taqsimlanishi tilning grammatik tizimi bilan bogʻliqdir. Xitoy soʻzining grammatik tabiati xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, xitoy tilining lugʻaviy tarkibini leksik-grammatik sinflarga boʻlish joiz. Mazkur tasniflashda uchta belgi: maʼnoviy (mazmun), sintaktik va morfologik jihatlari asos qilib olinadi.

Yuqoridagi soʻz turkumlarini aniqlashdan kelib chiqib, mustaqil soʻz turkumlarining quyidagi sinf (tur)larini taklif qilish mumkin: ot, sifat, son, olmosh, feʼl, ravish.

#### 4.2.1. Ot

##### Umumiy tavsif

Ot (名次 mingci) xitoy tilidagi soʻz turkumlari tizimida muhim oʻrin egallaydi. U predmetli maʼnoga egadir. Predmetni ifodalash xususiyati otning leksik-grammatik kategoriyasi sifatida maʼnoviy asosini tashkil qiladi. Xitoy tilida ot predmetni ham, predmetning nisbiy belgisini ham ifodalashi mumkin.

Predmetni bildirganda ot ega yoki toʻldiruvchi vazifasini bajarib keladi. Shu bilan birga u qoʻshma yoki murakkab feʼlning ismiy qismi vazifasida ham boʻlishi mumkin. Aniq bir sharoitlarda ot hol vazifasini bajarishi mumkin, shunda u vazifasi boʻyicha vositali obʼektni belgilayotgan toʻldiruvchiga yaqinlashadi.

Aniqlovchi vazifasida otning kelishi xitoy tilidagi otlarning oʻziga xos xususiyatlari hisoblanadi. Bu holatda ot predmetining nisbiy belgisini ifodalaydi va sifat vazifasini bajarib keladi. Biroq, ot sifatning grammatik xususiyatlariga ega boʻlmaydi, xususan, sifat kabi bogʻlanishsiz feʼl vazifasida kelolmaydi va daraja ravishlari bilan birikmaydi.

### Otlarning tasnifi

Otlar maʼnosiga koʻra quyidagi guruhlariga ajratiladi:

1. Atoqli otlar alohida dona predmetlar va hodisalarni ifodalaydi: Sima Qian Sima Syan, Lu Xun Lu Sin, Huanghe Xuanxe, Beijing Pekin, Sichuan Sichuan.

2. Turdosh otlar bir xil shaxslarni, predmetlar va hodisalarni belgilaydi: fuqin ota, zhaxuejia faylasuf, zhuzi stol, qianbi qalam, feng shamol, xue qor, shan togʻ, he daryo, kenengxing imkoniyat, shengli gʻalaba.

3. Otlar – oʻlchov birliklari. Ushbu guruhga ikki turdagi soʻzlar kiradi: oʻlchov nomlari, masalan, 里 li (uzunlik oʻlchovi); oʻlchov vazifasida qoʻllaniladigan predmetlar nomlari, masalan, 碗 wan piyola (chashka). Oʻlchov vazifasida ishlatiladigan otlar juda kam holatlarda klassifikatorlar bilan ishlatilmaydi.

Xitoy tilida turdosh otlar bir nechta sinflarga boʻlinadi. Otlarning sinflarga boʻlinishi ularning koʻrinishiga va belgilariga qarab ajratiladi. Bunday grammatik boʻlinish maxsus hizmat soʻzlari orqali bajarilib u *klassifikator* deb ataladi.

#### Ot oʻlchov birliklari alohida guruhlar boʻlimini tashkil etadi.

Bu boʻlimga ikki turdagi soʻzlar kiradi:

a) uzunliklar nomi, masalan: 里 (uzunlik birligi)

b) oʻlchov birligida ishlatiladigan narsalar nomi, masalan: 碗 wan-chashka.

Oʻlchov birligida ishlatiladigan otlarning asosiy va alohida belgisi shundan iboratki u kamdan kam holatda klassifikatorlar bilan birga qoʻllaniladi.

Oʻlchov birliklari va klassifikatorlar bilan ishlatiladigan otni quyidagi alohida belgilarini eʼtiborga olish shartdir:

1. Bir hil ko‘rinishdagi ot birinchi ko‘rinishida ma‘lum narsani bildirsa, ikkinchi ko‘rinishda o‘lchov birligini bildirishi mumkin. Klassifikatorlarni qo‘llash otning u yoki bu maqsadini bildiradi: 一个茶碗 – yi ge chawan – bitta choy piolasi, 一碗茶 – yi wan cha – choy uchun bitta piola.

Birinchi misolda ot narsani bildirib unda klassifikator qo‘llanilgan, ikkinchi misolda esa ot o‘lchov birligini bildirib bu yerda klassifikator qo‘llanilmagan.

2. Ikkita so‘z xatda bitta ieroglif bilan ishlatilsa bitta turkum so‘z deb olinib, o‘lchov birligini bildirishi, boshqasi hizmat so‘zini bildirib, klassifikator vazifasini bajarishi mumkin: 三张纸 – san zhang zhi – uch varaq qog‘oz, 三张桌子 – san zhang zhuozi – uchta stol.

Birinchi misoldagi 张 ot o‘lchov birligini bildiradi. Turkum so‘z bo‘lib u rus tiliga ot bo‘lib tarjima qilinadi. Ikkinchi misoldagi 张 klassifikator bo‘lib narsani sinfini bildiradi. U xizmat so‘z bo‘lib rus tiliga tarjima qilinmaydi.

3. Ot o‘lchov birligi bo‘lib turkum so‘z bo‘lsa aniqlovchi vazifasini olishi mumkin. Klassifikator xizmat so‘zi bo‘lib bunday imkoniyatga ega emas. Uchta katta qog‘oz. Uchta katta stol.

**Xitoy tilida otning turlanmaslik holati.** Xitoy tilida ot rodlarga ajratilmaydi, soni kelishigi o‘zgarmaydi. Bir vaqtning o‘zida 1 ta predmetni bu turdagi predmetlarni shu bilan birga bir jinsdagi narsalarni ajratishi mumkin. Shuning uchun Xitoy tilida otlarning turlanishi uchramaydi.

Xitoy tilda ot grammatik jinslarga ajratilmaydi. Ayrim hollardagina leksik jihatdan ajratilishi mumkin. Bu faqat ba‘zi bir otlargagina tegishli bo‘lib bular jonli predmetlarga oiddir. Masalan, 男教员 – nanjiaoyuan – erkak o‘qituvchi, 女教员 – nujiaoyuan – ayol o‘qituvchi, 公鸡 – gongji – xo‘roz, 母鸡 – muji – tovuq, 雌花 – cihua – ayol gul, 雄花 – xionghua – erkak gul.

Xitoy tilida ot birlik va ko‘plikda neytral holatda. U bitta narsani bildirishi mumkin va shu qatorda bir hil narsalarni ham bildiradi. Har qanday hollarda otlar miqdori kontekst bilan aniqlanadi.

Xitoy tilida yagona morfologik ko‘rsatuvchi ot bu 们 – suffiksdir. Lekin uning qo‘llanilishi ham chegaralangan. 们 suffiksi ko‘plikdagi barcha shaxsni ifodalovchi otlarni ko‘plikdagi shakllarni

ifodalash uchun ishlatiladi. 同志们 – tongzhimen – o‘rtoqlar, 学生们 – xueshengmen – talabalar.

Ba‘zida 们 suffiksi hayvon va qushlarni nomlarini ko‘plikda ifodalashqa qo‘llaniladi. 骆驼们 – luotuomen – tuyalar, 狗们 – goumen – kuchuklar.

Istisno tarzida ayrim hollardagina jonsiz predmetlarni ko‘plikda ifodalash uchun 们 suffiksida foydalanish mumkin.

们 qo‘shimcha haqida yana ikki hususiyat mavjud, ular:

a) ot son bilan birga ishlatilganda u suffiks bilan oformlenie qilinmaydi: 两个工人 – liang ge gongren – ikki ishchi, 三个农民 – san ge nongmin – uchta qishloq odami.

b) ikkita yoki undan ortiq miqdorda ot bitta gapda 们 suffiksi bilan kelsa va ko‘plik ma‘nosini bildirsa faqat oxirgi otga qo‘shiladi: 指挥员和战斗员们 – zhihuiyuan he zhan douyuanmen – sarkardalar va jangchilar, 代表、观察员和记者们 – daibiao, guanchayuan he jizhemen – delegatlar, nazoratchilar hamda koresspondentlar.

**Ravish otlar.** Xitoy tilida shunday otlar guruhi borki ular ravish bilan birikadi: 今天 – jintian – bugun, 明天 – mingtian – ertaga, 早上 – zaoshang – ertalab, 晚上 – wanshang – kechqurun.

Ravish otlar ravishdan farqi shundaki ular gapda ega vazifasini bajarishlari mumkin. Uning bu hususiyati uni ot bilan yaqinlashtiradi.

Ravish otlar klassifikatorlar bilan qo‘llanilmaydi. Ular ko‘pincha hol vazifasini bajaradi. Bu holatda esa ularni ravish bilan yaqinlashtiradi.

### Otlarda so‘z yasalihi

Uchta asosiy so‘z yasalihi – so‘zlar qo‘shilishi, yarim affiksatsiya va affiksatsiya usullari xitoy tilida otlar sinfiga tegishli bo‘lgan leksik birliklarni hosil qiladi.

So‘zlarni qo‘shish (o‘zaklarni qo‘shish).

Murakkab so‘zlar asosan kommulyativ va atributiv modellar, juda kam holatlarda – ob‘ektli va predikativ modellar bo‘yicha yasaladi. Shunday qilib, otlar murakkab so‘zlarning har xil tarkibiy turlarga mansub bo‘ladi.

水土 shuitu suv – yer > iqlim; 裁缝 caifeng bichmoq – tikmoq > tikuvchi; 铺盖 pugai to‘shamoq – ustini yopmoq > o‘rin (yotoq); 物品

wupin narsa – predmet > narsalar (buyumlar); 大小 daxiao katta – kichik > o'lov, miqdor; 开关 kaiguan ochmoq – yopmoq > o'chirgich; 出入 churu chiqmoq – kirmoq > farq, nomutanosiblik; 光阴 guangyin yorug'lik – qorong'ulik > vaqt; 黑人 heiren qora – odam > negr; 电梯 dianti elektr quvvat – zina > lift.

Yarim affiksatsiya (o'zining ikki turida – yarim prefiksatsiya va yarim suffiksatsiya) otlarning so'z yasaliş tizimida juda keng tarqalgan.

Yarim suffikslar: 超 chao, 泛 fan, 微 wei, 亚 ya va 反 fan hozirgi zamon xitoy tilida asosan atama (termin)lar sohasida so'z yasalişiga xizmat qiladi. Old qo'shimcha morfemalar orqali yasalgan leksik birliklar soni uncha ko'p emas.

超音速 chaoyinsu tovush tezligidan oshadigan tezlik; 超声波 chaoshengbo ultra tovush to'lqini; 微生物 weishengwu mikro; 亚热带 yaredai subtropiklar; 反击 fanji kontrzarba; 反义词 fanyici antonim.

员 yuan, 手 shou, 心 xin, 意 yi, 物 wu, 品 pin, 性 xing, 化 hua, 主义 zhuyi va boshqa yarim suffikslar otlar kategoriyasiga tegishli bo'lgan leksik birliklarining ko'pini hosil qiladi.

运动员 yundongyuan sportchi, 演员 yanyuan artist, 水手 shuishou dengizchi, 舵手 duoshou boshqaruvchi (rul'dagi), 耐心 naixin sabrlik, 私心 sixin xudbinlik, 敌意 diyi adovat, 礼物 liwu sovg'a, 食品 shipin oziq-ovqatlar, 动物 dongwu hayvon, 纪律性 jilüxing intizomlik, 退化 tuihua degradatsiya, 极化 jihua polyarizatsiya, 现实主义 xianshizhuyi realizm.

Xitoy tilidagi otlarning yasalişida affiksatsiya usuli ikkinchi o'rinda turadi. So'z yasaliş tizimida affiksatsiyaning ikki turi – prefiksatsiya va suffiksatsiya mavjud bo'lib, ular teng miqdorda emas. Suffiksatsiya prefiksatsiyaga qaraganda muhimroq rol o'ynaydi.

Prefikslar (ular atigi ikkita: 老 lao va 阿 a) jonli predmetlarni ifodalovchi otlar kategorisining juda kam so'zlarini hosil qiladi.

老 laoshi o'qituvchi, 老乡 laoxiang vatandosh, 老虎 laohu yo'lbars (tigr), 老鼠 laoshu kalamush, 阿母 amu ona, 阿妹 amei opa (opacha), 阿哥 age uka (ini).

**Suffikslar.** Otlar yasovchi suffiksial morfemalarning soni ko'p emas. Ularning ba'zilari (子 zi va 儿 er) katta unum (hosil)dorlik bilan ajralib turadi, 胖子 pangzi *semiz odam*, 脖子 bozi bo'yin, 肚子 duzi oshqozon, 狮子 zhizi sher, 棍儿 gunr cho'pcha, tayoqcha, 门口儿 menkour pod'ezd, 画儿 huar rasm, tasvir.

**Suffikslar.** 头 tou, 家 jia, 者 zhe, 巴 ba ham otlar kategoriyasiga mansub so'zlarni hosil qiladi: 石头 shitou tosh, 骨头 gutou suyak, 枕头 zhentou yostiq, 苦头 kutou qayg'u, 作家 zuojia yozuvchi, 科学家 kexuejia olim, 读者 duzhe kitobxon, 记者 jizhe jurnalist, 尾巴 weiba dum, 哑巴 yaba soqov.

**Kontraksiya** so'z yasaliş usullaridan biri bo'lib, xitoy tilida muhim rol bajaradi. To'rt qismli leksik birliklar misolida morfemalik kontraksiyani keltiramiz. Odatda kontraksiya natijasida ikkita (ba'zan – uchta) morfemadan iborat murakkab qisqartirilgan so'zlar hosil bo'ladi.

土地改革 tudigaige yer – dala – o'zgartirmoq – qayta shakllamoq >: 土改 tugai yer islohoti; 无线电台 wuxiandiantai yo'q – sim – elektrquvvat – stansiya > radiostansiya; 直升飞机 zhishengfeiji to'g'ri – ko'tarilmoq – uchmoq – apparat > vertolyot.

### Otning grammatik xususiyatlari

Otlar sinfiga mansub bo'lgan xitoy so'zlari jins bo'yicha farqlanmaydi, demak, jinsni ifodalovchi grammatik kategoriyasi xitoy tilida mavjud emas.

Xitoy tilida otlar songa ishora qilmaydigan ma'nolarni anglatadi. Masalan, ular dona (bitta) predmetni ham, bir xil bo'lgan predmetlar yig'indisini ham ifodalashi mumkin. Shunga qaramay, xitoy lingvistikasida otlarda son kategorisini ajratish kuzatiladi. Masalan, ba'zida donalik analitik shaklini ko'rsatib o'tishadi. Bu holatda donalik afiksi deb nomlanadigan 个 ge turdagi yordamchi elementning qo'llanilishi nazarda tutiladi, u ot yonidagi sifatning vazifasini bajaradi (aniqrog'i: ot bilan ifodalangan gap bo'lagi yonida). 们 men suffiksi orqali yasalgan jamoaviy ko'plik shakli otlarning sonini ifodalovchi yagona morfologik ko'rsatkich bo'lib, chegaralangan qo'llanilishga egadir. Ko'picha u shaxslar kategoriyasini bildiruvchi otlarga xos bo'ladi.



### Ravish(li) otlar

Xitoy tilida ravishlarga tegishli bo'lgan bir guruh otlar mavjud: 今天 jintian bugungi kun, bugun, 明天 mingtian ertangi kun, ertaga, 早上 zaoshang tong, tongda, 晚上 wanshang oqshom, oqshomda.

Ravishdan farqli bo'lib, ravish(li) otlar gapda ega vazifasini bajarishi mumkin. Aynan shu xususiyat ularni otlar bilan yaqinlashtiradi. Ravish(li) otlar odatda klassifikatorlar bilan qo'llanilmaydi. Ular ko'pincha hol vazifasida keladi. Mana shu xususiyatlar ularni ravishlar bilan yaqinlashtiradi.

### 4.2.2. SIFAT

#### Umumiy tavsif

Sifat (形容词xingrongci) – predmetning tub (asl) yoki nisbiy belgisini ifodalovchi so'z turkumidir. Xitoy tilida sifat harakat belgisiga ham ishora qilishi mumkin.

Predmetning asl (tub) belgisini ifodalagan holda sifat aniqlovchi yoki kesim vazifasida keladi. Predmetning nisbiy belgisini ifodalaganda, sifat odatda aniqlovchi vazifasini o'taydi. Harakat belgisini ifodalaganda esa, sifat ko'pincha hol vazifasida keladi. Alohida sifatlar xos bo'lmagan holatlarda u ega va to'ldiruvchi vazifalarida ham kelishi mumkin.

#### Sifatlarning tasniflanishi

Semantik-grammatik xususiyatlar hamda nutqdagi funksional vazifalarga ko'ra xitoy tilidagi sifatlar ikkita sinfga bo'linadi: asl (tub) sifatlar va nisbiy sifatlar.

**Asl (tub) sifatlar** predmetning asl belgisini ifodalaydi: 红 hong qizil; 绿 lü yashil; 甜 tian shirin; 酸 suan nordon; 美丽 meili chiroyli; 老 lao kekxa, qari; 大 da katta; 好 hao yaxshi; 快 kuai tez; 可怕 kepa qo'rqinchli, dahshatli.

Ushbu sinfga tegishli sifatlar zamonda o'zgaruvchan va modal shakllarni ifodalaydi. Bundan tashqari, ular ko'pincha ikkilanish shaklida ham qo'llaniladi. Miqdor-daraja ravishlari bilan birgalikda asl (tub) sifatlar asl belgining shiddati (intensivligi)ni ko'rsatadi. 一点 yidian, 一些 yixie ozgina, sal bo'lsa, 一倍 yibei ikki barovar so'zlari

bilan birga kelishi mumkin. Bundan tashqari, ular ba'zi bir yordamchi (ko'makchi) fe'llar bilan ham birga kelishi mumkin.

**Nisbiy sifatlar** predmetning nisbiy belgisini bildiradi: 左 zuo chap, 右 you o'ng, 横 heng gorizont, 竖 shu vertikal, 真 zhen haqiqiy, 假 jia soxta, qalbaki, 科学 kexue ilmiy, 基本 jiben asosiy. Asl (tub) sifatlardan farqli ravishda bu turdagi sifatlar zamonda o'zgaruvchan va modal shakllarni hamda ikkilanish shaklini hosil qilmaydi. Juda kam holatlarda miqdor-daraja ravishlari va 一点儿 yi dianr so'zi kabilar bilan qo'llaniladi. Ushbu holatlar mazkur sinfning sintaktik valentligidagi chegaralanganligini isbotlaydi. Gapda nisbiy sifatlar ko'pincha aniqlovchi vazifasida, juda ham kam holatlarda kesim vazifasida kelishi mumkin.

#### Sifatlarning yasalishi

So'zlar (o'zaklar)ning qo'shilishi – sifatlarning asosiy yasalish usulidir. Sifatlar kategoriyasiga mansub bo'lgan murakkab so'zlar asosan kopulyativ modeli orqali yasaladi. Sifatlarning juda kam miqdori atributiv va ob'ektlilik modellar bo'yicha hosil bo'ladi. Ba'zan predikativ modeli orqali ham yasalgan sifatlar uchramaydi.

宽大 kuanda keng – katta > keng; 庄严 zhuangyan savlatli – talabchan > buyuk, ulug'vor, dabdabali; 古老 gulao burungi – eski > qadimgi, qadimiy; 黑暗 heian qora – to'q > qorong'i, mudhish; 虚伪 xuwei bo'sh – noto'g'ri, yolg'on > soxta, qalbaki. Yarim affiksatsiya usuli sifatlarning yasalishida uncha ko'p uchramaydi.

Yarim prefikslar 超 chao va 反 fan bir nechta so'zlarni hosil qiladi: 超低 chaodi o'ta past, 超高 chaogao o'ta baland, 超自然 chaoziran g'ayritabiiy, misli ko'rilmagan, 反帝 fandi imperializmga qarshi (antiimperialistik).

#### Sifatlarning grammatik xususiyatlari

Xitoy tilidagi sifatlar rus tilidagi sifatlardan farqli ravishda jins, son va kelishiklar bo'yicha o'zgarmaydi. Xitoy tilidagi sifatlarning boshqa o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu zamonda o'zgaruvchan va modal shakllarni xosil qilishdir.

### Sifatlarning zamonda o'zgaruvchan shakllar (tuslanuvchi sifatlar)

Xitoy tilida asl (tub) sifat o'zining birlamchi, lug'aviy shakli bo'yicha u yoki bu predmetning belgisi (xususiyati)ni ifodalaydi. Ushbu belgi o'zgaruvchan bo'lganligi bois, sifatlardan zamonda o'zgaruvchan shakllar hosil bo'lishi mumkin.

Sifatlarning zamonda o'zgaruvchan shakllari 了 le, 过 guo, 着 zhe suffikslari orqali yasaladi.

了 le suffiksi orqali yasalgan shakl asl belgining ro'y bergan fakt sifatida shakllanishini ko'rsatib turadi.

过 guo suffiksi bilan yasalgan shakl asl (tub) belgining o'tmishda bo'lganligiga ishora qiladi.

着 zhe suffiqsi yordamida hosil bo'lgan shakl zamonda davom etayotgan jarayon (holat) sifatida namoyon bo'ladi.

### Sifatlarning modal shakllari

Ba'zan xitoy tilida asl (tub) sifatlarning modal shakllarini kuzatish mumkin. 得 de infiksi orqali hosil bo'lgan shakl predmetning u yoki bu belgisini (xususiyati)ning imkoni borligi (imkoni yo'qligi)ni ko'rsatib turadi. 她自己也知道好不了 ta ziji ye zhidao haobu liao (u o'zi bilardi, sog'ayib keta olmasligini).

得 de suffiksi yordamida hosil bo'lgan shakl predmetning doimiy belgisi sifatida qandaydir xususiyatining imkoni borligini ifodalaydi. 不 bu infiksi orqali yasalgan shakl o'z navbatida predmetning u yoki bu xususiyatining imkoni yo'qligini ko'rsatib turadi.

### Sifatlarning reduplikatsiyasi (takroriy shakl)

Xitoy tilida asl (tub) sifatlarning takrorlanish usuli keng qo'llaniladi. Takrorlash odatda (har doim emas) sifat ifodalayotgan belgini kuchaytiradi, unga shiddat (intensiv)lik ma'nosini beradi: 短短 duan-duan kalta-kalta (kap-kalta); 厚厚 houhou semiz-semiz (sep-semiz); 干干净净 ganganjingjing toza-toza (top-toza).

Takrorlangan shakldagi sifat daraja ravishlari bilan ishlatilmaydi. Inkorlikni ham o'ziga olmaydi. Shu bilan birga bunday sifat 了 le, 过

guo, 着 zhe suffikslari bilan yasalmaydi va yordamchi fe''lar bilan qo'llanilmaydi.

### 4.2.3. Fe'l

**Tayanch so'z va iboralar:** 动词 dongci fe'l, to'liq ma'noli fe'llar, yordamchi (ko'makchi) fe'llar, fe'llarning grammatik xususiyatlari, fe'llarning zamonda o'zgaruvchan turlari, fe'llarning modal shakllari.

### Fe'l

#### Umumiy tavsifi

Fe'l (动词 dongci) eng qiyin va eng qiziqarli so'z turkumi. Fe'l predmetning holati yoki harakatini bildiradi. U harakatning maqsadiga yoki harakatning amalga oshirilish usuliga ishora qilishi mumkin. Ba'zida fe'llar predmetning nisbiy belgisini bildiradi.

Predmetning holatini bildirganda fe'l kesim vazifasini bajaradi. Harakat (holat) maqsadini bildirganida gapda to'ldiruvchi vazifasini bajaradi. Predmetga tegishlilikni bildirgani uchun fe'l aniqlovchi vazifasini bajarishi mumkin. Ayrim hollarda gapda ega vazifasini bajaradi.

#### Fe'llarning tasniflanishi

Gramatik nuqtai nazaridan olib qaraganda, xitoy tilidagi hamma fe'llarni to'liq ma'noli va yordamchi fe'llarga ajratish mumkin.

To'liq ma'noli fe'llarning o'zi ham gapda kesim vazifasini bajarishi mumkin. Murakkab kesim tarkibida ular asosiy ma'noni bildiradi. Yordamchi fe'llar ko'p holatlarda sodda kesim vazifasini bajara olmaydi, faqat qo'shimcha ma'no vazifasini bajaradi.

To'liq ma'noli fe'llar quyidagi turlarga taqsimlanadi:

- 1) Natijali to'liq ma'noli fe'llar;
- 2) Natijasiz to'liq ma'noli fe'llar.

Natijasiz to'liq ma'noli fe'llar harakatni yoki predmetning harakatini bildiradi, fe'l natijasiga qo'shimcha ma'no bermaydi. U o'zining morfemalik tarkibiga ko'ra, bir tarkibli va ko'p tarkibli bo'ladi. Masalan: 活 huo yashamoq, 看 kan qaramoq, 坐 zuo o'tirmoq, 休息 xiuxi dam olmoq, 批评 piping tanqid qilmoq, 认为 renwei o'ylamoq, tan olmoq. Ushbu sinfdagi fe'llarga modal shakllar xos

emas, faqatgina oz miqdori, asosan bir tarkibli fe'llar, suffikslarning modal shaklini hosil qiladi.

Natijali to'liq ma'noli fe'llar predmetning harakatini yoki holatini ifodalagan holda, natijalikning qo'shimcha ma'nosini ham o'z ichiga oladi. O'zining morfemalik tarkibi bo'yicha bunday fe'llar doim ko'p tarkibli leksik birliklar sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, 改良 gailiang yaxshilamoq, 吃包 chibao to'ymoq, 猜到 caidao topib olmoq, 睡着 shuizhao uxlab qolmoq, 感觉到 ganjuedao xis qilmoq, 跑上 paoshang chopib chiqmoq, 向起来 xiangqilai eslamog, 劝过来 quanguolai qayta ishontirmog.

Mazkur sinfnng fe'llari asl natijali va natijali yo'naltirilgan turlarga bo'linadi. Natijali yo'naltirilgan fe'llar natija ma'nosi bilan bir qatarga yo'naltirilishni ham ifodalaydi.

### Yordamchi fe'llar

Yordamchi fe'llar modal va undash (kauzativ; harakatga majburlash ma'nosiga ega) fe'llariga, harakatning bosqichlarini ifodalovchi va harakatni yo'naltirilganiga ishora qiluvchi fe'llarga bo'linadi.

Modal fe'llar modallikni bildiruvchi leksik-gramatik birlik hisoblanadi. Shu fe'llar orqali modallikning imkoniyat, zarurat, xohish-istak kabi turlari o'z ifodasini topadi. Modal fe'llarning inkor shakli odatda bu inkor yuklamasi yordamida hosil bo'ladi. Ularning ba'zilar ayrim kamchilik bo'lgan holatlarda 没 mei inkor shakli bilan yasaladi.

Modallik turlariga ko'ra bu fe'llarni uchta guruhga ajratish mumkin.

1. Imkoniyat (qobiliyat)ni ifodalovchi modal fe'llar: 能够 nengou qila omoq, qodir bo'lmoq; 可以 keyi mumkin, imkoni bor; 会 hui mumkin, bo'lish ehtimli bor.

2. Zaruratni ifodalovchi modal fe'llar: 应该 yinggai lozim, joiz; 需要 xuyao kerak, zarur; 得 dei shart, lozim.

3. Istak (xohishni) ifodalovchi fe'llar: 愿意 yuanyi xohlamoq, istamoq; 想要 xianggyao shaylanmoq, qilishga niyat qilmoq; 肯 ken xohlamoq, moyil bo'lmoq.

4. Undash (kauzativ) fe'llar qandaydir harakatni bajarishga yo'naltirilgan xohish-istakni ifodalovchi leksik-grammatik vosita hisoblanadi. Undashning umumiy ma'nosini 使 shi fe'li ifodalaydi, qol-

gan fe'llar undashni ifodalab, qo'shimcha ma'nolarga ega: 叫 jiao buyurmoq, majburlamoq; 让 rang izn bermoq, majburlamoq; 请 qing so'ramoq, iltimos qilmoq; 促使 cushi undamoq; 颇使 poshi majburlamoq, majbur qilmoq. Undash (kauzativ) fe'llarning inkor shakli bu inkor yuklamasi yordamida yasaladi. Ta'qiqlash shakli 不要 buyao (别 bie) yordamida hosil bo'ladi.

5. Harakat bosqichlariga ishora qiluvchi fe'llar. Fe'llarning bu kichik guruhi harakatning boshlanishi, davo etishi va yakunlanishini ifodalaydi. Ularning asosiy sintaktik-ma'noviy vazifasi murakkab fe'l tarkibida asosiy fe'lga qo'shimcha ma'nolarni berib turishdan iborat.

Quyidagi fe'llar harakatning boshlanishini – 开始 kaishi, 入手 rushou, 动手 dongshou; harakatning davom etishini – 继续 jixu, 接续 jiexu; harakatning yakunlanishi, to'xtashini – 停止 tingzhi, 停顿 tingdun ifodalaydi.

Harakatning yo'naltirilganligini ifodalovchi fe'llar. Bu turdagi fe'llar gapirayotgan shaxsga nisbatan harakatning yo'nalishini bildiradi. Ular sodda va murakkab fe'llarga bo'linadi.

Sodda fe'llar (来 lai i 去 qu) gapirayotgan shaxsga yoki gapirayotgan shaxsdan umumiy yo'nalishni bildiradi; murakkab fe'llar umumiy yo'nalishni ifodalashi bilan birga harakat makonining turli taraflarga yo'naltirilganini ham ifodalaydi (masalan, 上来 shanglai bu yerga tepaga yurish, surilish; 上去 shangqu u yerga, tepaga yurish, surilish).

Bu turdagi yordamchi fe'llar harakat ma'nosini ifodalayotgan to'liq ma'noli fe'llar bilan birga kelganda harakatning yo'naltirilishi hamda natijasiga ishora qiladi: najinqu 拿进去 u yerga olib qirmoq, zou jinqu 走进 u yerga kirmoq. Modal fe'llar harakat ma'nosini ifodalamaydigan to'liq ma'noli fe'llar bilan kelganda faqat natijani ifodalaydi: 想出来 xiang chulai o'ylab topmoq; 清醒过来 qingxing guolai hushga, o'ziga kelib olmoq.

Natijali va natijasiz fe'llarning yasalishi so'z qo'shish (o'zak qo'shish) yordamida hosil bo'ladi.

Natijasiz fe'llar: 学习 xuexi qaytarmoq, takrorlamoq, ta'lim olmoq; 讨论 taolun sinchiklab izlamoq, muhokama qilmoq; 代替 daiti o'rnini bosmoq, almashtirmoq (soxtalashtirmoq).

Natijali fe'llar: 改良 gailiang yaxshilamoq; 说明 shuoming gapirmoq, izohlamoq; 加快 jiakuai qo'shmoq, tezlashtirmoq.

**Suffiksatsiya.** So'z yasashning bu usuli asosan natijali fe'llarda namoyon bo'ladi. Bu turdagi fe'llarda u asosiy rolni bajaradi.

Asl (tub) natijali fe'llar quyidagi suffikslar orqali hosil bo'ladi: 到 dao, 着 zhao, 住 zhu, 见jian, 好 hao, 成 cheng, 完 wan, 了liao, 掉 diao, 得 de. Masalan, 听见 tingjian eshitib olmoq, 做好 zuohao qilib olmoq, 变成 biancheng aylanib olmoq, 写完 xiewan yozib olmoq, 做了 zuoliao bajarib olmoq, 吃掉 chidiao yeb bo'lmoq.

得 de suffiksi – dao 到 suffiksining sinonimi. Biroq, zamonaviy xitoy tilida 得 de suffiksi samarali so'z yasash morfemasi emas, uning yordamida faqat oz miqdordagi fe'llar yasaladi, masalan: 看得 kande ko'rib olmoq, 听得 tingde eshitib olmoq.

Natijali yo'naltirilgan fe'llar quyidagi suffikslar orqali hosil bo'ladi: 上 shang, 下xia, 进 jin, 出chu, 过 guo, 起 qi, 回 hui, 开 kai. Masalan, 走上 zoushang chiqib olmoq; 躺下 tangxia yotib olmoq; 运进 yunjin olib kirmoq; 爬出 pachu emaylab chiqib olmoq; 跑过 paoguo yugurib o'tmoq; 飞起 feiqi uchib chiqmoq; 退回 tuihui chekinmoq, tisarilmoq.

Natijasiz fe'llar faqatgina de 得 suffiksiga egadir. Bunday fe'llarning soni kam: 懂得 dongde tushunmoq; 记得 jide xotiralamoq, eslamog; 认得 rende bilmoq; 晓得 xiaode tushunmoq; 觉得 juede sezmoq, xis qilmoq.

### Fe'llarning grammatik xususiyatlari

Xitoy tilida fe'llar shaxsda va sonda o'zgarmaydi. Zamonaviy tilda bir nechta zamon turlari va modal shakllar hamda bitta nisbat (daraja) shakli mavjud.

Ba'zi shakllar affikslar (suffikslar va infikslar) orqali yasalib, sintetik shakllar, boshqalari esa maxsus yordamchi so'zlar yordamida hosil bo'lib, analitik shakllar bo'lib hisoblanadi. Fe'llar shakllari ko'p bo'lmasa ham, xitoycha fe'llarning tuslanishi murakkablik va o'ziga xoslik bilan ajralib turadi.

#### Zamon turlari shakllari.

了 le suffiksi orqali yasalgan shakl o'tgan zamonda harakat bir marotaba sodir bo'lib, yakunlanganiga ishora qiladi.

了 le suffiksi yordamidagi zamon shakli to'liq ma'noli natijali va natijasiz fe'llar yasalishi mumkin. Bunday tashqari bu shakl harakat yo'nalishiga ishora qiluvchi yordamchi fe'llardan ham yasalishi mumkin.

了 le suffiksi bilan shakllangan fe'l bu inkor yuklamasi bilan ishlatilmaydi. Ayrim holatlarda ushbu fe'l shaklini 没mei (没有 meiyou) inkor yuklamasi bilan qo'llanilishi uchratish mumkin. Ba'zan fe'lning bu shakli kelajakdagi harakatning tugatilishiga ishora qiladi. Odatda bunday holat bir harakatning bajarilishi ikkinchi harakatning yakunlanishi bilan shartlangan holatda uchraydi.

了 le suffiksli fe'l shakli ba'zan undash maqsadida ham ishlatiladi. Bu holatda u kelajakdagi harakatni amalga oshirishga undaydi (chorlaydi).

过 guo suffiksi yordamida yasalgan shakl o'tgan zamonda bitta yoki bir necha takrorlangan harakat nomuayyan vaqtda sodir bo'lgan va hozirgi vaqtgacha yakunlangan. Shunday qilib, bu shakl mazmun jihatidan 了 le suffiksi bilan hosil bo'lgan shaklga yaqindir, lekin teng emas.

过 guo suffiksi yordamida yasalgan zamon shakli to'liq ma'noli natijali va natijasiz fe'llardan hosil bo'lishi mumkin.

Harakatni inkor etish uchun guo shakli 没 mei (没有 meiyou) inkor yuklamasi bilan qo'llaniladi.

着 zhe suffiksi yordamida hosil bo'lgan shakl harakat nutq vaqtida sodir bo'layotib, to'xtovsiz davom etib, uzoq davom etayotgan holatga aylanganini anglatadi. Shuning uchun 着 zhe shakldagi fe'l hozirgi zamon davom etayotgan harakatni ifodalash uchun ishlatiladi.

着 zhe yordamida yasalgan shakl faqat natijasiz fe'llardan yasalishi mumkin.

着 zhe suffiksli shakl nafaqat nutq vaqtidagi harakatni, balki payt holi bilan aniqlangan yoki kontekstdan ma'lum bo'layotgan har qanday harakatni ifodalashi mumkin. Ushbu shakl nisbiy qo'llanilishga ega bo'lib, hozirgi zamonga tegishli deb hisoblanadi.

在 zai yordamchi so'z bilan hosil bo'lgan shakl harakat nutq vaqtida sodir bo'layotib, to'xtovsiz davom etib, uzoq davom etayotgan holatga aylanganini anglatadi. Demak, fe'lning bu analitik shakli ma'no jihatdan 着 zhe suffiksli sintetik shakl bilan mos keladi.

在 zai yordamchi soʻz bilan hosil boʻlgan zamon shakli faqat natijasiz feʼllardan yasaladi.

在 zai yordamchi soʻzli shakl kelsa va gap oxirida 了 le(la) ibora yuklamasi qoʻyilsa, harakat hozirgi vaqtgacha boʻlgan.

### Feʼlning modal shakllari

得 de suffiksi bilan yasalgan shakl harakatning bajarilish imkoniyati (ehtimoli) borligi bildiradi.

得 de suffiksi orqali asosan bir tarkibli natijasiz feʼllarning modal shakli hosil boʻladi. Oʻz navbatida bu shakldan 不 bu infiksi yordamida harakatni amalga oshirish imkoniyati yoʻqligini anglatuvchi shakl hosil boʻladi.

得 de infiksi yordamida yasalgan shakl harakat aniq bir natijaga yetkazilishini ifodalaydi. Bu shaklni asl natijali va natijali-yoʻnaltirilgan feʼllar hosil qiladi. Ushbu shakl asosan soʻroq gaplarda uchraydi. Baʼzan darak gaplarda taʼkidlovchi fikrni tasdiqlash uchun bu shakl modal feʼllar bilan kelishi mumkin.

不 bu infiksi yordamidagi shakl harakat maʼlum bir natijagacha yetkazilishi mumkin emasligini ifodalaydi. Ushbu shakl 得 de infiksi hosil qilgan shakl kabi faqat asl natijali va natijali-yoʻnaltirilgan feʼllardan yasaladi.

Xitoy tilidagi modal feʼllar oʻrtasida muayyan farqlar bor.

Ikki tarkibli natijali feʼllar de va bu infikslari orqali modal shakllarni hosil qiladi. Natijaga erishishda imkon borligi (yoʻqligi)ni ifodalovchi bunday feʼllar rus tiliga modal feʼl bilan maʼnosi toʻliq tugallangan feʼl yordamida tarjima qilinadi.

Bir tarkibli natijasiz feʼllardan de va bu infikslari orqali harakatni amalga oshishiga imkon borligi (yoʻqligini) ifodalovchi modal shakllar yasaladi. Bunday feʼllar rus tiliga modal feʼl bilan maʼnosi toʻliq tugallanmagan feʼl yordamida tarjima qilinadi.

被 bei (给 gei) yordamchi soʻz orqali yasalgan va kesim vazifasida kelgan feʼlning nisbat shakli ega bilan ifodalangan predmetga yoʻnaltirilgan. Demak, predmet harakatni oʻzi emas, tashqaridan unga nisbatan boʻlayotgan harakatni koʻrsatib turadi.

被 bei (给 gei) yordamchi soʻz orqali nisbat shakli toʻliq maʼnoli natijali va natijasiz feʼllardan yasalishi mumkin.

## 4.2.4. Son

### Umumiy tavsifi

**Tayanch soʻz va iboralar:** son, sonlar tasnifi, sanof son, tartib son, sonlarning yasalishi.

Son (数词 shuci) – umumiy raqamlar, predmetlar miqdorini yoki sanalayotgan predmetlarning tartibini ifodalovchi soʻz turkumi.

Predmetlarning miqdorini aniqlayotganda son ot bilan birikib keladi. Sonning ot bilan birikmasi koʻpgina vazifalarni bajaradi. Gapda bu birikma ega, kesim, toʻldiruvchi, aniqlovchi va hol vazifasini bajarishi mumkin. Predmetlarning sanalish tartibini aniqlayotganda son aniqlovchi vazifasini bajaradi. Baʼzan u hol ham boʻlishi mumkin.

### Sonlar tasniflanishi

Sonlar xitoy tilida 2 ta sinfga boʻlinadi: sanoq va tartib sonlar.

Sanoq sonlar raqamlarni yoki predmetlarning miqdorini ifodalaydi: 五 wu besh, 十五 shi wu oʻn besh, 五十 wushi ellik, 一个人 yi ge ren bitta odam.

Sodda (bir morfemalik) sonlar 1 dan 10 gacha boʻlgan raqamlarni ifodalaydi. Murakkab sonlar (11 dan 19 gacha) sodda sonlarni qoʻshish yoʻli bilan hosil boʻladi. Ular tarkibga kiruvchi morfemalar sonlari summasi bilan ifodalanadi va additiv sonlar deb nomlanadi. Murakkab sonlar (20 dan 90 gacha) sodda sonlarni qoʻshish orqali yasaladi, biroq ularning maʼnosi qoʻshishda emas, balki tarkibga kiruvchi morfemalarni koʻpaytirishda asoslanadi. Bunday sonlar multiplikativ deb nomlanadi.

Tartib sonlar predmetlarning sanalish tartibini belgilaydi. Tartib sonlarning koʻrsatkichi sifatida 第 di prefiksi ishlatiladi, masalan, 第二 dier ikkinchi, 第五 diwu beshinchi, 第十 dishi oʻninchi.

### Sonlarning yasalishi

Sonlar quyidagi usullarda yasaladi:

Soʻz qoʻshilishi. Bu usulda sanoq sonlar yasaladi: 十三 shisan oʻn-uch> oʻn uch; 十八 shiba oʻn- sakkiz>oʻn sakkiz; 五十 wushi besh-oʻn>ellik.

Prefikslar yordamida. Ushbu usul orqali tartib sonlar hosil bo'ladi: 第一 diyi birinchi, 第二 di er ikkinchi. 第十一 di-shi-yi o'n bir sonidan boshlab tartib sonlari murakkab so'zlar bo'lib, takroriy so'z yasalishdan o'tadi (murakkab so'z+ prefiks).

### Sonning grammatik xususiyatlari

Sonlar jinsga ajratilmaydi, son va kelishiklar bo'yicha o'z-garmaydi, demak, xitoy tilida sonlar turlanmaydi.

Sanoq sonlar bilan birga klassifikatorni ishlatilishi son umuman olganda qandaydir raqamni yoki predmetlarning miqdori (soni)ni ifodalashga bog'liq bo'ladi. Birinchi holatda klassifikator ishlatilmaydi, ikkinchisida esa ishlatiladi.

### 4.2.5. Olmosh

#### Umumiy tavsif

**Tayanch so'z va iboralar:** *olmosh, olmosh turlari, Kishilik olmoshlari, egalik olmoshlari, ko'rsatish olmoshlari, aniqlovchi olmoshlar, nisbiy olmoshlar, olmoshli ravishlar, suffiksatsiya, kompozitsiya.*

Olmosh 代词 daici - aniq predmetlar va belgilarni aytmay turib, bu predmet va belgilarga ishora qiladigan, ular haqida so'raydigan va umumlashtiradigan so'z turkumidir.

Odatda olmosh gapda ega, to'ldiruvchi va aniqlovchi vazifasini bajaradi. Olmon murakkab (ko'p tarkibli) fe'ning ismiy qismi sifatida kelishi mumkin. Olmoshlarning ayrim sinf (tur)lari mazmuniga ko'ra olmoshli ravishlar deb nomlanadigan so'zlarga mos keladi.

#### Olmoshlarning tasniflanishi

Xitoy tilidagi olmoshlar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Kishilik olmoshlari.
2. Egalik olmoshlari.
3. Ko'rsatish olmoshlari.
4. Aniqlovchi olmoshlar.
5. Nisbiy olmoshlar.

Kishilik olmoshlari: 我 wo *men*, 你 ni *sen*, 他 ta *u*. Kishilik olmoshlarning ko'pligi 们 men suffiksi orqali hosil bo'ladi. Bundan tashqari kishilik olmoshlarning boshqa shakllari ham mavjud:

a) 1-shaxs ko'plik women shakli bilan bir qatorda 咱们 zanmen olmoshi qo'llaniladi. Bu ikkita so'z o'rtasida ma'no jihatdan farq bor. 咱们 zanmen olmoshi doim o'z ichiga ikkinchi shaxsni ham oladi, masalan: sen va men, sen bilan biz, sizlar bilan biz; women esa ba'zilarida ikkinchi shaxsni nazarda tutmaydi: u va men, ular va men, biz u bilan, biz ular bilan. Xitoyshunoslarning ta'kidlashicha, bu qoidaga qat'iy rioya qilinmaydi.

b) 2-shaxs birlik 你 ni olmoshi bilan birga iltifotli 您 nin *Siz* shakli ham mavjud.

Birlikdagi va ko'plikdagi egalik olmoshlari kishilik olmoshlariga 的 de suffiksini qo'shish yo'li bilan hosil bo'ladi. Egalik olmoshlari qatoriga 自己的 ziji de o'zi olmoshi ham kiritiladi.

Ko'rsatish olmoshlari. 这 zhe *bu* olmoshi yaqin masofada joylangan yoki endigina aytilgan predmetni anglatadi, 那 na *ana u* uzoqda joylashgan yoki ilgari eslatib o'tilgan predmetni belgilaydi.

这样 zheyang, 那样 nayang *bunday, unday* predmetning eslatib o'tilgan belgisi (sifati)ga ishora qiladi. Sifatlar bilan birga bu olmoshlar belgining eng yuqori darajada namoyon bo'lganini ifodalaydi. Venyandan olingan 此 ci ko'rsatish olmoshi zamonaviy tilning kitobiy yozuv shakllarda qo'llaniladi.

Aniqlovchi olmoshlar qatoriga quyidagilar kiritiladi: 每 mei har bir, 凡是 fanshi har bir har qanday, 自己 ziji o'zi, 别的 biede boshqa, 大家 dajia barcha, hamma, 一切 yiqie hammasi, barchasi, hamma va boshqalar.

任何 rehne har qanday, har bir venyandan olingan bo'lib, asosan yozma nutqda ishlatiladi.

Xitoy tilidagi so'roq, shaxsi noma'lum, nisbiy olmoshlar genetik bog'liq. Tovush jihatdan ular omonimlar bo'lib hisoblanadi. Yozuvda ham bir xil bo'lgan ierogliflar bilan ifodalanadi. Ularning ma'nosi alohida har bir holatda kontekstdan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Masalan, zamonaviy xitoy tilida uchta so'z-omonim mavjud: so'roq olmoshi 谁 shui *kim?*, shaxsi noma'lum olmosh shui *kimdir* va nisbiy olmosh 谁 shui-.... 谁 shui kim ..... o'sha.

## Olmoshlarning yasalishi

*Soʻz qoʻshilish (oʻzak qoʻshilish).* Ushbu usul orqali xitoy tilida bir nechta olmosh yasaladi: 多少 duoshao koʻp- kam>qancha?; 任何renhe farqi yoʻq - qaysi> har qanday; 这样 zheyang bu - tur > shunday; 自己 ziji oʻzi -oʻzi > oʻzi.

*Suffiks yordamida yasalish.* Suffikslar yordamida birlik va koʻplikdagi barcha egalik olmoshlari hosil boʻladi.

## Olmoshning grammatik xususiyatlari

Xitoy tilidagi olmoshlar jins boʻyicha farqlanmaydi va kelishiklar boʻyicha oʻzgarmaydi. Faqatgina kishilik va egalik olmoshlari son boʻyicha oʻzgaradi. Demak, xitoy tilida olmoshlar turlanmaydi.

Koʻrsatish olmoshlari aniqlovchi va toʻldiruvchi vazifasini bajaranda, klassifikatorlar bilan ishlatiladi. Biroq yozma nutqda baʼzan klassifikatorlarsiz qoʻllanilish holatlari uchraydi.

Ayrim holatlarda egalik olmoshlari de suffiksiz ishlatiladi, shunda shakl boʻyicha egalik olmoshi kishilik olmoshidan farq qilmaydi.

Baʼzan ot jamoa maʼnosini anglatga va u *men* suffiksi bilan kelishi mumkin boʻlmasa, unda koʻplikdagi olmosh ishlatilishi mumkin. Masalan, 人民 renmin xalq soʻziga nisbatan koʻplikdagi kishilik olmoshi 他们 tamen *ular* qoʻllanilishi mumkin.

Olmoshlarning sintaktik xususiyatlaridan biri shundaki, olmoshlar aksariyat holatlarda oʻz aniqlovchisiga ega boʻlmaydi. Faqat juda kam olmoshlar, asosan 我 wo *men*, 他 ta *u*, 那 na *ana u* (odatda ge klasifikatori bilan), aniqlovchi bilan kelishi mumkin.

### 4.2.6. Ravish

#### Umumiy tavsif

**Tayanch soʻz va iboralar:** *ravish, ravish turlari, asl ravishlar, hol ravishlari, daraja ravishlari.*

Ravish (副词 fuci) – harakatning belgisini yoki belgining sifatini hamda belgining darasini ifodalaydigan soʻz turkumidir. Bundan tashqari ravish harakatning amalga oshirilish joyi, vaqti va sifati darajasini ifodalashi mumkin. Xitoy tilida ravish predmetning nisbiy belgisiga ishora qilishi mumkin.

Ravish harakatning belgisi yoki sifatini, belgisi darajasini hamda joyini va vaqtni ifodalab, odatda gapda hol vazifasini bajaradi.

## Ravishlarning tasniflanishi

Xitoy tilida ravishlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Asl ravishlar.
2. Hol ravishlari.
3. Daraja ravishlari.

**Asl ravishlar** harakat borishining ichki tomonini aks etadi, harakatning sifat tavsifini beradi: 忽然 huran birdan, toʻsatdan; 决然 jueran qatʼiyyan, qatʼiyat bilan; 特地 tedi atiydan, xususan va boshqalar.

Ushbu sinf ravishlari asosan feʼl-kesim bilan kelib, hol vazifasini bajaradi.

**Hol ravishlari** harakatni rivojlanishi yoki belgi namoyon boʻlishining tashqi tomonini aks ettiradi. Ular harakat amalga oshirilayotgan yoki belgi yuzaga kelayotgan hollarga ishora qiladi: 已经 yijing allaqachon; 将来 jianglai kelajakda; 也 ye hamda, ham; 还 hai hali; 又 you yana, tagʼin; 老 lao har doim, ilgari, allaqachon; 快 kuai yaqinda; 里头 litou ichida; 周围 zhouwei atrofda; 马上 mashang shu zahoti va boshqalar. Mazkur sinf ravishlari feʼllar bilan birikib, baʼzan (kam holatlarda) sifatlar bilan keladi.

**Daraja ravishlari** belgining namoyon boʻlish darajasini, sifatning darajasini yoki harakatning shiddati (intensivligi)ni ifodalaydi.

Masalan: 很 hen, 好 hao, 大 da, 颇 po, 甚 shen, 挺 ting - juda, nihoyatda; 更 geng yanada koʻproq; 最 zui, ding 顶 - eng, eng koʻp; 极 ji haddan tashqari; 太 tai juda, haddan tashqari; 非常 feichang oʻta, odatdan tashqari va boshqalar.

Bu toifadagi ravishlar aksariyat holatlarda sifatlar bilan keladi, lekin feʼllar bilan ham ishlatilishi mumkin.

## Ravishlarning yasalishi

Xitoy tilida ravishlar ikki usul bilan hosil qilinadi:

1. Kompozitsiya (Soʻz qoʻshilishi).
2. Suffiksatsiya (Suffikslar yordamida yasalish).

**Kompozitsiya.** So'z qo'shilish (o'zak qo'shilish). Ushbu usulda yasalgan ravishlar murakkab so'zlarni hosil qiladi.

刚才 gangcai faqat - faqatgina > edigina, hozirgina; 姑且 guqie hozircha - hozirgina> hozircha, faqat hozir; 根本 genben o'zak (ildiz)-o'zak (ildiz)> tubdan; 坚持 jianchi mustahkam-ushlamoq> tirishqoqlik bilan, qat'iy.

**Suffiksatsiya** (Suffiklar yordamida yasalish). Xitoy tilida adverbial suffikslash uchta so'z yasash morfemalari yordamida hosil bo'ldi: 然 ran, 地 d, 头 tou. 而 er suffiksi olmoshli ravishlarni yasaydi. 然 ran va 地 di suffiks morfemalari ravishlar uchun xos bo'lgan suffikslardir.

Samaradorligi bo'yicha ran morfemasi boshqa ravish suffikslaridan yuqoriroq, masalan, 突然 turan to'satdan, birdan: 骤然 zhouran to'satdan; 粲然 canran qaygu bilan, g'am-alam bilan; 默然 moran jimjitlik bilan; 胡地 hudi birdan, to'satdan.

### Ravishning grammatik xususiyatlari

Asl ravishlarning sintaktik vazifasi hol vazifasidan iborat. Ba'zida ravishlar aniqlovchi vazifasida kelishi mumkin. Kesim vazifasini ravishlar kamdan-kam, sanoqli holatlarda bajaradi: bu vazifada ravishlar ularga xos bo'lmagan daraja ravishlari bilan birga keladi.

### Olmoshli ravishlar

Xitoy tilida olmoshlar va ravishlar o'rtasida oraliq joyni egallaydigan so'zlar guruhi mavjud. Ular "olmoshli ravishlar" deb nomlanadi.

Olmoshli ravishlar ravishlardan farqli bo'lib, holni ifodalamaydi. Ular faqat holga ishora qiladi yoki holga tegishli bo'lgan savolni ifodalaydi. Bu xususiyat ularni olmoshlar bilan yaqinlashtiradi. Olmoshli ravishlar olmoshlardan farqlanib, odatda gapda hol vazifasini bajaradi. Bu xususiyat esa ularni ravishlar bilan yaqinlashtiradi. Shunday qilib, mazkur guruh olmosh ma'nosiga ega, lekin sintaktik vazifasiga ko'ra ravishlarga mos keladi.

Olmoshli ravishlar 6 ta turga bo'linadi:

1. Ko'rsatish olmoshli ravishlar.
2. Aniqlovchi olmoshli ravishlar.
3. So'roq olmoshli ravishlar.
4. Shaxsi noma'lum olmoshli ravishlar.

5. Nisbiy olmoshli ravishlar.

6. Undov olmoshli ravishlar.

这里 zheli, 这儿 zher - bu yerda; 这么 zheme, 这样 zheyang - shunday (kilib); 那里 nali -qaerda? 多攒 duozan- qachon? 怎样 zhenyang qanday? 怎么 zenme..... 怎么 zenme qanday.... shunday.....; 多么 duome Qanaqa qilib! Va boshqalar.

### Nazorat uchun savollar:

1. Xitoycha so'zlar qanday toifa (kategoriya)larga taqsimlanadi?
2. Xitoy tilidagi so'z turkumlari haqida gapirib bering.
3. Otga umumiy ta'rif bering.
4. Otlarning so'z yasalishi haqida bayon qiling.
5. Sifatga umumiy tavsif bering.
6. Sifatlarning grammatik xususiyatlari haqida gapirib bering.
7. Qanday fe'llar to'liq ma'noli fe'llar deyiladi?
8. Modal fe'llar qaysi guruhlarga bo'linadi?
9. Fe'l yasalishi haqida gapirib bering.
10. Grammatik xususiyatlari haqida bayon qiling.
11. Fe'llarning qaysi zamon turlarini bilasiz?
12. Qaysi modal fe'llarni bilasiz?
13. Songa ta'rif bering.
14. Sonlarda yasalish usullari haqida gapirib bering.
15. Olmoshlar sinflarini haqida bayon qiling va misollar keltiring.
16. Olmoshlarning yasalishi haqida gapirib bering.
17. Ravishga tavsif bering.
18. Ravishlar sinflarini sanab o'ting va misollar keltiring.

### 4.3. Yordamchi so'z turkumlari

**Maqsad:** Xitoy tilidagi yordamchi so'z turkumlari haqida tushuncha hosil qilish, o'rganilayotgan tildagi ko'makchi turlari, old va ort ko'makchilar haqida ma'lumot berish, xitoy tilidagi bog'lovchilar, bog'lovchilar turlari, bog'lovchi vazifasidagi gap orti birikmalari haqida atroflicha ma'lumot berish, klassifikatorlar, gap bo'laklari ko'rsatkichlari, gapning bosh bo'laklari ko'rsatkichlari, predikativlik neytralizatorlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, yordamchi so'zlarning qzlanilish xususiyatlarini tahlil etish.



**Tayanch soʻz va iboralar:** 虚词 xuci-yordamchi soʻzlar, 前置词 qianzhici, 借词 jieci – old koʻmakchi (predlog), 后置词 houzhici – ort koʻmakchi, 连词 lianci – bogʻlovchi, 类别词 leibieci – klassifikator, predikativlikni yoʻq qiluvchilar (neytralizatorlar).

#### 4.3.1. Yordamchi soʻzlar

##### Umumiy tavsif

Yordamchi soʻzlar (虚词 xuci) oʻzining toʻliq maʼnosi (mazmuni)ga ega emas. Ular aloqalarni hamda predmetlar va belgilar oʻrtasidagi munosabatlarni ifodalaydi. Baʼzi yordamchi soʻzlar gap boʻlaklarining alohida hissiyotli-mantiqiy urgʻu berish vositasi boʻlib, murakkab sintaktik birliklar qismlarini koʻrsatadi. Bundan tashqari ular qoʻshimcha maʼnolarni va ekspressiv tuslarni ifodalashi mumkin. Ayrim holatlarda yordamchi soʻzlar soʻz turkumlarining analitik shakllari tarkibiga kirishi ham mumkin.

##### Yordamchi soʻzlar tasnifi

Xitoy tili yordamchi soʻzlarning keng tizimiga ega: old koʻmakchilar, ort koʻmakchilar, bogʻlovchilar, yuklamalar, klassifikatorlar, gap boʻlaklari koʻrsatkichlari, predikativlik neytralizatorlari. Shuningdek, yordamchi soʻzlarga maxsus leksik unsur (element)lar deb atalmish alohida bir guruh soʻzlar qoʻshiladi.

##### Koʻmakchilar turlari

Xitoy tilidagi koʻmakchilar maʼnosi boʻyicha 5 ta turga boʻlinadi. Har bir turi oʻzining maʼno va sintaktik xususiyatlariga ega.

1. Subʼekt-obʼektiv munosabatlarni ifodalovchi koʻmakchilar: 给 *gei* (kimga?), 用 *yong* (nima bilan?), 被 *bei* (kim bilan?), 替 *ti* (kim uchun?), 对于 *duiyu* (nimaga nisbatan?), 关于 *guanyu* (nima haqida?) va boshqalar.

2. Makon munosabatlarini bildiruvchi koʻmakchilar: 在 *zai* –*da*, 在 *ichida*, 到 *dao* –*ga*, *tomonga*, 上 *shang* –*ga*, 向 *xiang* –*ga*, 从 *cong* –*dan* va boshqalar.

3. Zamon (vaqt) munosabatlarini anglatuvchi koʻmakchilar: 在 *zai* –*da*, 从 *cong* –*dan*, 到 *dao* –*gacha* va boshqalar.

4. Maqsad munosabatlarni ifodalovchi koʻmakchilar: 为 *wei*, 为了 *weile*, 为着 *weizhe* – *uchun*, *haqi uchun*.

5. Sabab munosabatlarni bildiruvchi koʻmakchilar: 因 *yin*, 因为 *yinwei*, 为了 *weile* –*ni deb*, *uchun*, *sababli*, –*ga koʻra*.

##### Old koʻmakchilar

##### Umumiy tavsif

Old koʻmakchilar (predloglar) (前置词 qianzhici) – subʼektiv-obʼektiv, makon, zamon va maqsad munosabatlarini anglatuvchi yordamchi soʻzlardir. Koʻmakchilar gapning uyushib kelmagan gap boʻlaklari: kesim va toʻldiruvchi, kesim va hol oʻrtasidagi munosabatlarni ifodalaydi.

Xitoy tilidagi koʻmakchilar feʼllarning hosil shakl (derivat)lari hisoblanadi. Grammatikalash jara yonida bularning baʼzilari mos keladigan feʼllarning zamon shakllariga ega boʻldi: 为了 *weile*, 为着 *weizhe* – *uchun*, *haqi uchun*. Koʻmakchilar feʼllarning baʼzi sintaktik xususiyatlarini saqlab qolgan. Masalan, kesimga nisbatan prepozisiyada toʻldiruvchi yoki koʻmakchili hol kelsa, inkor yuklamasi kesimdan oldin emas, koʻmakchidan oldin qoʻyiladi.

Xitoy tilidagi koʻmakchilar aksariyat holatlarda oʻzi hosil boʻlgan feʼllar bilan birga joylashadi: 在 *zai* – *joylashmoq* va 在 *zai* – *ichida*, *ustida*; 到 *dao* – *kelmoq*, *yetib kelmoq*, va 到 *dao* – *gacha*, *ga*, *tomonga*; 向 *xiang* –*qaragan boʻlib*, 向 *xiang* – *ga*, *roʻparasida*, *qarshisida*.

Baʼzi holatlarda feʼl va koʻmakchiga xos boʻlgan vazifalarni farqlash etimologik ohangdagi farqlarga asoslanadi.

##### Ort koʻmakchilar

##### Umumiy tavsif

Ort koʻmakchilar (后置词 houzhici) koʻmakchilar bilan ifodlangan makon va zamon munosabatlarni aniqlayotgan yordamchi soʻzlar. Ort koʻmakchilar koʻmakchilar bilan birga makon va zamon hol iboralarini bilan qoʻllaniladi.

Ort koʻmakchilar otlar bilan genetik bogʻlib boʻlib, ularning hosil shakl (derivat)lari hisoblanadi. Otlarning baʼzi sintaktik xususiyatla-

rini ort ko'makchilar o'zida saqlab qolgan. Ot kabi ort ko'makchi o'z oldida olmosh yoki yordamchi so'z bilan birikkan ot bilan ifodalangan aniqlovchiga ega bo'ladi.

Shu bilan birga ort ko'makchilar makon va zamoni angatuvchi hol iboralari tarkibiga kirib, ko'pincha ko'makchilar bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi va makon va zamon munosabatlari ifoda etadi.

Hozirgi zamon xitoy tilida ko'pgina ort ko'makchilar va o'zlari hosil bo'lgan otlar bilan yonma-yon keladi. Ort ko'makchilarning bu xususiyati ba'zi ko'makchilar, bog'lovchilar va boshqa yuklamalar bilan yaqinlashtiradi.

旁边 pangbian yon taraf, yoni; 旁边 pangbian yonida, yaqinida; 中间 zhongjian o'rtasi, markaz; 中间 zhongjian orasida, o'rtasida; 周围 zhouwei aylanma; 周围 zhouwei atrofida.

### Ort ko'makchilarning turlari

Xitoy tilidagi ort ko'makchilar 2 ta semantik turga bo'linadi:

1. Makon munosabatlarini aniqlab berayotgan ort ko'makchilar: 上边 shangbian tepasida, 中间 zhongjian o'rtasida, 地下 dixia yil, 前头 qiantou oldida, 后头 houtou orqasida va boshqalar.

2. Zamon munosabatlarini aniqlayotgan ort ko'makchilar: 以前 yiqian -gacha, 以后 yihou keyin, 以来 yilai -dan, dan keyin, 以内 yinei davomida, asnosida va boshqalar.

### 4.3.2. Bog'lovchilar

#### Umumiy tavsif

Bog'lovchilar (连词 lianci) - birlashtiruvchi, zidlovchi, ajratuvchi, taqqoslovchi, maqsad, sabab, shart, to'siqsi, shuningdek, o'xshatish va farqlanish munosabatlarni ifodalaydigan yordamchi so'zlar.

Bog'lovchilar sintaktik aloqalarni bildirib, sodda gap yoki murakkab sintaktik birliklar qismlarida uyushib kelayotgan gap bo'laklari o'rtasidagi semantik munosabatlarni ifodalaydi.

Xitoy tilida bog'lovchilar yordamchi so'zlarning eng ko'p sonli sinfini tashkil qilib, sintaktik bog'lanishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, bog'lovchilarning yozma-kitobiy uslubda muhim rol o'ynaydi.

Bog'lovchilarning ko'pchiligi etimologik aniqlik va ravshanlik bilan ajralib turadi. Deyarli har bir bog'lovchi o'zining bosh so'ziga, ya'ni o'zi hosil bo'lgan so'ziga ega. Xitoy tilida aksariyat bog'lovchilar ham fe'llardan yasalgan. Fe'ldan yasalgan bog'lovchilardan tashqari, ravish va olmoshdan hosil bo'lgan bog'lovchilar ham mavjud.

Grammatikalanish darajasi bo'yicha xitoy tilidagi bog'lovchilarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. O'zining dastalabki leksik ma'nosini butunlay yo'qotgan bog'lovchilar (虽 sui qaramay, qaramasdan);

2. O'zining leksik ma'nosini qisman yo'qotgan bog'lovchilar (如果 ruguo agar, darhaqiqat);

3. Zamonaviy tildagi ma'noga ega so'zlarning omonim-bog'lovchilari (好hao yaxshi, hao uchun).

Xitoy tilida bog'lovchilarning kelib chiqishi jihatidan xuddi predloglar (old qo'shimchalar)dek yetarlicha muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'pgina tadqiqotlar isbotlab bergan. Shu bilan birga "Xitoy tili grammatikasi" kitobida N.Ya. Bichurin "ko'pgina bog'lovchilar fe'llardan tashkil topgan bo'lib, gaplarda joylashishiga qarab o'z ma'nosini o'zgartiradi" deb ta'kidlab o'tgan<sup>1</sup>. Ayrim bog'lovchilarning etimologiyasini ko'rib fe'llardan kelib chiqqanligini bilish mumkin. Masalan zamonaviy 但 dan bog'lovchisini kelib chiqishini Van Li 独 dú、特 tè、徒 tú chegaralab qo'ymoq fe'llariga borib taqalladi, 如 rú bog'lovchisini mos kelmoq, muvofiq bo'lmoq fe'llaridan, 并 bing bog'lovchisini esa, yonida turmoq, birga yashamoq, degan fe'llardan kelib chiqqan deb ta'kidlab o'tgan.

#### Bog'lovchilarning guruhlariga bo'linishi

**Bog'lovchilarning guruhlari:** Xitoy tilida bog'lovchilar asosan 3ta guruhga bo'linadi ya'ni:

1. Ma'nosi bo'yicha hosil bo'luvchi bog'lovchilar
2. Tuzilishi bo'yicha hosil bo'luvchi bog'lovchilar
3. Qo'llanilishi bo'yicha hosil bo'luvchi bog'lovchilar

<sup>1</sup> Горелов В.И. Теоретическая грамматика китайского языка. -М.: Просвещение, 1989.

### Ma'nosi bo'yicha hosil bo'luvchi bog'lovchilar

Xitoy tilidagi bog'lovchilar ma'nosi bo'yicha 9 ta turga taqsimlanadi, har bir turi o'zining semantik xususiyatlariga ega.

1. Biriktiruvchi bog'lovchilar: 和 he, 并 bing - va; 而且 - va, ustiga ustak; 不但...并且 budan...bingqie, 不仅...而且 bujin... erqie - nafaqat...balki.

2. Zidlovchi bog'lovchilar: 但 dan, 但是 danshi, 可是 keshi, 然而 raner- lekin, biroq; 不是...而是 bushi...ershi - emas...balki va boshqalar.

3. Ajratuvchi bog'lovchilar: 或 huo, 或者 huozhe, 还是 haishi - yoki, yo; 或者...或者 huozhe...huozhe, 还是...还是 haishi...haishi - yoki...yoki, yo...yo va boshqalar.

4. Taqqoslovchi bog'lovchilar: 如果...则 ruguo...ze, 如果...那么 ruguo...name - agar...unda, 不是...就是 bushi...jiushi, 不是...便是 bushi...bianshi - agar...emas...unda va boshqalar.

5. Maqsadni anglatuvchi bog'lovchilar: 为wei, 为了weile, 为的是 weideshi, 以便yibian - uchun, .... maqsadida va boshqalar.

6. Sababni bildiruvchi bog'lovchilar: 因 yin, 因为 yinwei, 由于youyu, 为了weile - chunki, tufayli; 因为...所以 yinwei... suoyi, 由于...因而 youyu...yiner - chunki, shuning uchun, sababli va boshqalar.

7. Shartni anglatuvchi bog'lovchilar: 要 yao, 若 ruo, 倘 tang, 要是 yaoshi, 若要 ruoyao, 倘然 tangran - agar, agarda; 如果 ruguo, 倘是 tangshi, 假如 jiaru - agar taxmin qilsa; 既然 jiran - shunday bo'lsa; 就是 jiushi - agar hatto; 即使 jishi - hatto taxmin qilsa; 只要 zhiyao - agar faqat; 如...则 ru...ze, 要是...那 yaoshi...na, 如果...那么 ruguo...name - agar...unda; 既然...于是 jiran...yushi - shunday bo'lsa ...unda.

8. To'siqsiz bog'lovchilar: 虽 sui, 虽然 suiran, 尽管 jinguan- qaramay, qaramasdan; 纵 zong, 纵然 zongran, para - bo'lsa ham; 虽...然 sui...ran, 虽然...但虽然...可是 suiran...dansuiran...keshi, 尽管... 但是 jinguan...danshi - qaramay, qaramasdan....biroq va boshqalar.

9. Qiyoslovchi bog'lovchilar (o'xshashlik va farq): 像 xiang, 好像 haoxiang, 仿佛 fangfu - kabi, go'yo; 如同 rutong - dek, misli; 与其 yuqi - qaraganda, ... roq; 像...似的 xiang...shide, 仿佛... 似的 fangfu...shide - kabi, bamisoli; 好像...一样 haoxiang...yiyang - go'yo, huddi va boshqalar.

### Tuzilishi bo'yicha hosil bo'luvchi bog'lovchilar

Tuzilishi bo'yicha hosil bo'luvchi bog'lovchilar 3ta turga bo'linadi.

**Oddiy bog'lovchilar**: 并 bing, 并且 bingqi - va, ham, va shunga ko'ra; 但 dan, 但是 danshi - ammo, biroq, lekin; 或 huò, 或者 huòzhi - yoki, yoxud; 为 wèi, 为了 wèile - uchun, o'sha uchun; 因 yīn, 因为 yīnwei - chunki, o'sha sababli; 要 yào, 要是 yàoshi - agar agarda; 虽 suī, 虽然 suīrán - bo'lsa ham, garchi; 像 xiàng, 好像 hǎoxiàng - xuddi, singari va boshqalar. Oddiy bog'lovchilar odatda bir bo'g'inli yoki ikki bo'g'inli so'zlardan iborat bo'ladi.

M: 为了让女儿专心工作、老人每天女儿家里帮助作家务。

**Murakkab (qo'shma) bog'lovchilar**: 像...似的 xiàng...shìde, 仿佛...似的 fǎngfú...shìde-xuddi; 像...一样 xiàng...yīyàng, 如同... 一样 rúttóng...yīyàng-xuddi....dek, bir hil va boshqalar. Qo'shma bog'lovchilar o'zida ikkita ko'makchi so'zlarni qo'shib ko'rsatadi.

M: 他不像你这样聪明、但像你一样勤奋。

**Bog'lovchili birliklar**: 要是...话 yàoshi...huà, 如果...话 rúguǒ...huà - o'sha shartga ko'ra, agar; 假如...时 jiǎrú...shí - agar shunday bo'lsa, agar; 因为...原故 yīnwei...yuángù, 由于...缘故 yóuyú... yuángù-shu sababga ko'ra, -ki va boshqalar. Bog'lovchili birliklar ko'makchi va muhim so'zlarni qo'shib o'zida ko'rsatadi.

M: 要是努力学习的话、你就一定会考上大学。

### Qo'llanilishi bo'yicha hosil bo'luvchi bog'lovchilar

Xitoy tilida bog'lovchilar qo'llanilishi bo'yicha 3ta turga bo'linadi.

**Yakka bog'lovchilar**: 和 hé, 与 yǔ-va ham; 以便 yìbiàn, 要 hǎo - uchun; 即使 jíshǐ - xatto, agar; 纵然 zòngrán-maylin, garchi; 好像...似的 hǎoxiàng...shìde-xuddi; 如同...一样 rúttóng...yīyàng - xuddi, go'yo va boshqalar. Bu bog'lovchilar mustaqil ishlatiladi. Ular

boshqa bog'lovchilar bilan qo'shib hosil qilinmaydi. M: 成与不成、在此一举。

**Takrorlanuvchi bog'lovchilar:** 或...或 huò...huò, 或者...或者 huòzhi ...huòzhi, 还是...还是 hái shì...hái shì – yoki....yoki, balki..... balki va boshqalar. Takrorlanuvchi bog'lovchilar bir xil bog'lovchilarni qo'shib xosil qilinadi.

M: 今天晚上去看电影, 咱们或者坐公共汽车, 或者打车, 随便

**Juft bog'lovchilar:** 因...故 yīn...gù - chunki.....u xolda; 虽...但 suī...dàn - bo'lsa ham.....biroq; 不仅...并且 bùjǐn...bìngqǐ - nafaqat.....va shunga ko'ra; 不是...而是 bùshì...érshì -yo'q.....bo'lsa ham; 如果...则 rúguǒ...zé - agar.....u holda; 既然...那么 jìrán...nàme - agar.....u holda; 虽然...但是 suīrán...dànshì, 尽管...但是 jǐnguǎn...dànshì - bo'lsa ham..... biroq, garchi.....biroq va boshqalar. Juft bog'lovchilar o'zida turli hil bog'lovchilarni qo'shib ko'rsatadi. M: 好成绩不是从天上掉下来的、而是努力学习得到的。

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, boshqa tillar kabi Xitoy tilida ham bog'lovchilarning o'ziga xos o'rni bor. Uyushiq bo'lakli gaplarni hamda qo'shma gap qismlarini ma'noli va mazmunli tarzda bir-biriga bog'lashda bog'lovchilarning vazifasini ahamiyati katta.

**Bog'lovchi vazifasidagi gap orti birikmalari.** Ba'zan xitoy tilida ko'makchilar bilan ort ko'makchilar birikmasi bog'lovchilar vazifasini bajarishi mumkin. Bog'lovchilar vazifasida kelgan bunday birikmalar zamon (payt) munosabatlarini bildiruvchi ergashli qo'shma gaplarda keladi (ya'ni payt ergash gapli qo'shma gaplarda).

### 4.3.3. Klassifikatorlar

#### Umumiy tavsif

Klassifikatorlar (类别词 leibieci) – xitoy tilida yordamchi so'zlarning maxsus sinfi.

Klassifikatorlarning asosiy vazifasi – o'ning qaysi ma'naviy toifaga tegishliligini aniqlashdir. Ma'naviy toifasi esa predmetga xos bo'lgan u yoki bu belgiga qarab aniqlanadi.

Agar ot sonlar va olmoshlar bilan kelsa, ya'ni predmetlar sanal-ganda yoki aniq bir predmetlarga ishora qilinsa, unda klassifikatorlar qo'llanilishi chegaralanadi.

Semantik-funksional jihatdan klassifikatorlar otlar-o'lchov birlik-lariga mos keladi. Ushbu moslik genetik yaqinlik bilan izohlanadi. Klassifikatorlar otlar-o'lchov birliklaridan kelib chiqqan.

Bir xil ieroglif bilan ifodalangan 2 ta so'z o'lchov birligi vazifasida ham, klassifikator vazifasida yordamchi so'z bo'lib ham ishlatishi mumkin: san zhan zhi uchta varoq qog'oz, san zhang zhouz uchta stol. Birinchi misolda zhang varoq – o'lchov birligini ifodalaydigan ot. Ikkinchi misolda zhang – usti ochiq tekkis bo'lgan predmetlar turiga ishora qiluvchi klassifikator.

### 4.3.4. Gap bo'laklari ko'rsatkichlari

#### Umumiy tavsif

Gap bo'laklari ko'rsatkichlari (aniqrog'i: gap bo'laklari vazifasini bajaruvchi so'zlar va nominativ so'z birikmalarining ko'rsatkichlari) – tarkibi elementlar bo'lmish ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi va hollar vazifasida kelgan gaplarga ishora qiluvchi maxsus yordamchi so'zlardir.

**Gapning bosh bo'laklari ko'rsatkichlari.** d va d hol ko'rsatkichlari birinchisi kesimga nisbatan prepozitsiyada ishlatiladi, ikkinchisi esa – postpozitsiyada, ya'ni universal yordamchi morfemaning grafik variantlari vazifasida keladi. Shuning uchun oxirgi d hol ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'ladi.

**Predikativlik neytralizatorlari.** Predikativlik neytralizatorlari – predikativ turdagi tarkibot (konstruksiya)larga birikib, ularni substantiv tarkibotlar qatoriga o'tkazuvchi yordamchi so'zlardir. Buning natijasida substantiv tarkibotlar ega, to'ldiruvchi hamda murakkab fe'lning ismiy qismi vazifasida kelish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Predikativlik neytralizatorlar qatoriga d. Zhe, suo, zhi kabi yordamchi so'zlarni kiritish mumkin. d va zhi so'zlari predikativ tarkibotning oxirida joylashtiriladi.

Birinchi holatda pogressiv neytralizatsiyani, ikkinchi holatda esa regressiv neytralizatsiyani kuzatish mumkin.

#### Nazorat uchun savollar:

1. «Nutq yuklamalari» tushunchasiga ta'rif bering.
2. Ko'makchilar nimani anglatadi?
3. Ko'makchilarning qaysi turlarini bilasiz?

4. Ort ko'makchilar nimani ifodalaydi?
5. Ort ko'makchilarning turlarini sanab bering.
6. Bog'lovchilarga tavsif bering.
7. Bog'lovchilarning qaysi turlarini bilasiz.
8. Klassifikatorlar haqida gapirib bering.
9. Ko'rsatkichlar haqida bayon qiling.
10. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari ko'rsatkichlari haqida tushuncha bering.
11. Predikativlik neytralizatori haqida gapirib bering.

#### MUSTAQIL ISH UCHUN MAVZULAR:

1. Chjuin szimu fonetik alifbosi, uning paydo bo'lishi va ahamiyati.
2. Xitoy yozuvini fonetik alifboni kiritish orqali isloh qilish loyihalari: Van Chjaoning (1900) «官话字母 guanhuazimu» alifbosi.
3. Xitoy yozuvini fonetik alifboni kiritish orqali isloh qilish loyihalari: Lao Nay-syuanning (1907) alifbosi.
4. 1911 yildagi Pedagoglarning Pekin konferensiyasi, fonetika va grafika sohasida uning qarorlari va tavsiyalari.
5. Maorif vazirligining 1912-yildagi Konferensiyasi: uning qarorlari va vazifalari.
6. «主音字母 zhuyinzimu» fonetik alifbosining belgilari.
7. Xitoy tilining tovush tizimi
8. Xitoy tilidagi bo'g'inlar va uning turlari
9. Xitoy tilidagi unlilar tasnifi
10. Xitoy tilidagi undoshlar ravstiyasi va tasniflanishi masalalari
11. Xitoy tilida fonemalarni aniqlash metodikasi.
12. Xitoy tilida undosh fonemalar.
13. Xitoy tilidagi paydo bo'lish o'rni va usuliga ko'ra undoshlarning tasnifi
14. Xitoy tilidagi so'z turkumlari
15. Xitoy tilidagi son kategoriyasi.
16. Xitoy tilidagi olmosh va uning grammatik xususiyatlari.
17. Xitoy tilidagi ot va uning grammatik xususiyatlari.
18. Xitoy tilidagi sifat va uning grammatik xususiyatlari.
19. Xitoy tilidagi ravish va uning grammatik xususiyatlari.
20. Xitoy tilidagi olmoshli ravishlar uning grammatik xususiyatlari..
21. Xitoy tilidagi yuklamalar tasnifi.
22. Xitoy tilidagi ko'makchi (predlog)lar.
23. Xitoy tilidagi ort ko'makchilar.
24. Xitoy tilidagi bog'lovchilar.
25. Xitoy tilidagi klassifikatorlar.
26. Xitoy tilidagi gap bo'laklari ko'rsatkichlari.

## ТАВСИЯ ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov A.A. Xitoy tilining asosiy grammatik birliklari. –T.: ToshDSH, 2001.
2. Hidayatova Sh., Karimov A., Aminov E.. Xitoy tili grammatikasi. –T., 2004.
3. Hidayatova Sh.I. Xitoy tili fonetikasi. –T., 1994.
4. Kondrashevskiy A.F. Posobie po ieroglifike k uchebniku Prakticheskij kurs kitayskogo yazika (v dvux chastyax). – Moskva: Izdatelstvo «Muravey», 2000.
5. Sofronov M.V. Vvedenie v kitayskiy yazik. –Moskva: Izdatelstvo «Muravey», 1996.
6. Malyavin M.A. Kitayskaya sivilizatsiya. –Moskva: Izdatelstvo «Muravey», 2000.
7. Alimov I.A. va boshq. Sredinnoe gosudarstvo. Vvedenie v traditsionnyu kulturu Kitaya. –Moskva: Izdatelstvo «Muravey», 1998.
8. Kochergin I.V., Shchichko V.F. Stranovedenie Kitaya. – Moskva: Izdatelstvo «Muravey», 2001.
9. Susov I.P. «Istoriya yazikoznaniya». – Moskva, 2006.
10. Susov I.P. «Vvedenie v yazikoznanie». – Moskva, 2007.
11. Rumyansev M.K. «Fonetika i fonologiya sovremennogo kitayskogo yazika». – Moskva, 2007.
12. Shchichko V.F. «Teoriya i praktika perevoda». –M., 2007.
13. Xamatova A.A. «Omonimiya v sovremennogo kitayskogo yazika». –Moskva, 2006.
14. Aleksaxin A.N. «Teoreticheskaya fonetika kitayskogo yazika». – Moskva, 2006.
15. Gotlib O.M. «Prakticheskaya grammatika sovremennogo kitayskogo yazika». –Moskva, 2007.
16. Gotlib O.M. «Osnovi grammatologii kitayskoy pismennosti». – Moskva, 2007.
17. Nikitina T.N. «Grammatika drevnekitayskix tekstov». – Moskva, 2005.
18. Kun O.N. «Kitay: karmannaya ensiklopediya». –M., 2007.
19. 新华词典2001年
20. 外国人实用汉语语法2007年
21. 古汉语常用字字典2008年北京
22. 新闻明汉俄词典2008年上海
23. 对外汉语教学实用语法2002年
24. [www.yiwen.com.cn](http://www.yiwen.com.cn)
25. [www.ewen.com.cn](http://www.ewen.com.cn)
26. [www.cp.com.cn](http://www.cp.com.cn)
27. [www.blcup.com](http://www.blcup.com)
28. [www.blcup.edu.cn](http://www.blcup.edu.cn)

## MUNDARIJA

|  |    |
|--|----|
| <b>KIRISH</b> .....  | 3  |
| O'zbek xitoyshunosligining yuzaga kelishi va taraqqiyoti tarixidan .....       | 5  |
| Kafedra a'zolarining chop etgan darslik, o'quv qo'lanmalari va kitoblari ..... | 9  |
| <b>I BOB. XITOIY TILI HAQIDAGI ASOSIY MA'LUMOTLAR</b> .....                    | 11 |
| 1.1. Xitoy tili tarixini davrlashtirish masalalari .....                       | 11 |
| 1.2. Xitoyda grammatik fikrning rivojlanishi .....                             | 21 |
| 1.3. Xitoy yozuvi .....  | 25 |
| 1.3.1. Zamonaviy xitoy ierogliflarning tarkibi .....                           | 26 |
| 1.3.1.1. Sodda ierogliflar .....   | 26 |
| 1.3.1.2. Murakkab ierogliflar .....  | 27 |
| 1.3.1.3. Kalitlar .....  | 29 |
| 1.3.1.4. Fonetiklar .....  | 30 |
| 1.4. Xitoy yozuvini isloh qilish borasidagi harakatlar .....                   | 32 |
| 1.5. Ieroglif labirintlari: muammo va yechim .....                             | 36 |
| 1.5.1. "Ieroglifik klub" .....   | 37 |
| 1.5.2. To'liq (butun) belgilar uchun kurash .....                              | 39 |
| 1.5.3. Kompyuter to'sig'i (barer) .....  | 40 |
| <b>II BOB. XITOIY TILI FONETIK VA FONOLOGIK SATHI</b> ..                       | 43 |
| 2.1. Xitoy tilidagi unililar va ularning tavsifi .....                         | 43 |
| 2.2. Xitoy tilida undoshlar va ularning tasnifi .....                          | 48 |
| 2.3. Xitoy tilining fonematik tuzilishi .....                                  | 54 |
| 2.4. Xitoy bo'g'inlari .....   | 62 |
| <b>III BOB. XITOIY TILINING MORFEMIK TARKIBI</b> .....                         | 66 |
| 3.1. Xitoy tilida so'z yasalishi .....   | 66 |
| 3.1.1. Affikslar yordamida so'z yasalish .....                                 | 66 |

|  |     |
|--|-----|
| 3.1.2. Aralash yasalish .....                                  | 70  |
| 3.1.3. Abbriviatura yoki murakkab qisqartirilgan so'zlar ..... | 70  |
| 3.1.4. Konversiya orqali hosil bo'lgan yasalishlar .....       | 73  |
| 3.1.5. Chet tillaridan o'zlashtirishlar .....                  | 73  |
| 3.2. Xitoy tilida so'z yasash modellari .....                  | 75  |
| 3.2.1. Aniqlovchi tur .....                                    | 78  |
| 3.2.2. Kapulyativ tur .....                                    | 78  |
| 3.2.3. To'ldiruvchi tur .....                                  | 79  |
| 3.2.4. Natijaviy tur .....                                     | 80  |
| 3.2.5. Predikativ tur .....                                    | 82  |
| <b>IV BOB. XITOIY TILINING MORFOLOGIK TABIATI</b> .....        | 84  |
| 4.1. Xitoycha so'zning grammatik tabiati .....                 | 85  |
| 4.1.1. Umumlashtirilgan-kategorial ma'no .....                 | 86  |
| 4.1.2. Bo'g'in-miqdorli tarkib .....                           | 86  |
| 4.2. Xitoy tilida mustaqil so'z turkumlari .....               | 87  |
| 4.2.1. Ot .....  | 88  |
| 4.2.2. Sifat .....   | 94  |
| 4.2.3. Fe'l .....  | 97  |
| 4.2.4. Son .....   | 103 |
| 4.2.5. Olmosh .....  | 104 |
| 4.2.6. Ravish .....  | 106 |
| 4.3. Yordamchi so'z turkumlari .....                           | 109 |
| 4.3.1. Yordamchi so'zlar .....                                 | 110 |
| 4.3.2. Bog'lovchilar .....                                     | 112 |
| 4.3.3. Klassifikatorlar .....                                  | 116 |
| 4.3.4. Gap bo'laklari ko'rsatkichlari .....                    | 117 |
| <b>MUSTAQIL ISH UCHUN MAVZULAR</b> .....                       | 119 |
| <b>TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI</b> .....           | 120 |

**Texnik muharrir:**

***M.M. Zarifov***

**Kompyuter verstkasi:**

***M.M. Zarifov***

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining  
2013 yil 19 apreldagi 128-sonli buyrug'iga asosan 5120100 -  
Filologiya va tillarni o'qitish (xitoy tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha  
tahsil oluvchi talabalar uchun asosiy o'quv qo'llanma sifatida nashrga  
tavsiya etilgan (Ro'yxatga olish raqami 128-063)

Mazkur o'quv qo'llanma Toshkent davlat sharqshunoslik instituti  
O'quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan  
(Bayonnoma №3, 21.12.2012)

Bosishga ruxsat etildi 23.11.2013.

Bichimi 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub> Shartli 7,75 b.t. 100 nusxada bosildi. Buyurtma №. 6 .

Toshkent davlat sharqshunoslik institutining kichik bosmaxonasi.  
Toshkent, Shahrizabz ko'chasi, 25

© Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2013